




**Odil YOQUBOV**

---

# **BILLUR QANDILLAR**



ODIL YOQUBOV

# *Billur qandillar*

*Qissalar*



Yoshlar nashriyot uyi  
Toshkent –2018

**UO<sup>•</sup>K 821.512.133-31**

**KBK 84(5O<sup>•</sup>)6**

**Yo 93**

**Yoqubov, O.**

Billur qandillar [Matn]: / qissalar / O. Yoqubov. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 168 b.

*Odil Yoqubovning roman va qissalari o'quvchilar orasida keng shuhrat qozongan. Ularda hayotiy haqiqatlar, xarakterlar to'qnashuvi, keskin konfliktlar yorqin aks ettiriladi. Jumladan, mazkur kitobdagi qissalarda ham o'zaro insoniy munosabatlari yorqin va jonli ifoda qilingan.*

**UO<sup>•</sup>K 821.512.133-31**

**KBK 84(5O<sup>•</sup>)6**

© Yoshlar nashriyot uyi.

2018

**ISBN 978-9943-5319-5-6**

# **Qaydasan, Moriko?**

*Qissa*

Inson hayoti tasodiflarga, goho yetti uxbab tushiga kirmagan voqealarga to'la. Shu yil G'alaba kuni urushda halok bo'lgan shahidlar xotirasiga bag'ishlangan muazzam majmuuning ochilish tantanasidan uyga qaytib, endi dam olaman deb turgandim, telefon jiringlab qoldi.

Trubkadan qiz bolaning jarangdor ovozi keldi.

- Siz palonchi yozuvchimisiz? Men O'zbek turizmida telefon qilyapman. Bizga Yaponiyadan bir guruh turistlar kelishgan. Bir xonim sizni tanir ekan, yo'qlayapti. Iloji bo'lsa ko'rishsam, deyapti.

Hayratlandim.

- Qayoqdan tanirkan?

- Bilmasam, - dedi qizcha. - Yapon urushida qatnashgan ekansizmi? Port-Artur degan shaharda bo'lganmisiz?

Battar ajablandim.

- Ha, bo'lganman. Lekin...

Qizcha gapimni bo'ldi:

- O'shanda ko'rishgan ekansizlarmi-yey. Qaysi bir kitobingizni o'qigan ekanmi-yey.

«Ulug'bek» degan asaringiz bormi? O'sha kitobingizni o'qigan ekan. U ruscha bilarkan...

... Port-Artur! Ruscha biladigan yapon xotin! Allaqa-chon yodimdan chiqqan, biroq chamasi ko'nglimning bir chekkasida mudrab yotgan ham ma'yus, ham kuz oftobi-day tiniq esdaliklar selday yopirilib keldi-yu, xayolimni olib qochdi.

- Allo, - dedi qizcha. - Nega indamay qoldingiz? Yo uchrashishni xohlamaysizmi?

- Yo'-yo'q, xohlayman, xohlayman...

- Bo'lmasa telefonimni yozib oling. Istagan vaqtinngizni aytasiz. Qolganini o'zim tashkil qilaman.

Ming to'qqiz yuz qirq beshinchchi yilning iliq kuz oylari, Yapon ofitserlari uchun qurilgan shinam shaharcha - Port-Artur. Yam-yashil archazorlar orasiga yashiringan bir qavatli ozoda, ko'rakm uychalar. Rus so'zlarini allaqanday yoqimli bidirlab gapiradigan yapon qizchasi Moriko!

Xayolim yana uzoqlarga uchdi.

Salkam ikki ming chaqirimga cho'zilgan mashhur Gobi sahrosini yayov o'tganda chekkan uqubatlarimiz, ortda qolgan Gobi sahrosidan keyin yo'limizni to'sgan Xingan tog'lari ham orqaga chekingan. Oldinda esa cheksiz-chegarasiz, yam-yashil vodiy yastanib yotadi. Bu - shimoliy Manjuriyaning boshlanishi edi.

Bizlarni, ust-boshimiz chok-chokidan ketgan, kiyimlarimiz Gobi sahrosi changalzorlarida dabdala bo'lib, faqat paytavada qolgan, soch-soqollarimiz tikanday g'ovlab ketgan sho'r peshana soldatlarni shu vodiy bo'ylab yana podaday haydab ketishdi. Bir hafta deganda temir yo'l o'tgan qandaydir shaharga yetib bordik. Bu yerda xuddi konservaga tiqilgan selyodka baliqday qizil vagonlarga tiqishib olib ketishdi. Odam xuddi g'imirlagan pashshaday, ularni qandaydir shaharlardan (keyin bilsak bu - Mukdsi va Xarbin degan shaharlar ekan) olib o'tgach, bir hafta deganda haligi qizcha aytgan Port-Artur shahri atrofida yapasqi qirlarga olib borib, xuddi gurgurt qutisidagi gugurt cho'plariday to'kib tashlashdi.

Biz kelgan qirlar ko'rakm olmazor va nokzorlar bilan qoplangan. Kunduz kunlari bog'larga sho'ng'ib ketamiz: sababi urush, bog'lar qarovsiz qolgan... Qo'yinlarimizni

asal ta'mi kelgan nok va olmalarga to'ldirib, pastdag'i palatkalarimizga qaytamiz. Biz ham deyarlik qarovsiz qolganmiz. Xohlasak yotamiz, hohlasak turamiz, xohlasak olmazor qirlarga chiqib daydib ketamiz. Shunda ko'z oldimizda ulkan did va mahorat bilan qurilgan mittigina, lekin beqiyos ko'r kam shaharcha Port-Artur namoyon bo'ladi. Shaharchaning bir tomoni moviy bo'g'azga, bo'g'oz esa oftob ostida jimirlab yotgan okean mavjlariga tutashib ketadi. Ufqda qayoqqadir ketayotgan kemalar ko'zga tashlanadi. Ular qayoqqa ketayapti? Ehtimol elimiz tomon yo'l olayotgandir? Biz kemalar mo'risidan eshilib chiqayotgan ko'kimir tutunlarga entikib tikilamiz. «Biz ham bir kun shunday kemalarga tushib ona yurt tomon yo'l olarmikanmiz yo suyaklarimiz bu go'zal, lekin bizga yot tuproqlarda qolib ketarmikan», – degan o'y yuraklarimizni zirqiratadi...

Bu takasaltang, daydi hayot o'n kunga cho'zildi. So'ngra tevarak-atrofdagi qismlardan bizga «sovchi»lar kela boshladи. Ular o'zlariga kerak soldatlarni tanlab olishadi. Birovga merganlar, birovga pulemyotchi, birovga avtomatchilar kerak, yana birovga esa oshpaz kerak, hatto sartarosh, tikuvchilarni ham qidirib kelishadi.

Shunday kunlardan birida nomiga rota deyilgan, aslida intizom qolmagan bizning qismimizga ko'ksi jarang-jurung orden-medallarga to'la yosh, xushsurat bir mayor ikkita ofitser bilan «sovchi» bo'lib keldi. Ularga o'n-o'n beshta avtomatchilardan tashqari shtabda xizmat qiladigan, xati chiroyli, savodi yaxshi bir soldat ham kerak ekan.

Rota komandirimiz jangovor, ammo bor-yo'g'i yettinch'i sinfni bitirgan ofitser bu masalada mendan «foydanib» turar, yuqoriga yuboriladigan har xil axborotlarni menga yozdirib yurardi. U meni mayorga tavsiya qilgan ekan, chaqirib qolishdi. Mayor xuddi xarid qilgani ot bo-

zoriga kelgan odamday, yelkamdan ushlab, uyoq-buyoq-qa o'girib ko'rdi-da, to'satdan:

- Qaysi yurtdansan? – deb so'radi.
- O'zbekistondanman, – dedim men.
- Millating o'zbekmi?
- O'zbek...
- Nechanchi sinfni tugatgansan?
- O'ninchi sinfni.
- Ruschang chakki emas. Qachon o'rgangansan?
- Beshinchi sinfgacha rus mакtabida o'qiganman.
- Toshkentni ko'rganmisan?
- Ko'rganman...

Mayor lablariga kulgi yugurib:

– Toshkent degani nima degani? – deb so'radi. Men dovdirab qoldim.

– Toshkent degani – Toshkentda!

Mayor sho'rlab ketgan eski qalpog'imni burnimga surib:

– E, seni qara-yu, shuniyam bilmaysan! – deb kului. – Toshkent degani – toshdan qurilgan shahar degani. Tosh degani – tosh! Kent degani – shahar.

Men o'sal bo'ldim. Biroq mayor o'zini bilib-bilmaganlikka oldi-da:

– Xo'p, – dedi. – Bugundan boshlab shtabimda kotiblik qilasan. Tushgacha shtabda xizmat qilasan, keyin mening uyimda mayda-chuyda ishlarni bajarasan. Masa-lan, pashsha qo'rib yotasan.

– U o'ziga xo'p yarashgan mo'ylovchasini silab yana kului.

Shu kundan boshlab, piyoda askar hayotining inson bolasi chiday olmaydigan uqubatlaridan zada bo'lgan kamina turmushida aql bovar qilmaydigan rohat-farog'atga to'la kunlar boshlandi.

Qolgan vaqtim shtab boshlig'im – mayorning uyida

o'tadi. Mayorga Port-Artur qal'asining shundoqqina den-giz sohilidan, atrofi archazor chiroyli kottej ajratilgan. Kottej ilgari nufuzli yapon generaliga qarashli ekan...

Generalning hovlisi etagida xo'jalik uyi va ombo-ri ham bo'lib, barcha unvonlaridan va imtiyozlaridan ayrılgan general ikki qizi, biri 22-23 yashar Chiko san va kenja qizi Moriko bilan hovli etagidagi torgina xo'jalik uyida turishar ekan. Sobiq general mag'lubiyatdan keyin tarki dunyolikni ixtiyor etib, uyida qamalib olgan, qizlarini esa rus ofitserlaridan qizg'anib, tergagani tergagan ekan.

Men boshda ularga ko'p e'tibor bermay, o'z ishim bilan ovora bo'lib yurdim. Ishim esa juda g'alati, soldat xizmatiga sira o'xshamas edi.

Ertalab mayorning mashinasida xo'jayinim bilan birga shtabga boraman. Tushgacha mashinkada (mashinkada bosishni bir haftadayoq o'rganib oldim) yuqori shtablarga mayda-chuyda xabarlar yozaman, tushdan keyin esa mayorning shaxsiy ishlarini bajaraman. Haftada ikki marta polk omborxonasiiga borib, oziq-ovqat olaman. Ofitserlarga beriladigan bu oziq-ovqat juda antiqa edi. Non deganingiz sen je, men je – qolganiga: yaponlardan o'lja olingan, asal ta'mi keladigan, yeganda qisir-qisir qiladigan xalta-xalta galet-pichinon, quytirilgan sut, go'sht va baliq konservalari, kolbasa deganning uch-to'rt xili, bir necha shisha spirt, qo'yingki, birgina mayor emas, besh-olti kishi yeb tamom qilolmaydigan oziq-ovqat!..

Men bularni op kelib, salqin yerto'laga joylayman, so'ngra mayorning kiyim-kechaklarini dazmollayman, xonalarni yig'ishtiraman. Buning hammasiga ketsa bir-ikki saat ketadi, qolgan vaqt, mayor aytganidek: pashsha qo'rib yetaman. Zerikkan paytlarimda esa mayoring durbinini olib, derazadan mag'lub general kulbasi-

dagi hayotni, to'g'rirog'i, mendan besh battar zerikkan qizlarning sho'xliklari-yu, jinniliklarini kuzatib yotaman. Bir kun shu mashg'ulotim ustiga mayor kep qoldi. Men uning uyg'a kirganini sezmay qolibman, chunki ikki o'yinqaroq qizning sho'xliklari avjiga chiqqan, ular avval bir-biroviga suv sepishib, rosa kulishgan, keyin jiqla ho'l ko'ylaklarini yechib, qip-yalang'och holda, kiyimlarini siqa boshlagan edilar. Umrimda qip-yalang'och qizlarni ko'rmagan, go'lgina qishloq yigit - men yuragim gurs-gurs urib, entikib yotgan ekanman, to'satdan:

- Sen nima qilyapsan o'zi? - degan o'ktam ovozdan seskanib, sapchib o'rnimdan turdim...

- Hech nima, o'rtoq... mayor!

- Qani, durbinni buyoqqa cho'z! - buyurdi mayor. So'ng, durbin bilan bir zum generalning kulbasiga qadalib turdi-yu, mening holimga tushib qoldi. Qaltiroq bosib hansiray boshladи.

- Ob-bo qurib ketgurlar-ey! - dedi u, durbindan arang ko'zini uzib. Qara, qanday nozik, xipcha bel, go'zal! Aynilsa kattasi. Xuddi... buqacha talab g'unajinning o'zginasi... Erkaksiz o'lib bo'lganga o'xshaydi. Men kecha «Smersh»da ishlaydigan og'aynimdan bilib oldim. Biz general deb yurgan bu odam 1941-yili Amerika flotini yer bilan yakson qilgan dengiz janglarida qahramonlik ko'rsatgan kontradmiral ekan. Xotini o'libdi. Ikki qizi bilan turarkan. Katta qizining ismi Chiko ekan, anovi kichkina shaytonchaning ismi Moriko ekan.

Chikoning eri komikadze bo'lgan deyishadi. Komikadze degan so'zni eshitganmisan? O'zlarini o'limga mahkum etgan imperator uchuvchilarini shunday deyishgan. Ular samolyotlari bilan o'zlarini Amerika harbiy kemalariga tashlab o'lishgan... Yo tavba!

Mayor chuqur xo'rsinib, torgina xonani bir aylanib chiqdi-da, to'satdan qoramtilr ko'zlari sho'x chaqnab:

– Menga qara, og'ayni, – dedi entikib. – Boshlari-ni aylantirib ko'rmaymizmi, bularning? Kichkinasi hali yosh. Eplasang qitiq patiga tegib, o'ynashib yurishing mumkin.

Lekin kattasi menbop ekan! Nima deysan?

Esimga shtabdagi ofitserlarning shivir-shivir gaplari tushdi: rus ofitserlarining yapon qiz-juvonlari bilan alo-qada bo'lishlari qat'iy man etilgan. Kimki, bu masalada qo'lga tushsa shafqatsiz jazolanadi!..

– Be-ye, – dedi mayor bepisand qo'l siltab. – Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas! Olloh taolo oldimizga shunday beba ho ne'matlarni qo'yib qo'yipti-yu, biz bu ne'matni tatib ko'rmasdan o'tib ketamizmi bu dunyodan! – Mayor shunday deb xitob qildi-yu, to'satdan:

– Oziq-ovqatlardan nimalaring bor? – deb so'radi.

– Hamma narsa! Siz spirtdan boshqa hech narsani iste'mol qilmaysiz-ku, o'rtoq mayor!

– Bo'lmasa bunday qil! – dedi mayor gapimni bo'lib. –

Bir quti top! Unga bir-ikki banka quyiltirilgan sut, bir-ikki xalta galet sol. Ular galetni o'lguday yaxshi ko'rishadi! Bir-ikki dona kolbasa sol! Ungacha men bir xat yozib qo'yaman.

– Ular til bilishmaydi-ku? Qanday tushuntiraman?

– Lapashang. Shuncha yashab ko'rma dingmi?, Opa-singillarning mittigina ruscha-yaponcha lug'atlari bor. Doim ko'kraklariga bosib o'qib yurishadi-ku! Bor, buyruqni bajar!

Yerto'laga tushib, karton quti topdim. Uni mayor aytgan noz-ne'matlarga to'ldirib chiqdim.

Xo'jaynim hamon junbushda, betoqat kutib o'tirardi. U bir parcha qog'ozni ko'rsatib:

– O'qib ko'r! – dedi. – Sendan yashiradigan sirim yo'q!

Mayorning xati bor-yo'g'i bir ikki jumladan iborat edi.

«Chiko San! Men seni sevaman. Juda-juda sevaman!  
Kechasi qorong'i tushganda kutaman.

Kelmasang o'lib qolaman. Seni qattiq quchib, mayor  
Misha Nogov».

– Qalay, boplabmanmi?

Mayor tor xonani boshiga ko'tarib xushnud kului.

– O'tmish tajribamdan bilaman: bunaqa xat olgan biror-  
ta qiz-juvon rad etgan emas! Sen jo'jaxo'roz bu ishda ni-  
mani ham tushunasan?

Birorta qizni o'pganmisan o'zi? – Mayor o'ziga  
yarashgan ingichka mo'ylavchasini silab, yana qah-qah  
otib kului. Endi bunday qilasan, og'ayni! Qutichangni  
anov archaning tagiga yashirib qo'yasan-da, anovi kich-  
kina shaytonchani imlab chaqirasan.

– General ko'rib qolsa-chi?

Ko'rib qolganda nima qilardi seni? Rus ofitseri  
yapon qiziga oshiq-u beqaror bo'lidan iftixor qilsin  
bu pati yulingan qari xo'roz! Opasi bilan mening oram-  
da pochталон bo'lishi kerak bu mug'ombir shaytoncha!  
Agar shunga ko'ndira olsang – xo'p-xo'p! Ko'ndira olma-  
sang shtabdan haydab yuboraman! Yurasan mashqlarda  
kecha-yu kunduz yer emaklab! Bor, jangovor buyruqni  
bajar! Ana, o'zim bilganday hovlidan chiqib, archalarga  
suv sepyapti! Nikohlab beraman uni senga!

Haqiqatan, mittigina Moriko qo'lida uzun shlanga,  
yalang oyoq, yengsiz ich ko'yak va kaltagina trusikda,  
archalarga suv sepmoqda edi.

Haqiqatan, umrimda qizlar bilan erkin muoma-  
la qip ko'rmagan sodda yigitcha, yuragim patir-putur  
qilib hovliga chiqdim. Qutini biz tomondagi archa tagi-  
ga qo'yib, Morikoni imlab chaqirdim. Chaqirar ekanman  
men negadir uni hurkib qochadi, – deb o'ylagan edim.  
Moriko esa qo'lidagi shlangni otib yubordi-da, dik-dik  
sakrab, chopqillab yonimga keldi (chamasi, opa-singil-

lar bizdan mana shunaqa bir ishorani kutib yurishgan ekan-ov). U shunday yaqin keldiki, men qizning yengil nafasini tuydim, ich ko'ylagi tagidagi endigina turtib chiqqan va nimasi bilandir uchlik handalakchalarni eslatadigan ko'kraklari ko'ksimga tegib, vujudimdan o't chiqarib yubordi. Uning xiyol qiyg'och timqora ko'zları kulib turar, ko'z qorachiqlarining o'rtasida allaqanday tilla nuqtalar oftob zarralariday yaltillab turardi.

– Bu senga, – dedim men qutini ochib.

Moriko qiqirlab kuldii.

– O-o, juda ko'p-ku! – dedi u rus so'zlarini yaponcha talaffuz qilib. Uning kulgisi ham, rus so'zlarini buzib talaffuz qilishi ham endigina tilga kirgan go'dakning bidirlashiday yoqimtoy edi.

– Bu esa opangga, Chikoga! – dedim mayorning xatini uzatib. – Sir emas! Xohlasang o'qib ko'rishing mumkin!

Moriko xatni, olib, ko'z yogurtirib chiqdi-da:

– Men hozir, hozir! – deganicha chopqillab hovlilari tomon ketdi. Haqiqatan yangilishmagan edim, opa-singillar anchadan beri bizdan ishora kutib yurishgan ekan, chamasi!

Mayor derazani ochib:

– Nima bo'lyapti o'zi? – deb so'radi betoqat bo'lib. Beixtiyor kulib yubordim.

– Shoshmang, osh pishyapti. Opasi bilan gaplashgani ketdi!

Moriko zum o'tmay yaponcha-ruscha so'zlagich-lug'atni ko'kragiga mayin bosib qaytib chiqdi. Bu safar u boyagidan ham quvnoq, chehrasida bolalik sho'xligi barq urib turardi.

– Opam rozi, – dedi u, bir menga qarab, bir so'zlagich-dan so'z qidirib, – Faqat bugun emas, keyin, ertaga.

– Nega?

– Chunki... – U yana so'zlagichni varaqladi. – Chunki...

qiz-bola darhol rozi bo'lsa... uyat bo'ladi! – U bolalarcha quvnoq kuldi-da, qutichani yengilgina ko'tarib olib, dik-dik sakraganicha hovlilari eshigida g'oyib bo'ldi.

Og'zim qulog'imda mayorning oldiga chopdim. Mayor, gapimni eshitib darg'azab bo'ldi.

– Nega bugun emas, nega ertaga kelarkan? – baqir-di u. – Jangovor vazifani yaxshi bajara olmading, birodar! Bor, qayta gaplash! Ana, kichkina yana suv sepyapti. Unga ayt, tushuntir!

Bugun kelmasa komandirim o'lib qoladi, de!

Bu safar Moriko mening gapimga xomushgina javob berdi.

– Mayli, aytib ko'raman opamga! – U istar-istamas uylariga kirib ketdi-da, anchadan keyin kulimsirab qaytib chiqdi.

– Mayli, kapitan o'lib qoladigan bo'lsa... o'lib qolmasin bechora, chiqaman, dedi opam! – Moriko sho'x kulganicha qochmoqchi bo'ldi, yalang'och bilagidan shap ushladim.

– Sen ham kel, Moriko, kelasanmi? – hayajondan nafasim bo'g'ilib so'rading undan. U qo'lini tortib olmasdan:

– Nima qilamiz? – dedi ko'zlarini kulib.

– Gaplashib o'tiramiz.

– Bor-yo'g'i shumi?

– Agar rozi bo'lsang... rozi bo'lsang bitta o'paman.

Moriko tim qora qisiq ko'zlarini o'ynatib:

– Yo'q, menga o'pishish mumkin emas! – nozlandi Moriko.

– Nega?

– Chunki... chunki men kichkinaman!

U shunday deb, kaftini yelkamga qo'ydi.

– Men ham senday bo'lganimda o'pishishim mumkin!

U xandon otib kuldi-da, qo'lini qo'limdan yulib olib tura qochdi.

Bu safar mayor xursand bo'lib:

- Mana bu boshqa gap, soldat! - deya yelkamga qoqdi.
- Lekin qachon kelarkin? Soatini aytmabdi-da!
- Soatini nima qilasiz? Qorong'i tushganda keldi-da? Sabr qiling picha!
- Bor, bor, ishingni qil! - dedi mayor. - Yotib hurrakni otaver, ishing bo'lmasin biz bilan.

Shuncha sa'y-harakatlarimdan keyin qanday ishim bo'lmas ekan?

Men mayorning o'z xonasida, qafasdagi sherdai betinim odimlashiga qulooq solib, uzoq yotdim. Qorong'i tushdi hamki, Chikodan darak bo'lmasdi. O'zimni chalg'itish uchun asta-sekin Moriko haqida o'ylay boshladim. O'ylashim bilan dilimni oftobday yorug' bir tuyg'u chulg'ab oldi. Men negadir uning bugun bo'lmasa ham erta-indin kelishiga amin edim. Agar kelsa... nima bo'ladi, nima qilaman-a? - bu savoldan yuragim o'ynab, vujudimni titroq bosardi...

Shirin xayollar og'ushida dong qotib uyquga ketibman. Ertalab mayor ko'rparmidan tortqilab uyg'otdi.

- Sen menga xizmatkormisan, yo men senga malaymi? Tush bo'ldi-ku, dangasa! - mayor yosh boladay ishshayib turardi.

- Chiko San keldimi, o'rtoq mayor?

Mayor mo'ylovchasini silab, masxaraomuz kului.

- Keldimi emish! Hozir ketdi! Shunday muloyimki, ipak deysan. Naq urg'ochi mushuk deysan! Qo'lingda ipakday eshiladi-ya, qizg'ar! Yo'q! - Sochlarini to'zg'itib boshini silkidi u.

- Kamina umrimda ne-ne go'zallarni ko'rghanman. O'zimizning rus Maruskalarini deysanmi, xoxluskalar ni deysanmi, polyachkalar-u, nemkalar deysanmi? Faqat sening o'zbek qizlaringni tatib ko'rмаганман! - dedi u,

- chamasi meni xursand qilmoqchi bo'lib. - Toshkentda xizmat qilganimda ko'p harakat qilganman. Biroq,

hech narsa chiqmagan! Bizning maruskalar hamma bilan yuraverishadi. O'zbek bilan ham, gruzin bilan ham! Ammo senlarning qizlaringni tuzog'imga ilintira olmadim. Lekin o'yaymanki, ular ham yaponkalarga tenglasa olmaydi.

Bular batamom boshqacha bo'larkan... Xo'p, mayli!

Mayor, go'yo o'z gaplaridan o'zi xijolat chekkanday qattiq tomoq qirib oldi.

- Endi bunday qilasan, - dedi u, buyruq ohangida.  
- Qurib ketgur Chiko spirt ichmas ekan. Bir-ikki shisha vino topish kerak, do'stim! Sen bugun shtabga ham bormay qo'yaqol. To'g'ri omborxonaga chop. Ombor mudiriga ayt, mayor yubordi de! Yerning tagidan bo'lsa ham bir-ikki shisha vino topib berar ekansan, de! Agar topib bermasang... mana bu yeringga! - mayor ketini shapatalab xaholab kului, - tepar ekan, de! Jangovor vazifa ayonmi, og'ayni?

- Ayon, o'rtoq mayor!

- Ayon bo'lsa... buyruqni bajar! Uylarni yig'ishtir. Eh-timol kichkinangni ko'ndirarsan.

Ehtimol, u ham kelar kechqurun. Agar kelsa... ikkimiz boja bo'lamiz!

Mayor xushchaqchaq kayfiyatda shtabga ketdi. Men darhol durbinka yopishdim. Yo'q, na Chiko ko'rindi, na kichkina! Shunday bo'lsa ham o'sha kuni ro'y berishi mumkin bo'lgan totli onlardan yuragim hapqirib ishga kirishdim. Uyni yig'ishtirdim, avval mayorning, keyin o'zimning kiyimlarimni dazmolladim. So'ng, to'rvamni qo'ltiqlab omborxonaga chopdim. Ombor mudiri mayorning qadrdon oshnasi edi. U gapimni eshitib:

- Polk komandiriga op qo'ygan bir-ikki shisha vinom bor edi. So'rab qolsa nima qilaman? - deb to'ng'illadi. Biroq yo'q deyolmadi. Shishalarni qalin qog'ozga o'rabi berdi, berarkan:

– Nima balo, birorta yapon qizlari bilan topishib qolmadimi xo'jayining? – deb so'radi.

– Yo'q, og'ayningiz yapon qizga qararmidi, – dedim gapini cho'rt kesib. – Bilasiz-ku, do'sti-birodarlar ko'p. Har kuni kechqurun yig'ilishadi. Maishhat!

– Sen bola unga qarab yur. Jinnilik qilmasin. Qat'iy buyruq bor. Yapon qiz-juvonlari bilan ilakishib qolgan ofitser... mayor bo'lmoq tugul, general bo'lsa ham... – o'mbor mudiri xuddi mayorga o'xshab ketini shapatiladi.

– Mana bu yeridan tepki yeb, armiyadan quviladi!

Ombor mudirining gaplari bu qulog'imdan kirib, u qulog'imdan chiqib ketdi. Kayfim chog' (xo'jayinimning ikkinchi jangovor topshirig'ini yest qilyapman), xayolimda hamon o'sha:

«Moriko kelarmikan, kelsa nima bo'larkan?» degan totli o'y, ikki shisha sharobni xaltachamga urib uyga chopdim.

Moriko, egnida kechagi yengil kiyim, yalang oyoq, qo'lida jo'mragi teshik idish, derazamiz tagida gullarga suv separdi. Ko'nglimda o'sha ishonch, shitob bilan yugurib oldiga bordim.

– Moriko, yur, oldimga kir!

Moriko suv sepishdan to'xtab, ko'zlarimga tikildi.

– Nima qilamiz?

Moriko lablariga noz aralash mug'ombirona tabassum yugurdi.

– Gaphaelib o'tiramiz.

– Quruq gapdan nima foyda?

– Ho'liyam bor, – dedim xaltamdag'i shishalarni ko'rsatib.

– Men sharob ichmayman! – dedi Moriko.

– Moriko! – dedim yolvorib. – Jonim Moriko!

– Mayli, – Moriko, yoqimtoygina iljaydi. – Agar tegmasang kiraman. – U shunday dedi-da, go'yo g'aroyib kapalakday lip etib, uyimiz eshididan kirib g'oyib bo'ldi.

Yuragim hapqirib orqasidan kirdim.  
Bir zumda boyagi jur'atimdan asar ham qolmagandi.  
Moriko mening xonamda, koravotimda o'tirardi. Bir zumda uning boyagi o'yinقارоqligidan asar ham qolmagan. Timqora qiyg'och ko'zlariga allaqanday chuqr mung cho'kkandi!

Yoniga o'tirdim.

- Senga nima bo'lди, Moriko?

Bu mening xonam edi, - u chuqr tin oldi. - Ana u devorlarning hammasini o'z qo'lim bilan chizgan suratlar, o'zim tikkan kashtalar bilan bezatib qo'yardim...

- Nega ularni op ketding? - dedim, dedim-u o'z savolimdan ijirg'anib ketdim.

Moriko yalt etib qaradi, uning muloyim chehrasida nafratga o'xhash sovuq bir ifoda paydo bo'lди.

- Nega men o'zim chizgan rasmlarim-u, mehr bilan tikkan kashtalarimni bizni xor qilgan askarlarga qoldirib ketarkanman! - dedi u kutilmagan bir qahr bilan.

Nima deyishimni bilmay talmovsirab qoldim.

- Moriko, qo'y bu gaplarni...

- To'xta - dedi u, xiyol yumshab. - Ro'paradagi xonada opam Chiko eri bilan turishardi, xo'jayining yashayotgan xonada esa (otes, - dedi u), otam bilan marhum onam turardilar. Eshik - derazalarning hammasiga chirroyli darpardalar osib qo'yardik. Tuvaklarda gullar, xonalarda qimmatbaho to'qima stollar, kreslolar bo'lardi. Endi hammayoq ship-shiydon...

Men uning qizlarga xos nozik, nimjon yelkasidan quchdim.

- Biz soldatlarmiz-ku, Moriko. Soldatlarda nima ham bo'ladi? Undan ko'ra bitta o'ptir.

- Qo'yib yubor, - dedi Moriko.

- Qo'yvormayman. Bitta o'paman!..

- Qo'yvor, - dedi u qimir etmay... Bilib qo'y, men juda

kuchliman. Ishonmaysanmi? Mana! – u bir talpindi-da, xuddi ho'l baliqday sirpanib, quchog'imdan chiqib ketdi va bolalarcha sevinib kului. – Bilib qo'y, men Port-Artur shahar gimnastkalari orasida birinchilikni olganman. Ishonmaysanmi?

– Ishonaman, ishonaman, Moriko...

– Yana bilib qo'y, go'zal qizlar musobaqasida ham birinchi o'rinni egallaganman! Diplomim bor! – dedi u, yana o'sha bolalarcha yoqimtoy g'urur bilan. – Mana, qara! – Moriko shunday dedi-da, turgan joyida bir sakrab boshi shipga tekkuday balandlikka ko'tarildi. So'ng, allaqanday cheksiz go'zal bir harakat bilan havoda chir aylandi-yu, dik etib oldimga tushdi. U ko'zлari yonib, kulib turar, o'ziyam tengsiz suluv, tengsiz yoqimtoy bir qizchaga aylangan edi.

– Moriko, sen Port-Artur emas, jahon go'zallari musobaqasida ham go'zallar go'zali, degan nom olasan hali! Ke, o'tir!

– To'xta! – dedi u. – Qo'lingga erk berma. Men o'zim seni o'pib qo'yaman!..

U egilib, sal do'rdoq, mayin lablarini labimga tekkazdi. Uning lablaridan shakar qo'shilgan galet-pichinon mazasi, asal ta'mi kelardi.

Nazarimda, xonam, nainki xonam, butun jahon ajib bir nurga to'lganday tuyuldi-yu, qizning iltijosi yodimdan chiqib, tol chiviqday ingichka egik belidan quchdim.

– Qo'yib yubor, soldat! – Moriko xuddi boyagiday aql bovar qilmaydigan nozik bir harakat bilan baliqday sirpanib, quchog'imdan chiqdi.

– Xayr, soldat! – U yana o'sha bolalarcha quvnoq ovozda xandon otib keldi-da, tag'in g'aroyib kapalak misol o'zini eshikka urdi. Men dod deganimcha o'rnimda qoldim, qimir etishga majolim qolmagan edi.

Shundan keyin bir haftami, o'n kunmi men uchun

Morikoning sho'x qiliqlari, yoqimtoy erkaliklari, asal ta'mi keladigan, nurga to'lgan ajib kunlar, mayor uchun esa to'yga aylangan tunlar boshlandi. U har kun ertalab oldimga kirar va mo'ylavchasini burab, bir xil gapni takrorlardi.

– Yo'q, bu yapon qizlariga teng keladigan qizlar yo'q!  
– Men juda ko'p jononlarni ko'rghanman, lekin bunaqasini ko'rмаганман! – deb xitob qilardi. Va u har kuni bir xil savol berardi.

– Xo'sh, sening ishlaring nima bo'lyapti?  
– Yomon emas, o'rtoq mayor...  
– O'pishdan nari o'tdingmi?  
– Yo'q, o'rtoq mayor...  
– Latta! – derdi u boshimdagi pilotkamni yuzimga ishqab. – Battar bo'l, lapashang!

Afsus, olamni nurga to'ldirgan bu g'alati kunlar nari borsa bir hafta-o'n kun davom etdi-yu, kutilmaganda taqa-taq to'xtadi. U bamisoli osmon-u falakni qaldiratib kelgan momaqaldiroq, bamisoli chelaklab quygan jaladek kelib, jaladay birdan to'xtadi-qoldi.

Chamasi, general hamma narsadan voqif bo'lgan-u qizlarini qamab qo'yan edi. Soch-soqoli o'sib, uvada kiyimlarga o'ranib olgan devonasifat general, ba'zan-ba'zan hovlisida tanho ko'rinish qolar, uyoqdan buyoqqa telbalarcha aylanarkan, biz tomonga yovqarash qilib qo'yardi.

Mayor bir kun chidadi, ikki kun chidadi, uchinchi kun kechqurun shirakayf holda kirib keldi. G'azabdan qorayib ketgandi.

– Miyasi aynigan bu chol nima qilyapti o'zi? – dedi u durbinni ko'ziga tutib. – Qizlarini yerto'laga qamab qo'yanmi? Agar bugun ham ularni qo'yib yubormasa... Kechasi otib tashlayman bu iflosni!

Mayor shunday deb g'ijindi-yu, to'satdan:

– Iye, iye, qayoqqa otlandi bu telba chol, – deb xitob

qildi, – Generallik liboslarini kiyib opti-ku? Kim ruxsat berdi unga.

Shu payt generalning g'arib kulbasini to'sib turgan qator archalar orasidan general o'zi chiqib keldi. U g'ovlab ketgan soqolini qirtishlarkan, egnida haqiqatan ham generallik kiteli, boshida yapon gerbi qadalgan furajka, oyog'ida yalt-yalt etgan etik edi. General biz to-monga qaramasdan, qovog'ini uygancha, boshini kulgili darajada mag'rur tutib, eshigimiz yonidan o'tib ketdi.

Mayor yelkamga shapatilab buyurdi:

– Chop, boltani olvol! Agar yerto'lasining eshigini qulflab qo'ygan bo'lsa... Qulfini buzib bo'lsa ham, qamoq-dan chiqar qizlarni!

– Avval razvedka qilib ko'ray-chi! – deb, generalning hovlisiga qarab ketdim. Qulfini buzishning hojati bo'lma-di. Hovliga yaqinlashib qolganimda uydan «lip» etib Moriko chiqdi, chiqdi-yu, qo'limdan «shap» ushlab, o'ng tomondagi qalin archazorga sho'ng'idi:

– Yur, tezroq, otam kep qolmasin!

Yuzimga archa tikanlari igna bo'lib sanchildi. Biz ar-chazorning oxiridagi kaftdekkina ochiq joyda to'xtadik.

Oftob botgan, ammo kun hali yorug', dengiz to-mondan mayin shabada esadi. Morikoning yuzi biroz so'liqqan, u entikar, og'ir-og'ir nafas olardi.

– Biz bugun vidolashamiz! (proshay-proshay qila-miz), – dedi u.

– Nima bo'ldi o'zi? Nega to'satdan proshay-proshay qilasanlar? Opang Chiko qani?

– Chiko hozir komandiringga boradi. Bir minutga boradi. Proshay-proshay qilgani boradi! Moriko ko'z yoshlarini arta-arta bo'lgan voqeani gapirib berdi. Uning aytishicha, general hamma voqeadan voqif bo'lgan. «Men kim, palonchi jangovor generalning qizlari o'z otalarining g'ururini yerga urib, dushmanim ofitserlari

bilan yursa... bu qanday sharmandalik, undan ko'ra ota-laringni o'ldiringlar, toptanglar! – deb nola qilgan. – Men bu sharmandai-sharmisorlikni ko'tara olmayman, men rus ofitserining boshliqlariga borib, bor voqeani aytib beraman, uni armiyadan haydataman. Men bilaman, ular rus ofitserlarining yapon qizlari bilan yurishini qat'iy ta'qiqlashgan!»

General shunday deb baqirib-chaqirib xuddi bugungi day generallik liboslarini kiya boshlagan. Shunda Chiko ham baqirib, – ota, agar siz bu ishni qilsangiz, men shu bugun kechasi o'zimni anov archaga osaman! – deb faryod qilgan. Shundan keyin ota-bolalar quchoqlashib uzoq yig'lashgan, opa-singillar rus ofitseri bilan qayta uchrashmaslikka va'da berishgan. Bu gapdan keyin general yapon vakolatxonasiga borib, yurtlariga tezroq jo'natishlarini iltimos qilgan.

Ular ertalab poyezdda Dalniy degan katta portga borishadi. Portda yapon harbiylarini olib ketadigan ulkan kemaga tushib, o'z ellariga, Yaponiyaga ketishadi...

– Hozir sen bilan vidolashamiz... proshay-proshay qilamiz!

Moriko shunday dedi-da, o'pkasi to'lib, o'zini quchoq'imga otdi, ko'z yoshlari bilan yuvilgan mayin yuzini yuzimga bosib:

– O'p! – deb yolvordi. Istanatingcha o'p meni! Oldingi safar galet ta'mi kelgan yupqa lablari ko'z yoshlaridan sho'r edi. Men ham uning holiga tusha boshlagan, to-mog'im xippa bo'g'ilgan edi.

Moriko o'ng qo'limni ko'kraklariga bosib:

– Silab qo'y! – deb ingradi. Uning mitti ko'kraklari uchlik xandalakchalardan ham qattiq, ham mayin edi. Qo'llarim tegishi bilan Moriko, xuddi og'ir uyqudan uyg'onib ketganday, ko'zlarini katta ochdi-da, nozikkina sirpanib quchog'imdan chiqdi.

– Senlarda!.. ruscha emas, sening tilingda sevganini, juda-juda sevganini nima deydilar? – so'radi u, hamon titrab!

– Jonim deyishadi, jonginam deyishadi. Moriko o'zini archalar orasiga otdi. U yerdan uning yig'i aralash:

– Xayr, jonim, jonginam! – degan ovozi keldi... ... Chamasi, Chiko kelib ketgan, mayor o'z xonasida to'qima kresloda boshi xam, mung'ayib o'tirardi, oldida bir ban-ka spirit bilan bir buxanka qora non turardi. U mening kirganimni sezib, xira ko'zlarini ochdi.

– Bunday, og'ayni! – dedi u menga mastona tikilib. – Ular erta tong jo'nashar ekan. Sen anov deraza tagidagi gullardan ikki guldasta tayyorla. Ertaga poyezdga chiqib kuzatib qo'yamiz.

– Qandoq bo'larkin, o'rtoq mayor? Axir taniqli ofit-sersiz, shtab boshlig'isiz.

Mayor qulochkashlab stolni urdi. Spirit quyilgan ban-ka, bir bulka qora non qurbaqalarday dik-dik sakrab, polga tushdi.

– Mening nima bo'lishim bilan ishing nima sen chur-vaqanining? Bor, buyruqni bajar!

Vokzal uzoq emas, uyimiz bilan uning oralig'i nari borsa, bir chaqirim kelardi. Mayor meni uyg'otganda, atrof-tevarak g'ira-shira edi. Chamasi Morikolar ketib bo'lishgan edi.

Aftidan, yaponlarni kuzatib qo'yish qat'ian ta'qiqlangan bo'lsa kerak, perron bo'm-bo'sh edi.

Ammo vagonlar Port-Arturni tashlab ketayotgan oilalar bilan to'la, bolalar qiy-chuv qilishgan, ayollar bir-birovlarini quchib yig'lashar edi.

Morikolar parovoz yaqinidagi uchinchi yo to'rtinchisiga joylashgan ekanlar. General ko'rinas, opa-singillar, chamasi biz bilan vidolashish umidida, deraza oldida tippa-tik turardilar.

Bizni ko'rib ikkovi ham, chehralari go'yo birdan of-tob chiqqanday, yorishib, deraza oynalarini tushirdilar. Chiko, guldastaga yuzini yashirib, ho'ngrab yubordi. Moriko esa...

Moriko, bola emasmi, ko'zlarini jiqqa yosh, kulib turardi. Biz bir-birlarimizga bir og'iz ham so'z aytishga ulgur-madik, parovoz uzoq chinqirib, o'rnidan jildi.

Chiko hamon yig'lardi. Moriko ko'z yoshlarini artib qo'lini silkitdi.

– Sizlarda sevishganlar bir-biriga nima deydi, degan-ding? – qichqirdi Moriko.

– Jonim, jonginam deyishadi, Moriko.

– Jonim! – dedi u. Alvido, proshay, proshay, jonim!

Oxirgi vagon muyulishda g'oyib bo'ldi. Biz jimgina odimlab birdan bo'shab qolgan perron bo'ylab ketdik.

Perronning oxiriga borib qolganimizda, orqadan:

– Mayor! – degan qat'iy, dag'al ovoz eshitildi. Baland bo'ysi podpolkovnik bilan ikki kichik ofitser shitob bilan yaqinlashib kelardi. Ular yonimizga kelib, bizni qurshab olishdi.

– Sen, soldat, – dedi polkovnik. – Polkingga qaytaver.

Mayorning uyiga emas, polkingga, tushundingmi? Siz esa, mayor (u o'rtoq demadi faqat mayor dedi), biz bilan yurasiz!

Mayor, masxaraomuz g'oz turib:

– Yest, siz bilan yuraman! – deb kaftini chakkasiga tiradi.

Podpolkovnik o'z ofitserlari bilan mayorni qayoqqa-dir olib ketdi. Men polkka emas, mayorning uyiga qaytdim. Mayor kechqurun qosh qorayganda qaytib keldi. Uning yelkasidagi pogonlari yo'q, o'zi esa shirakayf edi.

– Endi bunday, og'ayni, – dedi u yelkamni quhib. – Ertalab polkingga borasan, uchinchi batalon, to'qqizin-chi rotada xizmat qilasan. Lekin men batalon komandi-

riga tayinladim: yaxshi yigit, savodi joyida, dastxati ham chiroyli, dedim. Ehtimol batalon shtabiga olishar!

– Siz-chi? – dedim, – Sizning taqdiringiz nima bo'ladi. U sochlarini silkitib g'amgin kului.

– Mening taqdirim! Na to'rt yil urushda qilgan xizmatlarim, maqtanib aytay, ko'rsatgan qahramonona ishlarim, na nemis akoplarining sim tikonlarini kesib o'tib yelkamda sudrab o'tgan asirlarim... birortasi inobatga olinmadi! Meni armiyadan haydashdi. Ajabo: sevgim uchun haydashdi! – asabiy kului u. – Endi nima qilaman? Uzoq Sharqqa ketaman. Birorta savdo kemasiga matros bo'lib yollansam ham, kema o'txonasiga ko'mir otib turadigan kochegar bo'lib ishlasam ham, Yaponiyaga boraman. Chikoni izlab topaman. Ehtimol o'sha tomonlarda o'lib ketarman. Xo'p, bor, uxla, men juda charchadim, og'ayni...

\* \* \*

Biz Interkontinental mehmonxonasining ko'rakam foyesida uchrashdik. Odam gavjum, chamasi bu joy xorijdan kelgan ko'p tadbirkorlarning ish maskaniga aylangan. Odam ko'p bo'lsa ham, men foyega qadam qo'yishim bilanoq o'ng qo'lda muzqaymoq yeb o'tirgan er-xotinga ko'zim tushdi. Yaponlarning yoshini bilish qiyin. Keksalari ham ba'zan yosh ko'rindi. Janob millionerning sochlariga hali qirov qo'nmagani, qop-qora bo'lib yaltillab turar, o'zi salobatli, vazmin ko'rinar, burniga tilla bandli ko'zoynak qo'ndirgan, egnida qimatbaho qora kostum.

Xonim esa... kalta qirqilgan kulrang sochlarining o'rtasidan, qoq peshonasidan orqaga taralgan bir tarami qizg'ish rangga bo'yalgani uchunmi, g'alati ko'rinar, upa-elikdan mohirona foydalansa kerak, yuzida bitta

ham ajin yo'q, sip-silliq, faqat kulganda (buni men ke-yin sezdim) lablarining chetlarida bilinar-bilinmas ajin-lar paydo bo'lardi. Egnidagi kiyimlari ham oddiygina, oyog'idagi tuflisi ham jo'ngina, faqat o'ng bilagi va bar-moqlarida yoqut ko'zli yirik uzuk va bilakuzuklar yaltil-lardi.

«Bu o'sha Morikomi yo boshqa bir nozaninmi?»

Yaqinlashar ekanman xonim o'rnidan turib, nozik oppoq qo'lini cho'zdi. (Mitti Morikoning mitti kaftlari).

- Janob falonchi?

Tasdiq ma'nosida bosh egdim.

- Marhamat, o'tiring, - dedi xonim.

Ruschani tuzukkina gapirar, faqat talaffuzi o'sha-o'sha, yoqimtoy edi.

Men o'tirishim bilan janob millioner xonimga bir narsa deb o'rnidan turdi.

«Erimning ishlari ko'p, sizdan uzr so'ryapti», - dedi xonim.

Biz yolg'iz qoldik. Xonim, hanuz yodimdan chiqmagan dilbar qizchaga bir o'xshar, bir o'xshamas edi... Uning hamon tiyrak, timqora ko'zlari hanuz chaqnab turar, faqat ko'z qorachig'ida tilla zarrachalari so'ngan edi.

Gapimiz qovushmas, mengina emas, xonim ham o'zini noqulay sezardi. O'rtaga cho'kkан noqulay sukunatni buzish istagida Chikoni so'radi. Xonim og'ir xo'rsindi. Chiko bultur olamdan o'tibdi. U boshqa er qilmapti. Generalning o'lganiga esa 10–15 yildan oshibdi. Men mayorni so'radi, bormadimi, dedim, dedim-u xijolat chekdim.

Xonim qoshlarini chimirib:

- Mayor? – deb so'radi va kuldi. – Rusi kapitan? Yaxshi odam edi.

- Bormoqchi edi, Chikoni izlab bormoqchi edi.

Xonim ma'yus jilmaydi.

– Yoshlik xayollari! Ertak!

Ko'nglimdan beixtiyor: «Nima qilardingiz kelib, xonim, nima qilardingiz anov buloqday tiniq esdaliklarimizga rahna solib?» – degan fikr o'tdi. Xonim go'yo mening o'ylarimni payqaganday chuqur tin oldi-da, hazine jilmaydi. Shunda u o'sha, bir necha daqiqaga bo'lsa ham, og'ir soldatlik hayotimni ajib bir nurga yo'g'irgan mitti Morikoga juda-juda o'xshab ketdi-yu, ichimda o'z o'ylarimdan xijolat chekdim. Axir kim bilsin, ehtimol bu xonim ham o'sha yoshlik esdaliklari sabab meni yo'qlab kelgandir? Ehtimol o'sha beg'ubor, musaffo tuyg'ular goho-goho uning diliga ham quyilab kelgusidir. Gunoh-korlarcha bosh egib, er-xotinni mehmonga chaqirdim. Moriko xonim, yaponlarga xos takalluf bilan tashakkur bildirdi va uzr so'radi. Er-xotin Samarqandga, so'ngra Buxoroga ketayotganliklarini aytdi. Qaytib kelganlardan keyin qo'ng'iroqlashadigan bo'ldik. Ammo na u telefon qildi, na men.

Sevimli yozuvchilarimdan biri Chexovning «Boloxonali uy» degan go'zal hikoyasi bor. Uning qahramoni, agar yanglishmasam, yosh student, yozgi ta'til chog'ida uzoq qarindoshlarining chorbog'iga mehmon bo'lib boradi. Qarindoshlarining ikkita qizi bo'ladi. Kattasi Vera juda chiroyli, ammo erga chiqolmagan, baxtsiz qari qiz. Ikki yosh bir-birlarini sevib qoladi. Biroq baxtsiz opa, baxtli singlisiga hasad qilib, bir kechada uni olib qayqqadir g'oyib bo'ladi.

Hikoya qahramonning «Qaydasan, Moriko», – degan nolasi bilan tugaydi.

# Matluba

*Qissa*

Matluba singlisining xatini ertalab olgan bo'lsa ham, o'qib chiqib stolining tortmasiga tashlab qo'ya qoldi. Chunki uning iltimosini ado etolmasligini tushungan edi. Keyin kun bo'yи sanatoriy vrachining zimmasida-gi ming xil mayda-cho'yda ishlar bilan bo'lib, singlisining xati yodidan ham ko'tarildi. Kechqurun nimanidir qidirib stolning tortmasini ochdi-yu, ko'zi xatga tushib, ko'ngli yana bir xil bo'lib ketdi.

Singlisi sanatoriyning shofyoridan berib yuborgan xatida shunday degan edi:

*«Opajon! Institutga eng kami o'n to'rt ball bilan qabul qilishar ekan. Men o'n ikki ball oldim. Biroq odamlar: har nechuk qishloqdan kelgansan-ku, shoshmay tur, deyishyapti. Kecha qabul komissiyasining mas'ul sekretari Samig'jon Matqobilov degan kishining oldiga kiruvdim. U kishi sizni yaxshi tanir ekan, salom aytdi, keyin ketmay tur, bir iloji topilib qolar, dedi.*

*Opajon! Indinga mandat komissiyasi bo'ladi. Shunga-cha bir kelib, o'sha yigitga uchrashib ketsangiz qandoq bo'lar ekan? Sanatoriyning mashinasida ikki soatda ke-lasiz-ku! Jon opajon! Shundoq qiling. Chunki bu yigit sizni juda... juda... hurmat qilar ekan...»*

Mastura «juda, juda hurmat qilar ekan», degan so'zlarning tagiga chizib qo'ygan edi. Ertalab bu so'zlar faqat g'ashini keltirgan edi, hozir ham yuragini jiz etti-rolmadi, lekin Masturaning «Opajon!» deb boshlagan

xatini qayta o'qirkan, nigohi oldiga uning ozg'in ma'sum chehrasi va mo'ltilrab turgan ko'zlar keldi...

Matluba yuragi «shig» etib, ochiq derazaning oldiga bordi.

Kun botgan, ikki tog' oralig'idagi chuqur daraga soya tushgan, lekin o'ng qo'lidagi osmon o'pgan cho'qqilar olmosday charaqlab turardi. Cho'qqi etagidagi sanatoriy bog'idan jaz va saksofon ovozlari kelar, pastdan shoppillab oqqan soy bo'yidagi yong'oqzor orasidan goh shirakayf xirgoyi, goh zo'r qahqaha eshitilardi.

Kecha kechqurun soy bo'yiga bir guruh «yovvoyi» dam oluvchilar kelgan. Ular orasida bir mahallar Matluba ishlagan shahar poliklinikasining bosh vrachi Asqar Aminovich ham bor edi.

Asqar Aminovich Matlubani ko'rib: «Iye, sho'ttamisiz hali? To'y bo'ldimi? Chaqirmadingiz-a?» deb hazillashdi. Uning bu hazili Matlubaning qalbidagi eski yarani tirnab, kechasi bilan to'lg'anib chiqdi.

Samig'jon ham o'shanda dadasi bilan birga «yovvoyi» larga qo'shilib kelgan edi. Ular soy bo'yiga chodir tikib, bir-ikki hafta turishgan edi. O' mahalda bu sanatoriy hali qurilmagan, Matluba esa endigma sakkizinchini bitirgan, kiyikday hurkak bir qizcha edi. Katta shahardan kelishgan bu odamlar juda g'alati tuyular, dam hurkak qishloq qizlarini suratga olib, dam «Tarzan» bo'lib daraxt shoxlarida uchib yuradigan xushsurat «poson» yigitcha esa bir yuragini jizzillatar, bir cho'chitar edi. Samig'jon ham boshqa qishloq qizlari orasidan yolg'iz Matlubani xushlasa kerak, uni ko'proq suratga olishga tirishardi. Ba'zan u Matlubaning qalbida ajib hislar uyg'otgувчи olis shaharlarning, allaqanday sirli qal'alarning suratlarini hadya qilar, ba'zan go'yo Matluba mevaga zorday, etak-etak yong'oq qoqib hadya qilar, qiz uyalib qochganda esa, quvib borib, sochidan tortqilab o'ynashar edi...

Lekin qiziq: Matluba har safar Samig'jonne o'ylar-kan, negadir ko'nglini yorug' nurga to'ldirgan bu yoz oqshomlari emas, hammadan burun yomg'ir chelaklab quyib turgan iliq bahor kuni esiga tushardi.

Unda Matluba sakkiz yillik maktabni bitirib, medtex-nikumning birinchi kursida o'qir edi.

O'sha kuni ust-boshi yomg'irdan shalabbo bo'lsa ham o'zi yosh boladay quvnab kulgan Matluba av-tobus to'xtaydigan joyga chopib borarkan, uni yangi «Moskvich» quvib o'tib, besh-olti qadam narida to'xtadi, so'ng mashinaning eshigi ochilib yosh bir yigitchaning boshi ko'rindi:

– Choping, Matlubaxon!

Matluba darrov tanidi: «Samig'jon!..» Tanidi-yu, shoshganidan mashinaning yonidan o'tib qochmoqchi bo'ldi.

Lekin Samig'jon «gaz» berib uni quvib o'tdi va yana mashinasini yo'liga ko'ndalang qildi.

– Iye, meni tanimadingizmi, Matlubaxon? Men o'sha... «Tarzan» bo'laman... Esingizdam?

Matluba beixtiyor iljaydi.

– Ha, esimda...

– Bo'lmasa nega qochyapsiz? Shaharga kelib, hali-yam shaharlik bo'lomadingizmi? Qani chiqing. Men bo'ri emasman-ku yeb qo'yadi deb qo'rqsangiz! – dedi Samig'jon kulib: – O'zingiz ayta qoling, Matlubaxon, siz-day qiz yomg'irda pishib tursa-yu, men mashinada o'tib ketsam qandoq bo'ladi, a?

Matluba nima deyishini bilmay:

– Mashina o'zingiznikimi? – deb so'radi, so'radi-yu, labini tishladi: shuniyam so'raydimi?

– Mashina pochchamlarniki, lekin o'zimniki hisob.

Nega desangiz pochchamlar haydashni bilmaydilar! – dedi Samig'jon va Matlubaga qarab ko'zini qisdi:

- Xohlasangiz har kuni kataysa qildiraman!

- Rahmat! - Matluba achchig'langan bo'lib, yuzini chetga burdi; lekin bu hazilkash, xushchaqchak yigitdan achchig'lanolmasligini, hatto qovog'ini solishga ham qurbi yetmasligini sezib, beixtiyor jilmaydi.

- Shunaqa bo'l sin! - dedi Samig'jon. - Sal qovog'i-nvizni ochib o'tiring. Odamning kapalagini uchirib yubordingiz-ku, Matlubaxon!

Samig'jon Matlubani yotoqxonalariga olib borib qo'yguncha bir lahza tinmay hazillashib, uni kuldirib bordi, xayrlasharkan:

- Ertaga Temiryo'lchilar parkida texnikumlararo voleybol musobaqasi bo'ladi, - dedi.

- Bizning komanda soat beshda o'ynaydi. Kelasiz, a, Matluba?

Matluba:

- Bilmadim endi... - deb bahona qidira boshlagan edi. Samig'jon, qo'lini og'ritib siqdi:

- Yo'q demang, Matlub! Kutaman. Bormasangiz xafa bo'laman!

Matluba sport bilan ko'p qiziqmas edi, musobaqa-ga yig'ilgan olomonni ko'rib hayratda qoldi: odamning ko'pligidan keng maydonga tanga tashlasa yerga tushmas edi.

Havorang mayka kiygan Samig'jon uzun, baquvvat oyoqlariga go'yo prujina o'rnatilganday, dik-dik sakrab kelib, Matlubani qo'lтиqlab oldi va voleybol maydoncha-sining chetida turgan bir to'p qizlarning yoniga boshlab bordi. Qizlarning shivirlashib qolganlarini ko'rgan Matluba darrov sezdi: rashk qilishyapti!

Qizlarning rashk qilishi bejiz emas: xushqad, kelish-gan Samig'jon o'yinda ham ustasi farang edi. Har safar Samig'jon osmonga sakrab to'pni qarshi tomoniga qara-ta urganida park xushnud qiyqiriqlardan larzaga kelar,

qizlar esa, ko'zлari chaqnab: «Qoyil, Samig'jon, qoyil!» deb qiyqirishar edi. Matlubaning o'zi ham shunchalik qizishib ketdiki, o'yinning oxirida g'alaba va tabrikldan og'zi qulog'iga yetgan Samig'jon qizlarning qurshovidan zo'rg'a chiqib Matlubaning oldiga kelganda o'pich bergenini o'zi ham bilmay qoldi!..

Keyin... keyin Samig'jon xizmatga ketdi. Matluba unikki yil kutdi.

Qishloq yigitlarining xatlari va yuborgan sovchilarini, kursdoshlarining ishq-muhabbati, hammasini rad etib kutdi. Bu o'rtada texnikumni ham bitirib, poliklinika ishga kirdi...

– Opajon...

Matluba bir sapchib «yalt» etib burilib qaradi. Ostonada... Mastura turardi. Ust-boshi chang-chung, boshidagi nafis havorang durrasi bir tomonga og'ib ketgan, ko'zлari horg'in.

– Yiqilib qoldingmi? Mastura yerga qaradi.

– Yo'q... Sizni tushgacha kutdim – bormadingiz. Keyin taksi olib keldim. Ertaga mandat komissiyasining majlisi...

– Bekor qipsan kelib, – dedi Matluba. – Men bari bir borolmayman.

Mastura ko'zлarini mo'ltillab opasiga tikildi.

– Nega?

– Chunki... men texnikumga ham, institutga ham birovga yolvorib kirgan emasman!

Matluba opasiga bildirmay «qult» yutindi.

– Axir u kishi... Sizni juda-juda... Matluba toqatsizlanib, boshini chayqadi.

– Bilaman. Biroq, bormayman. Yur, damingni ol. Endi nima bo'lsa ham... toleingdagini ko'rasan! – dedi u, so'ng singlisi yig'lab yuborishga tayyor ekanini ko'rib, yana ko'ngli erib:

– Meni kechir, Mastur, – dedi yolvorib. – Men sen aytgan... yigitning oldiga borolmayman, jonim. Sababini keyin... bir kun aytib beraman. Yur, dampingni ol...

Mastura indamadi, faqat pastki labini qattiq tishlab oldi. Opa-singil ambulatoriyadan chiqib, darvozaga ya-qinlashib qolganlarida bog'dan Asqar Aminovichning shirakayf ovozi eshitildi:

– Matlubaxon! Shoshmang, mana buni olib keting!.. Asqar Aminovich, egnida pijama, qo'lida dasturxonga o'ralgan tovoq, olchazordan chiqib keldi.

– Umringizda bunaqa osh yemagansiz. O'zim damladim... – Asqar Aminovich to'xtab bir Matlubaga, bir Masturaga qaradi.

– Bu qiz...

– Bu qiz mening singlim, – dedi Matluba. – O'xshaymizmi?

– O'xhash ham gapmi? Xuddi hozirgina tuxumdan chiqqan jo'jalarday! – deb kului Asqar Aminovich. – Sizni birinchi marta ko'rghanim esimga tushdi. Texnikumni bitirgan chog'ingiz... esingizdam!

– Esimda, – dedi Matluba, negadir qizarib.

– Singlim ham institutga kirmoqchi edi... bali yetmabdi...

– Qaysi institut? – dedi Asqar Aminovich. Mastura qizarib:

– Fizkultura instituti, – dedi istar-istamas. Asqar Aminovich Matlubaga yuzlandi:

– Ilgariroq aytmabsiz-da, Matlubaxon. Oshna-og'aynilar topilar edi. Attang! Asqar Aminovich gapini tugatmag'an ham edi, Mastura to'satdan ko'zlari yonib:

– Opamlar o'zlari shunaqa! Boshqaga qayishsa qayishdilarki, o'z jigariga rahm-shafqat qilmaydilar! – dedi-yu, tekis yo'lda qoqinib darvoza tomonga chopib ketdi.

Matluba rangi o'chib, uning ketidan tikilib qoldi.  
Asqar Aminovich o'ng'aysizlanib tomoq qirdi.

– Attang, oldinoq bilganimda...

– Mayli, – dedi Matluba. – O'z yo'lini o'zi topgani yaxshi.

Asqar Aminovich kuldii.

– Ammo-lekin... Xuddi o'zingiz! Xulq-atvori ham sizga o'xshar ekan. O'sha... texnikumda aytgan gaplaringiz esimga tushib ketdi... Esingizzdami?..

Matluba «ha» deb bosh irg'adi-da, Asqar Aminovich bilan sovuqqina xayrashdi. U uylariga borgisi kelmay, daraga, shovullab oqayotgan soyga burildi. Asqar Aminovichning gaplari ko'nglining eng chuqurida yotgan esdaliklarini yana qo'zg'ab, xayolini ag'dar-to'ntar qilib yuborgan edi.

\*\*\*

Oxirgi davlat imtihonini «besh»ga topshirib chiqqan Matluba dugonalarining tabrik va o'pichlariga hali to'ygancha ham yo'q edi, yo'lakda sekretar qizning ovozi yangradi:

– Matlubaxon, komissiyaga kirarmishsiz! Matluba qurshab olgan qiz-yigitlarning davrasini zo'rg'a yorib o'tib, hozirgina chiqqan auditoriyaga kirdi.

– Keling, yaqinroq keling, qizim! – komissiya raisi, yumaloqdan kelgan ximiya domlasi uni ochiq chehra bilan qarshi oldi, so'ng yonida o'tirgan to'ladan kelgan xushsurat odamga yuzlandi:

– Hali aytgan qizimiz Matlubaxon Ibrohimova shu kishi bo'ladilar...

To'ladan kelgan xushsurat odam oq oralab qolgan qalin sochlarni silab, Matlubaga sinovchan tikilib o'tirardi. Boya Matluba imtihon topshirganida bu odam yo'q

edi, shuning uchunmi, boshqami, Matluba iymanib ko'z qirini tashlar ekan, oq sochli odam ximiya domlasiga «ma'qul» degan ma'noda bosh irg'aganini ko'rib qoldi.

– Sizni hurmatli dotsentimiz Asqar Aminovich chayridilar, Matlubaxon, – dedi domla.

Asqar Aminovich uning gapini ta'kidlab bosh irg'adi.

– Bizning poliklinikamizga sizga o'xshagan... yosh, qo'l-oyog'i chaqqongina hamshira qizcha kerak edi, borasizmi, Matlubaxon?

Matluba yelkasini uchirdi.

– Taqsimotda meni Surxondaryoga yozishgan.

– Sizga Toshkent yaxshimi yo Surxondaryo dashtlarimi? – dedi Asqar Aminovich kulimsirab.

– Men shunchaki... o'shanda oyimlar betob desam ham qoldirishmovdi...

– Unda qoldirishmagan bo'lsa, endi qoldirishadi. U yog'ini bizga qo'yib berasiz. Kelishdikmi?

– Menga bari bir, – dedi Matluba va bu gapi Asqar Aminovichga yoqmaganini payqab qoldi. Dotsentning keng peshanasi tirishib, katta qo'y ko'zlar qisildi.

– Xo'p, yaxshi, – dedi u. – Ertaga ministrlilikning kadrlar bo'limiga boring. Men aytib qo'yaman.

Shunday qilib, Matluba Asqar Aminovichning rahbarligida hamshira bo'lib ishlay boshladи. Poliklinika da undan boshqa yana o'n chog'lik hamshiralalar ishlar, shunday bo'lsa ham odam yetishmas edi. Matluba ukol qilar, jarohatlarni bog'lar, dori-darmon berar, yuz xil asbob-uskulalarni ishga solib, bemorlarni davolar, xullas, ertalabdan kechgacha nafas olishga ham vaqt topolmas edi. U bosh vrachni deyarli ko'rmas, goho-goho yo'lakda duch kelib qolsa, Asqar Aminovich muloyim kulimsirab:

– Ha, qora qiz, ishlar qalay? – deb so'rab qo'yardi. Bosh vrachning qo'ygan laqabi tezda butun poliklinika ga tarqab, boshqalar ham Matlubani «qora qiz» deb

chaqiradigan bo'lishdi. Lekin bu laqab Matlubani uncha ranjitmas, chunki qorachadan kelgan bo'lsa ham yulduzi issiq ekanini yaxshi bilar, buni yosh vrachlarning muomalasidan ham sezar edi.

Matluba boshida nafis qizil durra, egnida nozik qomatiga yarashib tushgan va qoracha chehrasini allaqanday ochib yuborgan oppoq xalat, ikki o'rim mayin sochi belida, tor yo'lakdan dik-dik yurib o'tganida suqlanib qaramagan odam bo'lmas, hatto davolanishga kelgan keksa bemorlar ham Matluba ukol qilayotganida: «qo'lingiz yengil ekan, dard ko'rmang, qizim!», deb duo qilishar, yoshlar esa tirjayishib, yo'lini poylashar edi.

Bir kuni uni Asqar Aminovich chaqirib qoldi.

Matluba kirganda Asqar Aminovich, oldida bir likopcha novvot, do'ng peshanasida marjon-marjon ter, famil choy ichib o'tirardi. U Matluba bilan o'rnidan turib, qo'lib berib ko'rishdi, stolning oldiga chuqur kresloga o'tqazib, bejirim xitoy piyolasida choy uzatdi.

- Ishlar qalay, qizim, hech kim xafa qilayotgani yo'qmi?

Matluba uning sinovchan ko'zlaridan ko'zini uzib yerga qaradi.

- Yo'q, rahmat...

- Shikoyat yo'q deng? Yaxshi-yaxshi... - Asqar Aminovich do'ng peshanasini silab ancha o'tirdi, bir-ikki marta tomoq qirib oldi, keyin yasama xushnud kulib:

- Sizdan bitta iltimosim bor, Matlubaxon, - dedi. -

Lekin ko'nglingizga hech narsa kelmasin... xo'pmi?

Matluba charaqlab turgan qop-qora ko'zlarini yerdan uzib, bosh vrachga qaradi. Asqar Aminovich qoshlari chimirilib, yana tomoq qirdi.

- Mening bir jiyanim bor. O'zi juda yaxshi, kamtar, kulturniy yigit, Matlubaxon. Lekin haligidaqa... sal tortinchoqroq. Iltimosim shuki, ikkaloving bir uchrashib tanishsalaring...

Matluba Asqar Aminovichday salobatli odam shu gapni qo'zg'aganidan uyalib, yana ko'zini olib qochdi.

– Jiyanim sizni qayerdadir ko'rgan ekan. U sizni haligidaqa... qanday tushuntirsam bo'ladi, yoqtirib qopti... Uylaringizgasovchi yubormoqchi ekan, urishib berdim. Hozirgi yoshlardan avval tanishadilar-bilishadilar, ya'ni madaniy yo'l tutish kerak, dedim...

«Madaniy yo'l!.. Oyimlar kasal deb, yig'lab borganimda qoldirishmagan odamlar, sizning bir og'iz gapingiz bilan Surxondaryodan olib qolishdi. Bundan chiqdi, gap tagida gap bor ekan-dal!..»

Matlubaning o'yłari quyunday charxpalak bo'lib ketdi. Bu quyun orasidan Samig'jonning vokzalda xayrlashayotanlaridagi xafaqon chehrasi, g'amgin qo'y ko'zlari namoyon bo'ldi.

– Yana ta'kidlayman, ko'nglingizga hech narsa kelmasin, Matlubaxon, – dedi Asqar Aminovich. – Albatta, hozirgi yoshlarga, ya'ni sizga, mening bu gaplarim g'alati tuyulishi mumkin. Lekin men aminmanki, tanishsalari ngiz... til topishib ketasizlar. Jiyanim ham haligidaqa... ja zamonaviy, kulturniy yigit, Matlubaxon!..

«Zamonaviy yigit!..» Matlubaning ko'z oldiga yana Samig'jon keldi. Lekin bu safar uning xafaqon chehrasi tez xiralashib, esiga so'nggi xati tushdi:

«Belorus qizlari ja durkun bo'lar ekan, o'zlariyam ja qurib ketmagurlar...»

– Mening «Volgam» ixtiyorlaringizda. Bir o'ynab kelinglar... xo'pmi, Matlubaxon?

Matluba to'satdan yuragi uvishib, boshini pastroq egdi.

– Nusratjon! – dedi Asqar Aminovich. Matluba eshik ochilganini sezsa ham qaramoqchi emas edi, ixtiyoridan zo'r bir kuch ohista boqishga majbur etdi.

Ostonada haqiqatan zamonaviy kiyingan, qop-qo-

ra sochlari silliq, uzunchoq bug'doymang yuzi qip-qizil bo'lib ketgan bir yigit o'ng'aysizlikdan ko'zlar suzilib, ishshayib turardi. Yigit novchagina, lekin yag'rindor bo'lgani uchunmi, baqaloqroq ko'rinar edi.

– Qani, yoshlar, tanishib qo'yinglar... «Volga»mni olib, bir kataysa qilib kelinglar!

Asqar Aminovich shunday dedi-da, go'yo Matluba e'tiroz bildirishidan qo'rqqanday, shosha-pisha xonadan chiqdi. Nusratjon qoshlari chimirilib, allaqanday sodda yuzidagi jimir-jimir tomchilarni dastro'molchasi bilan artib, Matlubaning ro'parasidagi kresloga cho'kdi.

– Man Sizni... ko'rganman, juda ko'p ko'rganman, Matlubaxon...

– Shunaqami? – dedi Matluba. To'satdan uning dili-da bolalarga xos bir sho'xlik uyg'onib, kulgisini arang bosdi.

– Biz do'stlar bilan chollar choyxonasida osh qilishib... gurunglashib o'tiranimizda o'tib qolardingiz. Hamma sizning yo'lingizga tikilardi...

– Hammami yo sizmi?

Nusratjon «qovun tushir»ganini payqab, duduqlandi.

– Men... Meni-ku, o'zingiz ko'rib turibsiz...

– Ha, ko'rib turibman... – Matluba ko'nglidagi sho'x tuyg'uni yana ichiga yutib:

– O'tiraveramizmi sho'tta? – deb so'radi.

– Yuring bo'lmasa aylanamiz, «Volga E8»ni tashlab ketdilar-u tog'amalar...

– Tog'angizning «Volga»si bo'lmasa, o'n birinchi tramvay ham bor, – deb kului Matluba.

– Keling, bir kataysa qilaylik, – dedi Nusratjon ko'cha ga chiqqanlaridan so'ng. – Noumid shayton, biz ham «Volga»lik bo'lib qolarmiz...

Matlubaga Nusratjon bu gapni bo'lakcha ma'noda gapirganday tuyuldi, mashinaga chiqarkan, jo'rttaga:

– Qachon olasiz «Volga»ni? – deb so'radi. Nusrat ham bo'sh kelmay:

– Lotereya olib qo'yibman. Bittasi bo'lmasa bittasiga chiqib qolar, – deb kului.

Matluba ham beixtiyor kulimsiradi. U o'zidan hayron edi: boyas Asqar Aminovich jiyanidan gap ochganda ensasi qotgan bo'lsa, endi Nusratjonning gap-so'zlari yoqib, yuragining allaqayeri jazillay boshlagan edi. Nusratjon unga necha bor ishq-muhabbat izhor etgan qishloq yigitlarini eslatardi. Matluba bu yigitlarning sevgisini rad etsa ham, ularni qattiq ranjitayotganini sezib, ich-ichidan zil ketardi.

Qizning indamay qolishini boshqacha tushungan Nusratjon:

– Gap pulda emas, pul topiladi, – dedi. – Mashina to-pilmaydi, Matlubaxon. Ayniqsa yangisini topish qiyin.

– Pulingiz shuncha ko'pmi?

– Har qalay, bir mashinaga topiladi.

Matluba:

«Pulingiz mashinaga ketsa qalinni qanday to'laysiz?» deb hazillashmoqchi bo'ldi-yu, quyishqondan chiqib ketishdan iymanib:

– Olganga yarasha yangisini oling-da! – deb kului.

– Iloyim, aytganingiz kelsin! – dedi Nusrat. – Xo'sh, nima qilamiz, dalaga chiqamizmi yo kafe-mafega kiramizmi, Matlubaxon?

– Yo'q, birorta park-markka kira qolaylik. Yaxshisi, Skverga tusha qolaylik.

Skverda odam gavjum edi. Iliq musaffo havoni jiylida va akatsiya gulining xushbo'y hidi tutgan, xiyobondagi qiz-yigitlarning qo'llarida ham dasta-dasta gul, shuning uchunmi, yo yoshlarning sho'x kulgilaridanmi, ham-mayoq allaqanday ochilib, yashnab ketgan edi.

Nusratjon ham gul olmoqchi bo'lib, gulchilarning ol-

dida to'xtagan edi, Matluba «rahmat, kerak emas», deb qo'lidan tortdi.

Matluba duch kelgan birinchi bo'sh skameykaga o'zini tashlab, atrofga tikilarkan, Samig'jon xizmatga jo'nashi-dan bir kun oldin xuddi shu yerga kelganlari esiga tushdi...

Ular Skverga kechqurun kun botmasdan oldin kelish-gan, lekin gaplari tugamay, yuraklarni limmo-lim to'ldir-gan his-tuyg'ulardan entikib, qaynoq bo'salar og'ushida tong otganini ham payqamay qolishgan edi.

Bu esdaliklar toshqinday yopirilib keldi-yu, Matluba o'zidan ijirg'anib, Nusratjonga yuzlandi:

– Menga aytadigan gapingiz bor edi shekilli? Ayting...

Uning dabdurustdan bunday deyishini kutmagan Nusratjon shoshib qoldi.

– Endi... o'zingizdan qolar gap yo'q. Bor gapni tog'am-lar aytgandir.

Matluba kulgisini yashirish uchun yerga qaradi.

– Xayriyat tog'angiz bor ekan. U kishi bo'lmasa nima qilardingiz?

– Yo'q-yo'q, gap unda emas! Shunchaki... o'zingiz bilib turibsiz-ku, demoqchi edim... Qisqasi, birga turmush qursak deyman! – dedi Nusratjon va quloqlarigacha lovullab, xuddi tog'asinikiga o'xshagan do'ng peshonasi yaltillab ketdi. Buni ko'rgan Matluba gapni cho'zmasligi kerakligini, gap qancha cho'zilsa bu sodda yigit shuncha qattiq ranjishini tushundi.

– Meni kechirasiz, Nusratjon aka, – dedi u muloyimlik bilan, – men hali turmushga chiqmoqchi emasman. O'qimoqchiman.

– Mayli, o'qisangiz bosh ustiga...

– Yo'q-yo'q, gapni cho'zmaylik. Foydasi yo'q. Meni kechirasiz, Nusratjon aka.

Yigit allaqanday so'nib, nursizlanib qolgan ko'zlarini osmonga tikib:

– Mayli, nima ham deymiz, – dedi sekin. – Suymagan-ga suykanmaymiz, Matlubaxon...

– Xo'p, xayr bo'lmasa... – Matluba o'rnidan turdi. Nusratjon qo'zg'almadi. U osmondag'i siyrak pushtirang bultlarga tikilib o'tirar, oqarib ketgan yuzida, sal qisilgan qo'y ko'zlarida allaqanday sokin bir mung jilva qilardi. Matluba yuragi «shig'» etib, bir-ikki og'iz shirin gap aytgisi keldi, lekin yigitning ko'nglini battar og'ritishidan qo'rqib, ohista uzoqlashdi...

\* \* \*

...Ertalab Matluba endi ishga borgan edi, Asqar Aminovich chaqirtirib qoldi. Matluba xuddi hozir sovuq suvga sho'ng'iydigan odamday, vujud-vujudi jimirlab kettdi. Lekin bosh vrach uni kulib qarshi oldi.

– O, yoshlari, yoshlari! – dedi u boshini chayqab. – Tuzukroq gaplashishni ham bilmaysizlar.

Arzimagan narsaga arazlashib qolasizlar! Qani, o'tiring-chi, Matlubaxon? Xo'sh, kecha nima bo'ldi o'zi?

Matluba divanning chetiga omonatgina o'tirdi, hozir boshlanadigan savol-javoblardan o'ng'aysizlanib, ro'parasida o'tirgan bu salobatli va xushmuomala odamni ranjitishini bilib g'ujanak bo'lib oldi.

– Mabodo... qo'pollik qilmadimi u tentak?

– Yo'q, yo'q...

– Yo jiyanim yoqmadimi sizga?

Matluba uyalganidansovqotayotganday titrab:

– Kechirasiz, Asqar Aminovich, men... hali turmush qurmoqchi emasman! – dedi.

– Hmm... – Bosh vrach barmoqlari bilan stolni cherrib jim qoldi, so'ng o'rnidan turib, kabinetini bir aylanib chiqdi. Matluba unga qaramasa ham, bosh vrachning yuzidagi muloyim tabassum so'nganini, qoshlari chimirilib, qovog'i solinganini sezib o'tirardi.

Nihoyat Asqar Aminovich to'xtab:

– Turmushga chiqishni xohlamasangiz... bir nima deyishim qiyin, – dedi xo'rsinib. – Lekin nazarimda, siz xato qilyapsiz, Matlubaxon. Biz keksalar ko'pni ko'rganmiz. Ishq-muhabbat degan balandparvoz gaplarga uchib, gulday qizlar bebaxt bo'lganini bilamiz. Shuning uchun... men sizni o'z qizimday ko'rib, shu ishga aralashgan edim. Chunki jiyanim, qo'rsroq bo'lsa qo'rsroqdir, biroq... ko'nglida kiri yo'q, pok yigit, Matlubaxon. Haliyam bo'lsa o'ylab ko'ring!

Matluba boshini ko'tarmasdan:

– Mayli, – dedi ohista. – Men o'ylab bo'ldim, Asqar Aminovich.

– Shunaqami? Xo'p, nima ham deymiz? Ammo-lekin kechirasiz, Matlubaxon, men sizni bunchalik yengiltak deb o'ylamovdim. Umuman men sizdan buni kutmagan edim! Ha, kutmagan edim!

Matluba yalt etib qaradi. Bosh vrachning: «Men sizdan buni kutmagan edim» degan so'zlari unga: «Men sizni Surxondaryodan olib qolganimda iltimosimni yerda qoldiradi deb o'ylamagan edim», degan ma'noda eshitildi-da, bu gap juda qattiq tegdi.

– Qilgan g'amxo'rлиgingiz uchun... rahmat. Biroq men ham sizdan buni kutmagan edim.

– Niman kutmagan edingiz? – dedi Asqar Aminovich yurishdan to'xtab.

– Agar Surxondaryodan olib qolishdan maqsadingiz, jiyaningiz... Meni jiyaningizga olib berish bo'lsa... rahmat! Haliyam ketishim mumkin.

Asqar Aminovich, iyagi g'alati qaltirab, ko'zlari qisildi.

– Agar men shuncha yaxshilik qilib eshitgan gapim shu bo'lsa... Sizga ham rahmat. Lekin Toshkentda qolganingiz uchun pushaymon qilayotgan bo'sangiz, marhamat, haliyam yo'lingizdan qolmang!

– Mayli, ketaman! – dedi Matluba.

– Juda soz. Oq yo'l. Ertaga ministrlilikka boring. Kadrlar bo'limiga telefon qilib qo'yaman. Xayr. Muvafiqiyat tilayman.

– Rahmat! – Matluba boshini mag'rur ko'tarib xonadan chiqdi, lekin laboratoriyyaga kirdi-yu, o'zini divanga tashlab yig'lab yubordi. Bir zumda hamshira qizlar yig'ilishdi, bir-biriga gap berishmay surishtira ketishdi, biroq Matluba lom-mim demadi, xalatini yechib, o'z kiyimlarini kiydi-da, poliklinikadan chiqdi.

\* \* \*

...Ministrlikning kadrlar bo'limida odam ko'p edi. Matluba navbat olib, tashqariga chiqdi.

U chorburchak gulzorning chetidagi skameykaga o'tirib, ko'chadan g'izillab o'tayotgan mashinalarga, tramvay va trolleybuslarga pashshaday yopishib olgan bolalarga tikildi.

Matlubaning ko'ngli xufton, ko'chada uzoq o'tirdi. Har safar Asqar Aminovichning muomalasi esiga tushsa, ko'ziga milt-milt yosh kelardi. Kecha bu gaplarni pisand qilmagan bo'lsa ham, kechasi juda alam qildi. Yo'q, gap uning Surxondaryoga ketishida emas. U olis joylarga borib ishslashdan qo'rqlaydi. Lekin Asqar Aminovich... U bunday qilishga nima haqi bor?

Jiyanimga erga tegmading deb haqorat qilishga, ish-dan haydashga kim huquq berdi unga?..

Matluba buni har o'ylaganida bir to'lg'anib, tong ot-guncha xayolida Asqar Aminovich bilan olishib chiqdi.

U bir o'yi ministrga kirib bo'lgan voqeani aytib bergisi ham keldi, lekin bu fikridan darhol qaytdi, chunki ministr uni Surxondaryoga borishdan qo'rqlaydi, deb o'ylashi mumkin!

Matluba navbati o'tib ketishidan qo'rqib o'rnidan turgan edi, gulzorning ro'parasiga tanish qora «Volga» kelib to'xtadi-da, undan Asqar Aminovich tushdi.

Matluba ko'rib-ko'rmaganlikka olib, teskari burildi. Asqar Aminovich qo'lida katta charm papka Matluba-ning yonidan o'tib eshikkacha bordi, bordi-yu, xuddi bir narsa esidan chiqqanday to'xtab:

– Sen... bu yerda nima qilib yuribsan? – deb so'radi.

Matluba hayron bo'lib Asqar Aminovichning yuziga tikildi:

– Nima qillardim? Surxondaryoga ketmoqchi bo'lib keldim.

– Tentak! – dedi Asqar Aminovich, qovog'ini solib. – Bor, ishingga bor, hech qayoqqa ketmaysan!

– O'zingiz-ku, kecha...

– O'zingiz, o'zingiz! Bir og'iz gapirib bo'lmaydi sen-larga! – dedi Asqar Aminovich, yuzini burishtirib. – Hayronman hozirgi yoshlarga. Buncha tegma-nozik bo'lmasalaring? Bor ishingga, kech qolasan!

Matluba e'tiroz bildirolmadı, tomog'iga bir narsa tiqilganday tuyulib, «qult» yutindi-da, Asqar Aminovichning yonidan o'tib, tramvayga qarab chopib ketdi.

\* \* \*

Iyunning oxirlarida Samig'jondan telegramma keldi: «Yo'lga chiqyapman. Reys 421. Kutib ol. Matqobilov».

Qasdiga olib, Samig'jon keladigan kuni poliklinikaning uch-to'rtta xodimi bir haftaga Mirzacho'lga yordamga boradigan bo'lib qoldi. Ular orasida Matluba ham bor edi.

Matluba uzoq o'yładi. Asqar Aminovichning oldiga kirishga oyog'i tortmas, kirganda nima bahona ko'rsatishni tasavvur etolmas edi. Lekin o'ylay-o'ylay boshqa iloj topolmagach, oxiri kirishga majbur bo'ldi.

O'sha voqeadan keyin Matluba bosh vrach bilan gaplashgan emas, Asqar Aminovich ham u yer-bu yerda uchrashib qolganlarida sovuqqina bosh irg'ab qo'ya qolardi. Matluba kirganida Asqar Aminovich xalatini yechib, qoziqqa ilmoqda edi. U Matlubaga qaramay:

– Xo'sh, xizmat? – deb so'radi.

Matluba dudug'lana-dudug'lana iltimosini tushuntira boshlagan edi, Asqar Aminovich xuddi u kutgan savolni berdi:

– Sabab borolmaysiz? Sizni Mirzacho'lga komandirovka qilayotgan bo'lsak, yosh deb, bola-chaqasi yo'q deb yuboryapmiz axir. – Asqar Aminovich joyiga borib o'tirarkan, kinoyali jilmaydi. – Yo... biror muhim sababi bo'lsa – buni aytинг.

– Sababi... – Matluba dovdirab qolgani uchun o'zidan g'ijinib, sumkasidan telegrammani olib, stolga qo'ydi. – Sababi shu!

Asqar Aminovich telegrammani o'qirkан, peshanasini ishqab:

– Matqobulov... Bu kim? – deb so'radi.

– Soldat... xizmatini bitirib kelyapti... – Matluba ko'zlarini qayoqqa yashirishini bilmay, terlab ketdi.

– Xo'p. Soldat bo'lsa, xizmatdan kelayotgan bo'lsa... iloj yo'q, – dedi Asqar Aminovich. – Muovinimga aytинг: o'rningizga boshqa birovni tayinlasin!

Matluba sevinganidan stulga qoqilib eshikka otilgan edi, Asqar Aminovich to'xtatdi:

– Yaxshi yigitmi? To'yga chaqirish esingizdan chiqmasin-a, qora qiz?

... Samolyot bir soatcha kechikib keldi. Boshida do'ppi, egnida atlas ko'ylak, qo'lida bir dasta gul, yuragini chulg'agan hayajondan bir joyda turolmay, aeroport oldidagi xiyobonlarda aylanib yurgan Matluba, gulzorning chetidagi skameykada o'tirgan bir guruh er-

kak-ayollar uni zimdan kuzatishayotganini, bir-birlariga qarab imo-ishoralar qilishayotganini payqab qoldi:

«Samig'jonning qarindosh-urug'lari!»

Ular orasida o'n sakkiz-o'n to'qqiz yashar ikkita qiz bor, ikkalovi ham juda kelishgan, chiroyli edi. Biri sochi-ni qirqtirib sarg'ish rangga bo'yagan, ikkinchisi baland qilib turmaklab olgan. O'tgan-ketgan hammaning ko'zi shularda edi. Davrada xuddi Samig'jonga o'xshagan durkungina yosh juvon ham bor edi. Matluba gulzorning yonidan o'tayotib, yosh juvon chiroyli burnini jiyirib kelayotganini ko'rib qoldi, ko'rib qoldi-yu, qaddini rostlab olishlab ketdi.

Matluba Samig'jonne darrov tanidi. Samolyotdan chiqqanlar orasida besh-olti soldat bo'lsa ham, uni ko'rigan zahotiyoy tanib, yuragi o'ynab ketdi: o'sha!

Chap qo'lida shinel, o'ng qo'lida chamadon ko'tarib olgan Samig'jon trapdan chopqillab tushib, ildam yurib, temir panjaraga yaqinlasha boshladи.

Samig'jonning bo'y-basti yana ham cho'zilib, kuchga to'lib, baquvvat yigitga aylangan, uzunchoq qoramag'iz yuzida, ko'z qarashlari, hatto odimlashida ham allaqanday shiddatli bir narsa paydo bo'lgan edi.

Panjaradan chiqishi bilan uni qarindosh-urug'lari qurshab olishdi.

Chiroyli yosh juvon uning boshini egib ikki yuzidan cho'lp-cho'lp o'pdi, qizlar kulishib qo'l uzatishdi, qizlardan keyin shlapa kiygan sersavlat yo'g'on odamlar va xivchinday xushqomat yigitchalar navbatma-navbat quchoqlashib, o'pishishib uzoq ko'rishishdi, nihoyat, hammasi katta olomon bo'lib, aeroport binosiga qarab yo'l olishdi. «Meni chaqirgani esida ham yo'q! Ahmoq bo'lib yugurib kelibman!..»

Xuddi shu payt, Samig'jon, go'yo Matlubaning ko'ngil faryodini eshitganday, atrofga alanglab qaradi va

mung'ayib turgan qizni ko'rib, unga tomon intildi. Lekin yosh juvon uni to'xtatib, qulog'iga bir nima deb shivirladi. Samig'jon «xo'p» deb bosh irg'adi-da, Matlubaga qarab yugurdi. Matluba ham ko'ngli birdan ravshan tortib unga tomon intildi. Samig'jon qadoqday og'ir katta qo'li bilan uning mayin kaftini og'ritib siqarkan:

– Yaxshimisan, Matlub? – dedi kulimsirab. – Bitta o'psam bo'ladimi?

Matluba qo'lini tortib olib, orqaga tisarildi.

– Haliyam o'shanaqamisan? – dedi Samig'jon.

– Qanaqaman?

– Qishloqi!

– Boring. Qarindosh-urug'laringiz bezovta bo'lish-yapti! – dedi Matluba.

Samig'jon yana uning qo'lidan ushladi:

– Yur, biznikiga!

– Yo'q, yo'q! – Matluba cho'chib orqaga tisarildi.

– Kimdan uyalasan? Ja g'alati odatlarining bor-da! – dedi

Samig'jon, peshanasi tirishib. – Xo'p, bo'lmasa... Ertaga uchrashsak... Qayerda uchrashamiz? Ha, Temiryo'lchilar parkida! Temiryo'lchilar parki. Esingdam? Voleybol o'ynagan joy. Soat beshda. Esingdan chiqmaydimi?

– Samig'jon ko'zini qisib kului-da, kutib turgan qarindoshlariga qarab chopib ketdi. U chopib borib qizlarni qo'ltiqlab oldi. Buni ko'rib turgan Matluba, birdan o'pksa to'lib. «Bormayman! – dedi o'zicha. – Agar o'lib qolsam ham bormayman!»

Samig'jon go'yo uni darrov esidan chiqarganday qizlarni qo'ltiqlab, aeroportga kirib ketishi, qarindosh-urug'larining uni mensimay kinoyali boqishlari Matlubani shunday o'ksitdiki, dakki yegan sodda qishloq qizlariday ko'z yoshini tiyolmay piq-piq yig'lab yubordi, so'ng qizargan ko'zlari bilan avtobusga chiqishga iymab kamqatnov trotuardan piyoda ketdi...

Kun botgan, lekin daraxtlarning uchlari, ko'p qavatli baland imoratlarning peshtoqlari charaqlab ko'zni olar, oftobda erib, kigizday mayinlashib qolgan asfaltdan qo'lansa hid ko'tarilardi.

Matluba ko'ziga hech narsa ko'rinxayish, tuflisining poshnasi bilan yumshoq asfaltga «mix qoqib» borarkan, shu mahalgacha Samig'jonning qarindosh-urug'lari bilan qiziqmaganini esladi. Qarindosh-urug'lari u yoqda tursin, endi o'ylab qarasa, Samig'jonning o'zini ham yaxshi bilmas ekan. Yaxshi biladigan o'rtalarida nima ham bo'ldi? Qishloqda tanishishdi, keyin bir-ikki marta u yer-bu yerda uchrashishdi, xizmatga jo'nayotganida o'pishib xayrashishdi, nihoyat, xat yozishib turishdi. Shu!

Bunaqa tanishlar hozirgi yoshlari orasida ozmuncha bo'ladimi? Uch yildan beri kelgan hamma sovchilarini qaytarganida, tanishmoqchi bo'lgan hamma yigitlarga rad javobi bergenida... nimaga umid qilgan edi?

Yo'q, u ertaga uchrashuvga bormaydi. Samig'jon uni sevmas ekan, u ham Samig'jonga suykanmaydi!.. Mayli, qarindoshlari unga tanlaganlarini olib berishsin! Samig'jon uni «qishloqi» dedi, Matluba qishloqi bo'lsa, haligi qizlardan bittasini ola qolsin!

Matluba uchrashuvga bormaslikka astoydil qasd qilsa ham, ertasiga soat beshga yaqinlashgan sayin yuragi o'ynab, bir joyda turolmay qoldi. Qizning ixtiyoriga bo'ysunmagan bir kuch uni parkka sudrar, joyida o'tirishga qo'ymas edi. U o'zi bilan o'zi olishib, shunday charchadiki, soat beshga zang urganda holsizlanib divanga yiqildi. Shu payt uni telefonga chaqirib qolishdi.

- Matluba, senmisan? Xayriyat ketmagan ekansan!

Matluba Samig'jonning gaplariga emas, telefonda baralla eshitilib turgan chinqiroq muzikaga qulog solib, sukut saqlar edi.

– Gap shundaki, men borolmaydigan bo'lib qoldim.

Eshityapsanmi, Matluba?

– Eshityapman, – dedi Matluba. – Juda yaxshi bo'pti.

Men ham borolmas edim.

– Nega? – dedi Samig'jon kulib. – Mendan xafa bo'lyapsanmi? Bilasan-ku axir: bunaqa paytda keldi-ketdi ko'p bo'ladi. Uydan zo'rg'a qutulib chiquvdim, opam bilan pochchamlar sudrab ketishdi. Bu yerda... yana o'tirish. Ziyofat!.. – Samig'jon shirakayf odamlarga xos xushnudlik bilan kului. – Ko'rib turibsan-ku, axir!

– Ha, ko'rib turibman. Mayli, opangizning qayinsingillari bilan bo'lavering... – Matluba bu gapni aytishga aytib qo'yib o'zidan g'ijindi: «Muncha bachkana bo'lmasam!».

– Iye, ha? – dedi Samig'jon. – Koshki opamlarning sendaqa ajoyib qayinsingillari bo'lsa? Mana, opam ham kulyaptilar, seni aytyaptilar, sodda qiz ekan deyaptilar!.. Eshityapsanmi,

Matluba! Nega indamayapsan?

– Nima deyman?..

– Ertaga soat beshda. O'shatta. Eshityapsanmi – soat besh-u nol-nolda. Kech qolmagan tag'in. Ko'zim to'rt bo'lib kutaman. Eshityapsanmi, Matluba?

Matluba dili ravshan tortib jilmaydi.

– Agar chindan ko'zingiz to'rt bo'lib kutsangiz!..

\* \* \*

Matluba ishdan chiqib, atelyega bordi. Uning bundan bir oy muqaddam zakaz qilgan, lekin kecha Samig'jonning kelishiga tayyor bo'lмаган ko'y lagi tayyor bo'lган ekan. Ertalab u yangi ko'y lagi bilan yangi tuflisini kiyib, ikki o'rim sochini baland qilib turmaklab, poliklinikaga kirib kelganida, hamma hayratda qoldi. Hamshira qizlar esa:

– Voy, muncha ochilib ketibsan, Matluba!.. – degan xitoblar bilan qarshi olishdi.

Matluba bu xitoblar, yosh vrachlarning xushomadlari va kutayotgan uchrashuvdan boshi gangib, tushga-chaga qushday uchib yurdi. Tushki ovqat mahalida xalatini yechib, bufetga kirayotgan edi, kimdir muloyim ovozda: «mumkinmi, yaxshi qiz?» deb chaqirib qoldi. Matluba burilib qaradi-yu, yuragi allanechuk bo'lib ketdi.

Yo'lkada aeroportdagi chiroyli yosh juvon turardi! Juvon qop-qora ingichka qoshlarini chimirib, Matlubaga razm soldi, keyin: – kechirasiz, yaxshi qiz, – dedi. – Malol kelmasa bir minut vaqtingizni bersangiz. Tashqariga chiqqa qolaylik. Bu yerda gaplashadigan xoliroq joy yo'q ekan.

Ular oldinma-keyin yurib, poliklinikadan chiqishi-di. Ko'chaning u yuzidagi kichik gulzorga o'tib, chinor tagidagi skameykaga o'tirishdi.

– Matlubaxon – dedi juvon. – Siz balki «bu notanish juvon nima qilib yuribdi», deb hayron bo'layotgandirsiz?

Matluba indamadi. Uning yuragidagi qo'rquv so'ngan, uning o'rnnini allaqandaysov uq bir tuyg'u egallagan, chunki juvon nima maqsadda kelganini payqagan edi.

– Men... Samig'jonning opalari bo'laman, – dedi juvon jilmayib, jilmayganda oppoq tishlarining orasiga qo'yilgan nafis tilla qoplama yaltillab ketdi.

– Men sizni... o'zimga singlimday yaqin olganim uchun keldim, Matlubaxon. Siz juda... sodda, yaxshi qiz ekansiz...

– Rahmat.

– Yo'q, o'lay agar yolg'on gapisam! Siz menga juda yoqdingiz. Agar yoqmaganingizda, oq ko'ngil bir qiz ekaningizni bilmaganimda bu yerga kelib yurmas edim...

«Gaping bo'lsa rezinkaday cho'zavermay aytib qo'ya qolmaysanmi?» Matluba rangi o'chib, ko'zlarini olib qochdi. Juvon xo'rsindi.

– Ko'rib turibman, meni xushlamayapsiz. Siz Sa-  
mig'jonne juda yaxshi ko'rsangiz kerak...

Biroq oqibati nima bo'ladi? Yaxshiroq o'ylab ko'rdi-  
ngizmi buni?

Matluba entikdi.

– Oqibat... nima bo'lishini ukangizdan so'rang!

– Ukamni qo'yib turing, Matlubaxon!

– Nega endi qo'yib turar ekanman?

– Chunki... hozirgi yigitlarni bilasiz. Ayniqsa Sa-  
mig'jon. Shon-shuhratdan mast bo'lib, qizlarning xusho-  
madlaridan boshi aylanib qolgan. Hali ko'rishsalaringiz  
aytib berar: armiyada bir kun ham xizmat qilmabdi. Ikki  
yil Okrug ofitserlar uyining fizkultura komandasida vo-  
leybol o'ynab o'tkazibdi. Shaharma-shahar kezib yurib-  
di. Chet ellarga chiqib, bir dasta diplom olib, sport mas-  
teri bo'lib qaytibdi! Endi institutga kirmoqchi...

Besh yil o'qisa, shaharma-shahar aylanib yursa!  
Yana championatlar, chet elga chiqishlar, shon-shuhrat,  
yo'lini poylagan jononlar!.. Siz... Siz soddagina bir qiz  
ekansiz...

Matluba ko'nglining bir chetida uning haq ekaniga  
iqror edi, lekin iqror bo'lgani uchun ham battar yondi.

– Undan ko'ra... sen ukamga munosib emassan deb  
qo'ya qoling! – dedi u lablari titrab.

Juvon boshidagi durrasini to'g'rilab kuldı.

– O, Matlubaxon, Matlubaxon! Yoshsiz-da, yosh! Men  
sizning kelajagingizni o'layapman!

– Boya aytdim-ku, kelajagim nima bo'lishini ukan-  
gizdan so'rang, deb!

– Men ham aytdim-ku, ukam hali turmushning ach-  
chiq-chuchugini tatib ko'rmagan tantiq bir yigit deb. U  
hozir aql bilan ish tutadigan ahvolda emas!

«Ha-a... kosa tagida nima kosa bor ekan-da! – Mat-  
lubaning qalbida sho'x tuyg'u javlon urdi.

- Bundan chiqdi Samig'jon bilan gaplashgan. Samig'jon meni degan!..»

- Mayli-da! - dedi u keskin. - Nima qilsa ham o'zi qilsin! Siz aralashmang!

Juvon boshini chayqab xo'rsindi-da:

- Nechaga kirdingiz, Matlubaxon? - deb so'radi.

- Har nechuk, siz o'ylagandek qarib qolganim yo'q!

- Men ham shuning uchun so'radim-da, yoshingizni! - dedi juvon. - Samig'jon endi yigirma birga kirdi. Siz ko'p bo'lsa yigirmaga borgandirsiz... Hozir qaysi qiz o'z tengdoshiga turmushga chiqadi, Matlubaxon?

- Bundan chiqdi, sizningcha hozirgi qizlar chollarga tegar ekan-da!

- Cholga bo'lmasa ham, har holda, o'zidan o'n-o'n besh yosh katta odamga tegadi. Men hammani emas, aqli qizlarni aytyapman!

Matluba burnini jiyirdi.

- Aqli qizlar, a? Ahmog'ingiz bordir bu yerda! O'ylaysizki, niyattingizni bilmaydi deb? Bu nasihatingizni o'sha ukangizga olib bermoqchi bo'lgan qaynsingillaringizga bering! Tushundingizmi?

- Tushundim! - juvon rangi o'chib o'rnidan turdi, ko'zlari allaqanday sovuq chaqnab:

- Kecha sizni ko'rganimda soddagina qiz ekan deb o'ylovdim. Endi qarasam... ichidan pishgan ekansiz! Ha, siz ukamga munosib emassiz! Uning kelajagi porloq! Hali dong'i butun dunyoga ketadi. Siz ukamga tegib, uning boshiga dardisar bo'lmoqchimisiz? Tegib bo'psiz!

Juvon buning hammasini tin olmasdan tez gapirdi-da, Matluba og'iz juftlaganicha bo'lmay, ko'chadagi olomonga qo'shilib ketdi. Matluba hushiga kelganda juvonning allaqachon qorasi o'chgan edi.

Matluba avval o'ksib, ko'ziga milt-milt yosh oldi, keyin o'pkasini bosib, o'zidan g'ijindi, dilini chulg'ab olgan

alam qishloq qizlariga xos bo'lakcha bir o'jarlik bilan al-mashdi:

«Yo'q, men ukangga dardisar bo'lmoqchi emasman. Boshda men emas, ukang menga yopishgan. Yo'q, chuch-varani xom sanabsan! Samig'jondan ayirib bo'psan meni!»

Matluba sumkasidan mittigina oynasini olib, to'zg'i-gan sochlarni tuzatdi, yuzlari lovullab yongan muloyim qizchaning aksiga qarab, ko'z yoshi aralash jilmaydi: «Cholga teg deydi-ya! Hammani o'zingdek ko'rasanda!.. Kerak bo'lsa... o'sha qaynsingilliringni cholga ber!..

Ahmog'ing yo'q bu yerda!..

\* \* \*

Samig'jon aytgan joyida, bir mahallar voleybol maydoni bo'lgan, hozir esa o'rtasiga katta fontan o'rnatilgan gulzorning atrofida aylanib yurardi. Egnida yengsiz guldor finka, oyog'ida ko'zgudek yaltillagan uchi bigiz tuqli, to'zg'igan qalin sochlari o'ziga yarashib tushgan. Samig'jon Matlubaga aeroportdagidan ham xushsurat ko'rindi-yu, negadir yana ko'ziga yosh keldi.

Samig'jon uni ko'rib, tez yurib keldi-da, qo'lting'idan olib, chetroqdagi skameykaga boshladi.

Skameykada mushtdekkina bir kampir kolyaskada nevarasini o'ynatib o'tirar edi.

Samig'jon Matlubani qo'ltiqlab olganicha kampirning yoniga o'tirdi.

– Yarim soat kuttirding. Burun bunaqa odating yo'q edi-ku?

– Biz ikki yil kutganda siz yarim soat kutsangiz nima bo'pti?

– Ha-a? Balosan-ku! Bir-u nol! – Samig'jon shunday deb kuldi-da, to'satdan qizni quchoqlab yuzidan, lablaridan, bo'ynidan o'pa boshladi.

Uning olovli bo'sasidan nafasi qaytib vujudidan o't chiqib ketgan Matluba, kampir o'rnidan turganini ko'rib, hushiga keldi, qattiq talpinib, Samig'jonning qu-chog'idan chiqdi.

- Voy, nima qilyapsiz? Uyalmaysizmi odamlardan? - dedi hansirab.

- Bel! Kimdan? Ana u kampirdan uyalamizmi? U ham rosa o'pishgandir yoshligidan! - Samig'jon ko'zlar o't chaqnab, Matlubaga yaqinroq surilib o'tirdi. Matluba uning yana o'pishga chog'lanayotganini ko'rib, skamey-kaning chetiga surildi. Samig'jon xiyobondagi qiz-yigit-lar kulimsirab qarashayotganini ko'rib qovog'ini soldi.

- Ana xolos! Odamlar mening o'pichlarimdan emas, sening mana shu qilig'ingdan kulishyapti! - dedi u. - Shu odatlaring sira qolmadi-qolmadi-da!

- Odatimga nima bo'pti? Bo'lmasa sizga... uchragan joyda o'pib ketaveradigan tekin qizni topibsiz-da!

- Iye, bu nima deganining? - dedi Samig'jon.

- O'zingizni go'lllikka solmang! - dedi Matluba keskin. - Agar meni desangiz oldin... oldin ZAGSdan o'ting, keyin bilganingizni qiling!

- ZAGSdan o'ting! - Samig'jon ko'zlarini lo'q qildi, keyin birdan xoholab kulib yubordi.

«Bundan chiqdi... opaxonlarining gapi to'g'ri ekan-da!» - Matluba rangida qoni qochib, entikdi.

- Nega kulasiz?

- O'zi kuladigan gap qilyapsan-da!

«Yaxshi ko'rsa nega uylangisi keimaydi? Nega?» - dedi Matluba ichida. U bunga sira tushunolmas, Samig'jon esa hamon xoholab kulardi.

- Sichqonga o'lim, mushukka o'yin. Siz meni qo'g'ir-choqday o'ynatib, bir kun tashlab ketmoqchisiz!

- Qiziqsan-a! Hozirgi zamonda kim ZAGSni o'ylaydi? Bir-birini yaxshi ko'rgandan keyin...

– Yaxshi ko'rsangiz... – Matluba «to'y qiling, uylaning!» demoqchi bo'ldi-yu, iymandi.

– Yaxshi ko'rsangiz... nega ZAGSdan o'tishdan qo'rqsiz?

– To'xta! Axir sen... axir biz...

Samig'jon: «axir biz bir-birimizni sevamiz-ku!» demoqchi edi, lekin «sevgi» so'zi unga chuchmal ko'rinib, dudug'lanib qoldi, so'ng yuzi burishib: – Axir sen meni... yaxshi ko'rasan-ku! – deb xitob qildi.

– Siz-chi? – dedi Matluba. Samig'jon asabiylashib yelkasini uchirdi.

– Menga nima bo'pti? Axir... bir-birimizni yaxshi ko'rsak bo'ldi-da! O'ynab qolaylik...

Boshqasi bo'laverar axir!.. Nahot shaharga kelib hech narsani o'rganmagan bo'lsang? Men seni... tappa-tuzuk bo'lib qolgandirsan, deb o'ylovdim!

– Men siz aytgan tappa-tuzuklardan emasman! – dedi Matluba. – Bo'lmayman.

Bo'lolmayman ham.

– Agar men o'rgatsam-chi?

– Rahmat!

To'satdan Samig'jon qizning qo'lidan «shap» ushlab o'rnidan turg'azdi.

– Bo'ldi! Yur, bir joyga boramiz! Matluba unga hadik-sirab qaradi:

– Qayoqqa?

– Bir o'rtog'im chaqirgan. Jinday ziyofat bo'ladi. Mening yor-birodarlarim bilan tanishasanmi, yo'qmi? – dedi Samig'jon kulib: – Yo ZAGSdan o'tmaguncha tanish-maysanmi ?

Matluba indamay park darvozasiga tomon yo'naldi. Samig'jon parkdan chiqishi bilanoq besh panjasini ko'rsatib, (bu uning «besh so'm beraman» degani edi) duch kelgan birinchi mashinani to'xtatdi.

- Chilonzorga.

- O'tiringlar!

Mashina «gazik» edi. Samig'jon Matlubani, orqa o'rindiqqa chiqarib, o'zi yoniga o'tirdi-yu, mashina qo'zg'alishi bilan yana boyagiday mahkam quchoqlab oldi. Matluba uning issiq lablaridan labini olib qocharkan, goh o'zini ko'rib ko'rmanlikka olib o'tirgan shofyordan uyalar, goh boradigan joylarini o'ylab vahima bosar, lekin shunday bo'lsa ham Samig'jonnini siltab tashlashga jur'at etolmas, chunki uning «qishloqi» deb kulishidan qo'rqrar edi.

Mashina uzoq yurdi. Matluba Chilonzorga borgan bo'lsa ham hech qachon savdo markazidan nariga o'tmagan edi, shuning uchun ham nazarida, dunyoning bir chetiga borib qolganday tuyuldi.

Nihoyat Samig'jon «keldik» deb mashinani to'xtatdi-da, sakrab tushib Matlubaga qo'lini cho'zdi.

Ular katta ko'chaning muyulishiga tushgan, ko'chaning ikki yuzida egizak bolalarday bir-biriga o'xshagan to'rt qavatli binolar soldatlarday saf tortib turardi.

Samig'jon Matlubani qo'ltiqlab, ko'chaning chap yuzidagi hovliga boshlarkan:

- Sal qovog'ingni och, Matlub! - dedi yolvorib. - Xudi mendan qo'rqayotganga o'xshaysan, a?

- Yo'q, o'zim...

- Shunday chiroyli qiz!.. Hayronman: kiyinishing yurish-turishing joyida-yu, qiliqlaring... Ke, qo'y, zamonaviy qizlarga o'xshagin, Matlub!

- O'xshay olmasam-chi?

- Juda o'xshab turibsan-da! Faqat... qovog'ingni och! Qani bir jilmaygin. Yana!..

Samig'jonnining muloyim kulib gapireshi, ayniqsa «Matlub», deb erkalab chaqirishi qizga u bilan ilk bor uchrashgan chog'larini, yigitning allaqanday beg'ubor

sho'xliklari, qizlarni kuldirish uchun yong'oq tepasida «Tarzan» bo'lib shoxdan-shoxga sakrab uchishlarini eslatdi. Ko'z oldiga suyukli qishlog'i, tog' etagidagi qalin yong'oqzorlar keldi-yu, yuragi iliq mehrga to'lib, beixtiyor jilmaydi.

– Ha, bormisan? Mana endi men yaxshi ko'rgan Matlubga o'xshading! – dedi Samig'jon.

Ular arining uyasiday g'uj-g'uj bolalarga to'la hovlidan o'tib, qarshidagi uyning ikkinchi qavatiga chiqishdi. Samig'jon «34» deb yozib qo'yilgan eshikning tugmasini bosdi. Eshik ochilib, ostonada bo'ynidagi galstugi bir tomonga qiyshayib, siyrak malla sochlari to'zg'ib ketgan pakana xomsemizgina bir yigit paydo bo'ldi. U shirakayf ko'zlarini Matlubaga tikib ishshaydi:

– E, bormisanlar, olamda? Qani, xonim, marhamat qilsinlar! – Yigit Matlubaning qo'lting'idan olmoqchi bo'lib qo'lini cho'zdi, Matluba xuddi yosh boladay hurkib, Samig'jonning orqasiga yashirindi. Uni xomsemiz yigtingning mastona harakatigina emas, ichkaridan eshitilayotgan chinqiroq muzika bilan qizlarning qahqahasi, ayniqsa yo'lakni to'ldirgan pag'a-pag'a tamaki tutuni-yu, allaqanday qo'lansa hid seskantirib yuborgan edi.

Pakana yigitning xuddi bo'yalganday qip-qizil, qalin lablarida g'alati tabassum jilva qildi:

– Iye, ha, namuncha cho'chiysiz, xonim? Bo'ri emasmizki, yeb qo'ysak! – Yigit gapini tugatmagan ham edi, yo'lakda u kuni Samig'jonne kutgani aeroportga chiqqan ikki qiz ko'rindi.

Qizlar Matlubaga «salom» degan ma'noda bosh irg'ashdi-da, Samig'jonne qo'lting'lashib ichkariga boshlashdi.

– Sizdaqa kavalerdan o'rgildik! – Kutaverib ko'zimiz to'rt bo'ldi-ku, o'rtoq Matqobilov?

Samig'jon qizlarni ko'rganda Matluba esidan chiqqanday, xushnud kulib ichkariga kirib ketdi.

– Qani, xonim! – pakana yigit, qiyshayib qolgan gals-tugini to'g'rilib, Matlubaning bilagidan ushladi.

Matluba to'satdan qishloqda eshitgan vahima-li gaplari, mana shunaqa ziyofatlar-u bu ziyofatlarda bo'ladijan behayoliklar haqidagi «mish-mish»lar esiga tushib:

– Yo'q, yo'q, kirmayman! – deb baqirdi-da, qo'li-ni tortib olib, zinadan pastga otildi. U birinchi qavatga tushganida orqadan haligi yigitning:

– «Hoy, Samig'jon! Tutib kelgan kiyiging qochib ket-di, og'ayni!» degan ovozini eshitdi.

Samig'jon uni katta ko'chaga chiqqanida quvib yetib, qo'lidan ushladi:

– To'xta? Qayoqqa qochyapsan? Nima bo'ldi senga?

– Hech nima! – Matluba qo'lini tortib olib, uning yuzi-ga g'azab bilan tikildi. – Qayoqqa olib keldingiz?

– Qayoqqa bo'lardi? Og'aynimnikiga keldik.

– O'rgildim bunaqa og'ayningizdan. Men koptok emasmanki, og'ayningizga oshirsangiz! – Matluba shartta burilib ketmoqchi edi, Samig'jon ushlab qoldi.

– Shoshma-shoshma, nimalar deyapsan o'zi? Nahot hazilni tushunmasang?! Axir og'aynimning xotini bor-ku!.. Bu juvonlarning bittasi o'shaning xotini-ku!..

Matluba yana ko'zлari charaqlab ketdi.

– Xotini bo'lsa... nega menga osiladi? Siz ham yaxsiz! Meni xomsemiz og'ayningizga tashlab, uning xotini bilan... qo'lтиqlashib...

Matluba gapirolmay yuzini kaftlari orasiga yashirdi. Samig'jon uni yelkasidan quchoqlab, kuldi.

– Shu ham gap bo'ldi-yu! Bular juda yaxshi, juda oq ko'ngil, odamlar, axir!... Sen...qanaqasan o'zi?

– Mayli, men shunaqaman! – dedi Matluba iztirob bilan. – Ulardaqa bo'lolmayman! Bo'lishni xohlamayman. Tushundingizmi?

Samig'jon yo'lovchilar qiziqsinib qarayotganini ko'-rib, Matlubani chetta tortdi.

Qizning xatti-harakatlari boyda uning kulgisini qistatgan bo'lsa, endi g'ashiga tega boshladidi. Ayni zamonda qizning so'zlarida, allaqanday ichki bir dard aks etib turgan ma'sum chehrasida, yosh bilan pardalangan katta qora ko'zlarida bo'lakcha bir poklik va samimiyat bor edi. Samig'jon bu samimiyatni sezар, sezgani uchun hazinga burishga urinardi.

- Bundan chiqdi... to'y bo'lmaguncha ko'rishmas ekanmiz-da!

- Nega kulasiz? Yaxshi ko'rsangiz... nega qo'rqsiz?

Samig'jonning yuzidan iztirob aks etdi.

- Haliyam qo'rqayotganim yo'q. Lekin... kimga kerak shu ish? Men hali o'qiymen, axir!

- O'qisangiz nima qipti? - dedi Matluba. - Siz o'qisiz, men ishlayman. Sizga yordam beraman.

Matluba: «Jonim bilan xizmatlaringizni qilaman!» demoqchi bo'ldi-yu, Samig'jon g'alati kulimsiraganini ko'rib, labini tishladi. Ko'nglida esa uning «xo'p» deyishini iltijo qilar, agar u «xo'p» desa chindan ham uning vafodor yori, sodiq do'sti bo'lishga qasamyod qilardi...

Samig'jon aftini bujmaytirib:

- To'y, uy-ro'zg'or, qozon-tovoq, bola-chaqa! Voydod! - deb kuldi.

Matluba boshini egdi, qo'rqib bo'lsa ham o'jarlik bilan:

- Voydod bo'lsa... men ham bunday yurolmayman, - dedi.

- Bo'lmasa kutar ekansan-da! - dedi Samig'jon, - Besh yilga chidaysanmi?

- Mayli, kutaman!

- Qarib qolasan-ku! - Samig'jon bu gapni aytishga aytib qo'yib, darrov tilini tishladi.

Chunki Matluba to'satdan rangi o'chib, lablari pirpirab ketdi.

- Qarib qolishimdan qo'rqsangiz... atrofingizda parvona bo'lib yurganlar bilan bo'lavering! Institutni bitirib, mashhur bo'lganingizda uylanasiz!

Matluba shunday dedi-da, o'zini katta ko'chaga otdi. U yoqdan bu yoqqa g'izillab o'tayotgan mashinalarning biri tormozini g'ichirlatib to'xtadi, ikkinchisi chetga burilaman, deb ariqqa qiyshayib qoldi. Matluba esa ko'ziga hech narsa ko'rinxayib, ko'chadan o'tdi-da, trotuardagi olomonga qo'shilib ketdi...

Samig'jon bir lahma qizning ketidan tikilib turdi, keyin qo'lini bir siltab, orqasiga qaytdi.

\* \* \*

Hozir olti yildan keyin, o'shanda Samig'jonga aytgan gaplari, darhol «ZAGSdan o'tasan» deb, oyoq tirab turib olganlari Matlubaning o'ziga ham g'alati tuyuladi, buni har eslaganida uyatdan yuzlari burishib ketadi. Lekin sodda qishloq qizi, u o'sha kecha Samig'jon bilan aloqani uzib, to'g'ri qilganiga amin edi. Tong otguncha mijja qoqmay, qorong'ida shiftga tikilib yotarkan, Matluba o'shanda yana bir narsani ko'ngliga qattiq tugdi: o'qishi kerak! Chunki nazdida, Samig'jon ham, opasi ham uni shunchaki bir hamshira deb o'ylaganlari uchun nazarga ilishmaganday tuyuldi. Agar u institutda o'qiganida ular ham boshqacha muomala qilishar edi!..

Shuning uchun ham qishloqi bir o'jarlik bilan: «Agar boshimga tosh yog'sa ham o'qiyman, kirish imtihonlaridan surunkasiga o'n yil yiqilsam ham o'qiyman!» deb o'ziga o'zi so'z berdi.

Samig'jon bu voqeadan keyin ham bir-ikki marta Matlubaxonni izlab poliklinikaga keldi. Lekin Matluba uning oldiga chiqmadi. U chiqmaslikka chiqmas edi-yu keyin bir necha kungacha hech qayoqqa sig'may, pushaymon chekib yurardi. Umuman, Samig'jondan ko'nglini uzish-

ga qattiq ahd qilsa ham uni zimdan kuzatishda davom etar, gazetalarda suratlari chiqsa qirqib olar, u haqdagi maqolalarni qayta-qayta o'qir, shunday paytlarda dunganalariga bildirmay xilvatda yig'lab ko'nglini bo'shatar edi.

Bir kun – unda Matluba ToshMIning ikkinchi kursida o'qir edi, – mediklar bilan fizkulturachilarining voleybol bo'yicha o'rtoqlik uchrashuvni bo'ldi. Uchrashuvda Samig'jon ham qatnashdi.

Matluba Samig'jon ko'rib qolishidan qo'rqb, ham shuni istab, o'yinni boshdan oxirigacha tomosha qildi.

Fizkulturachilar uchrashuvni uch-u bir hisobi bilan yutdilar. Uyinning oxirida fizkulturachilar Samig'jonne osmonga otib, tabriklashdi. Uni tabriklashib, atrofida gиргиттон bo'lганлар орасида қизлар ко'п edi. Buni ko'rgan Matluba maydondan sekin chiqib ketdi.

Negadir ko'ngli vayron bo'lган Matluba, katta ko'chada ma'yus borarkan, to'satdan uning yoniga «Volga» kelib to'xtadi-da, Samig'jonning «Matlub» degan tanish ovozi eshitildi.

Matluba yuragi shig' etib, yalt etib qaradi, qaradi-yu, mashina to'la qizlarni ko'rib, o'zini yana olomon orasiga urdi.

Oxirgi safar Matluba Samig'jonne beshinchi kurs imtihonlarini topshirib, praktikaga ketayotganida ko'rdi. Bir kun kechqurun so'nggi imtihondan qutulgan Matluba xurram kulib, yotoqxonasiga kirgan edi, qo'shni xo-nada turadigan bir qiz yugurib kirdi:

– Sizni bir yigit chaqiryapti! Ja ketvorgan yigit!

Matluba darrov sezdi: Samig'jon! Samig'jon hovlida papiros chekib turardi. Matlubani ko'rganda oftobda qoraygan shiddatli yuzida kinoyali tabassum jilva qildi.

– Mana, bir qoshiq qonimizdan kecharmikansiz, deb keldik, Matlubaxon! Matluba unga yaqinroq bordi-yu,

seskanib ketdi: Samig'jon oyoqda zo'rg'a turardi!.. Gals-tugi bir tomonga qiyshayib qolgan, ko'zları qizarib ket-gan, lab-lunji osilgan...

Matluba vujudi zir titrab orqaga tisarildi.

- To'xta, nega qochyapsan, Matlub! – dedi Samig'jon.
- Mana, xohlasang ZAGS dan o'tamiz. Agar sen uchun mening yuragimdan ZAGS qog'ozi ortiq bo'lsa, marhamat, unga ham tayyormiz!

U Matlubaga yaqinlashmoqchi bo'lib bir-ikki qadam tashlagandi, qoqilib ketib, akatsiyani ushlab qoldi.

Matluba qayrilib ham qaramadi. U yotoqqa kirdi-da, o'zini karavotga tashlab yig'lab yubordi.

Shu-shu Samig'jon qaytib kelmadi. Ehtimol o'shanda mast bo'lsa ham Matlubadan ranjigandir. Undan ran-jimagan, ko'ngli qolmagan kim bor o'zi? Bitta-yu bitta singlisi Mastura bo'lsa... uni ham yig'latdi! Bultur institutni bitirib, qishloqqa kelgandan beri qancha joydan sovchi keldi – hammasini qaytardi, hammasini ranjitdi. Yigitlar uni kibor deyishadi, ba'zilar hatto bemehr, toshbag'ir qiz deb o'ylaydi. Balki Samig'jon ham shu xayolga borgandir? Matluba bo'lsa... Koshkiydi Samig'jon yana bir marta qidirib kelsa, kelib bir og'izgina iliq so'z ayt-sa... nimalar qilmas edi Matluba?.. Hijron dudida laxcha cho'g' bo'lgan yuragi yoshlik ehtirosi, qizlik mehr-muhabbati – hamma-hammašini unga ikki qo'llab tutmas-midi! Uning sadoqatli yori, hamdard do'sti, sirdosh o'rtog'i bo'lmasmidi? Bu g'urur bu, alamlarni esidan chiqarib, bir umr «cho'rishi» bo'lmasmidi?..

Koshkiydi odamlar buni bilishsa! U ham tirik jon ekanini, yoshlikda qo'msagan beg'ubor, pok muhabbat orzusida yonib bitganini, qonida ko'pirgan ehtirosini jilovlay-jilovlay charchaganini, oldin Samig'joni pushay-mon qildirib, keyin uning misoli bir cho'rishi bo'lish ni-yatida adoyi-tamom bo'lganini tushunishsa!..

Yo'q, hech kim buni bilmaydi, hamma uni «dimog'dor» bir qiz deb o'ylaydi. Matluba chuqur xo'rsinib o'rnidan turdi, pastda, qorong'i jarlikda shovullab oqayotgan daryoga qulq solganicha, bir-bir bosib orqaga qaytdi.

Mastura boshiga budilnikni qo'qib, divanda g'ujanak bo'lib uqlab yotar, yig'lagan bo'lsa kerak, qovoqlari shishgan, sochlari yostiqqa yopishib qolgan edi. Matluba yuragiga quyulib kelgan opalik mehridan ko'ngli erib, singlisining ma'sum chehrasiga, nam kipriklariga tikilib, birpas turdi, so'ng allamahal bo'lib qolsa ham, mashina so'ragani sanotoriy direktorining uyiga ketdi.

Opa-singil sanotoriyning almisoqdan qolgan taraqturuq «gazigi»da yo'lga chiqqanlarida qorli cho'qqilar usti endigina oqara boshlagan, lekin dara hali zim-ziyo, tog' bag'ridagi bog'lar qorayib ko'rinar, soyning shovulashi allaqanday vahimali tuyulardi.

Ular barvaqt yo'lga chiqib yaxshi qilishgan ekan, pachoq mashina goh radiatori qaynab, goh motori o'chib, shaharga soat to'qqizdan oshganda kirib borishdi. Qishloqdan ikkilanmay chiqqan Matluba shaharga yaqinlashgan sari hayajoni ortib, talmovsiray boshladi. Agar yonida Mastura gunohkor boladay mung'ayib o'tirmaganda, balki yarim yo'ldan qaytib ketar edi.

U institut binosi ko'rinishi bilanoq mashinani to'xtatib, shofyorga javob berdi, sochini, kiyimlarini tuzatar kan, hayajonini yashirish uchun jo'rttaga dag'al ovozda:

– Qani, boshla! – dedi singlisiga. – Men bilmasam, qabul komissiyalarining qayoqda-yu, o'rtoq Matqobilov qayoqdalar?

Mastura oldinga o'tdi. Uning ketidan borayotgan Matluba institut oldidagi xiyobonlarda yurgan to'p-to'p qiz-yigitlarni ko'rib, beixtiyor to'xtadi.

– Qayoqqa chopasan? Matqobilov keladigan vaqt bo'ldimi o'zi?

– Kelgan bo'lishlari kerak. Soat ikkida mandat komisiyasi. Hamma ish o'sha kishining qo'llaridan o'tadi-ku, axir! – Mastura ko'zлari jovidirab bir opasiga, bir institut tomonga qaradi-yu, birdan chehrasi yorishib ketdi.

– Ana, keptilar! U yoqqa emas, bu yoqqa qarang. Ko'rdingizmi, qizlar bilan gaplashib turibdilar-ku!..

Matluba rangi o'chib, singlisi ko'rsatgan tomonga qaradi. Samig'jon qo'lida shlapa, terakka suyanib, bir guruh qizlar bilan chaqchaqlashib turardi. Uzoqdan uning chehrasi aniq ko'rinas, faqat oppoq tishlari yiltirar, lekin Matlubaning nazarida u hech o'zgarmagan, aksincha, yana ham yasharib ketganday tuyuldi. Kutilmagan-da Matlubaning esiga Samig'jonning bir mahallar kulib aytgan gaplari tushdi:

– Kutsang mayli-yu, lekin... qarib qolasanda!..»

– O'sha kishi, – dedi Mastura. – Tanimadingizmi?

– Tanidim, – Matluba quruqshab qolgan lablarini yaladi. – Tanidim-u biroq... meni kechir, Mastur, men bu odam bilan uchrasholmayman! Keyin... bir kun hammasini aytib beraman. Kechir, jonginam! – Matluba singlisi quchoqlab yuzidan o'pgan bo'ldi-da, Samig'jon ko'rib qolishidan qo'rqib, ariq bo'yidagi daraxtlarni panalaganicha chopib ketdi.

Mastura qult etib yutinib institutga qarab ketdi. U Samig'jonga uchrashmasdan sekin o'tib ketmoqchi edi, lekin eshikka borganida Matqobilov ko'rib qolib, qizlar davrasidan chiqdi.

– Ha, puchuq, qayoqlarda yuribsan? – dedi u kulib. – Kecha izlab topolmadim.

Mastura boshini xam qilib, tuflisining uchi bilan yer chiza boshladи.

– Men kecha... qishloqqa boruvdim.

– Shunaqami? – dedi Samig'jon. – Qalay, opangni ko'rdingmi?

– Ko'rdim. Opamlar... hozir sho'tta edilar... Samig'jon birdan rangi o'zgarib, atrofiga olazarak bo'lib qaradi.

– Qani? Qayoqda?

Samig'jonning yuzida aks etgan hayajon, ovozidagi titroq misoli bir nur bo'ldi-yu, Masturaning ko'nglini qorong'i qilib turgan allaqanday shubhalarni to'zg'itib yubordi. U to'satdan hamma narsaga tushunib, sekin xo'rsindi.

– Opam... ketib qoldilar. Sizni ko'rdilar-u ketib qoldilar...

– Nega? – dedi Samig'jon. – Nega keldi-yu, ketdi?

– Bilmasam...

– Tavba! – Samig'jon bo'g'ilib ketayotganday bo'lib tomog'ini siladi so'ng:

– Eh, Matlub! Matlub! – deb bosh chayqadi-da, miyi-g'ida kulimsiradi. – Opang... Haliyam o'sha-o'sha ekan-da a?

... Matluba esa, bu payt institutdan uzoqda shahar parkining eng xilvat joyida bir o'zi o'tirardi. U o'zi bilan o'zi olishar edi: «Hozir qilgan ishi to'g'ri bo'ldimi, yo'qmi? Masturaga nisbatan, bitta-yu bitta singlisiga nisbatan yaxshi qilmadi, albatta. Lekin hozir Samig'jon bilan uchrashganda nima derdi? O'shanda gapingizga kirmay ahmoqlik qilgan ekanman, mana endi pushaymon bo'lib keldim, deydimi?»

– Yo'q, uchrashmaganim yaxshi bo'ldi! – derdi Matluba. Lekin ko'zlarini park darvozasidan uzolmas, qayoqqa ketganini singlisiga aytmaganini unutib, Samig'jon izlab kelishini orziqib kutar, olisda unga o'xshagan yigit ko'rinsa yuragi o'ynab ketardi. Kelayotgan yigit Samig'jon emasligiga ishongach, ko'ziga milt-milt yosh olardi.

Toshkent, 1966-yil

# **Billur qandillar**

*Qissa*

## **1**

Andijon – Moskva poyezdi Toshkentga barvaqt kelarkan. Kechasi vagonda tanishgan xushqad, xushsurat, xushchaqchaq lo'li yigit Hikmatilloni uyg'otib, chamadonini vokzal maydonigacha ko'tarishib chiqdi. Xayrasharkan, og'izdan tamaki va aroq hidini buruqsitib, yelkasidan quchdi:

– Xizmatdan qaytayotganingda Saratovga kirib o't, serjant! Partizan ko'chasi – 96.

Qaynisinglimni ko'rding-ku, husnda tanho! O'ziyam qizmisan qiz-da! Quyib qo'yan o'zbechka! Xotinlikka olsang keyin xursand bo'lasan. Sen emas, u seni boshiga ko'tarib boqadi. Labbay? Lo'li yigit Hikmatilloning kaftini chap qo'liga olib, o'ng qo'li bilan sharaqlatib urdi-da, poyezdga qarab yugurib ketdi.

G'ira-shira qorong'ilikda shahar aniq ko'rinxmas, faqat harir tuman ortida olis-olislarga qanot yozgan ulkan shahar emas, hisobsiz yulduzlar sochilgan sokin dengiz mavj urar edi...

Salqin. Lekin sovuq emas. Hikmatillo xizmat qilayotgan Novosibirsk tomonlarda hozir qor tizzadan keladi, har holda ikki hafta oldin, u otpuskaga ketayotganda, shaharni qalin qor bosgan, bu yerda, Toshkentda esa hauuz kuylakchan yursa bo'lardi...

Shahar uyg'onmoqda edi. Ana, asfaltda og'ir sirpanib, elektr simlarini vizillatganicha ketma-ket ikkita

trolleybus keldi, qo'ng'iroqlarini yoqimli jiringlatib tramvay o'tdi, oqish tuman orasida yalt-yalt etgan simob qatralari – yengil mashinalar ko'paydi...

Hikmatillo chamadonini qo'liga oldi-yu, yana yer-ga qo'ydi. Anor, olmaga to'la chamadon zil-zambil edi. Sandiqday keladigan bu besunaqay chamadonni ham, olma-anorni ham oyisi olishga majbur qildi. Hikmatillo safar chog'i og'ir yukka sira toqati yo'q, otpuskaga keli-shda ham bejirimgina yengil chamadon sotib olgan edi. Lekin jo'nashda oyisi: «Qaytib borganingda yor-birodar-laring qo'lingga qaraydi. Uyalmay ikki qo'lingni burning-ga tiqib kirib b rasanmi, bolam?» deb, shu beso'naqay chamadonni mevaga to'ldirib berdi... Hikmatillo Tosh-kentda faqat bir kun turmoqchi, shaharni tomosha qilib, texnikumda birga o'qigan yor-birodarlarini ko'rib erta-ga uchib ketmoqchi edi.

Poyezdda ketmaydigan bo'lgandan keyin chama-donni vokzalda qoldirgisi kelmadi, lekin aeroportga op-chiqib qo'yib, ovora bo'lib yurishga ham toqati yo'q edi, o'ylab turib, Xosiyat ayanikiga borishga, – Hikmatillo sal kam uch yil ayaning uyida ijaraga o'tirgan edi!– chama-donini kampirnikida qoldirib, keyin shahar aylanishga qaror qildi-da, navbatga turib taksiga mindi.

Xosiyat aya degan bu kampirning hovlisi Oqtepa da-hasi tomonida bo'lib, studentlarga qulay, har qalay texni-kumga bitta avtobus bilan borilar edi. Bu joyning daragi-ni Hikmatilloga texnikumni undan ikki yil oldin bitir-gan Begimqul degan hamqishloq og'aynisi aytgan edi.

Kampir boshda Hikmatilloga uncha yoqmagan bo'lsa ham – aya unga birinchi kuniyoq «so'yloq» deb laqab qo'ygan, bu laqab unga devorga otilgan loydek yopishib qolgan edi – keyinchalik inoqlashib ketib, ikki yildan ko'proq turgan, bultur kuzda, uchinchi kursdan armi-yaga chaqirilganida ham shu uydan jo'nagan edi. Hik-

matillo bilan birga turgan student jo'ralaridan bittasi u bilan birga armiyaga ketgan, ikkinchisi, joyning daragini topgan o'sha Begimqul edi. Begimqul texnikumni bitir-ganidan keyin shaharda qolgan, uning ishi besh, bultur uy-joylik bo'lib, uylanib ham olgan edi. Hikmatillo bugun shaharni tomosha qilib, birga o'qigan yor-birodarlarini ko'raman deganida, birinchi navbatda shu Begimqul-ni-yu, ayniqsa uning xotini Nilufarxonni o'ylagan edi. Va buning juda chuqur, nozik sabablari bor edi...

Hikmatillo taksi oynasidan endigina uyqudan uyg'o-nayotgan va nimasi bilandir uyqusiragan odamlarni eslatgan kimsasiz ko'chalar, chiroqsiz uylarga tikilib borarkan, Xosiyat ayanikida bo'lib o'tgan hangomalar, ayniqsa Nilufarxon bilan bo'lgan mojarolarni eslasi kelmay, xayoldan ularga qo'l siltadi-da, o'zini orqa o'rindiqqa tashladi.

Taksi Oqtepa massividagi ko'p qavatli yuksak binolar qurshovidan chiqib, pastga, Jarariq tomonga burildi. Shaharni chulg'ab olgan boyagi oqish tuman tarqab, tevarak-atrof charaqlab ketgan, bu musaffo havoda oldindagi serdaraxt ko'chalar, toklar bilan to'silgan bir qavatli uylar, hovlilar shahar emas, go'yo ulkan bog'ni eslatardi.

Suv sepilgan asfalt ko'chalariga xazon tushalgan bo'lsa ham, hali yaproqlari to'kilib bitmagan olcha va giloslar, go'yo qizil shoyiga o'ralganday tuyulgan qirmizi rang o'riklar, hanuz sarg'ayib bitmagan nim yashil, nim sarg'ish tollar, tilla rang teraklar ertalabki beg'ubor havoda nafis bir tiniqlik kasb etgan edi.

Hikmatillo ayani tuyulishda, uyg'a yetib qolganda ko'rdi. Mahalla do'konida qorovullik qiladigan aya ishdan qaytayotgan bo'lsa kerak, oyog'ida og'ir kirza etik, egnida paxtali fufayka, yelkasida miltiq, chollarday vazmin, bamaylixotir odimlab kelardi. Taksi tanish dar-

voza oldida to'xtab, Hikmatillo chamadonini olguncha, aya ham halloslab yetib keldi.

– Hoy, bu kim desam, senmiding, suyloqqinam? Voy aynanib ketay darozginamdan? Kechasi bilan ko'zim uchib chiquvdi-ya! Voy bo'yginangdan ayang o'lgirsin!

Aya pildirab kelib Hikmatilloning yelkasini qoqdi, peshanasidan o'pdi. Kechasi uxlamagandanmi, kam-pirning ko'zları kirtaygan, katta cho'qqi burnining ikki chetidagi, peshonasidagi ajinlari chuqurlashgan, o'zi-yam xiyol cho'kkan, eski tivit ro'molidan chiqib turgan sochlarining oqi ko'paygan edi. Eshikni ko'k triko kiygan, ko'kraklari lorsillab, kiyikday dik-dik sakrab turgan bir qiz ochdi, hovlining etagida yana bir triko kiygan yosh qiz xodaday uzun oyoqlarini navbatma-navbat ko'tarib, oqqushning bo'yniday nozik, oppoq qo'llarini o'ynatib, mashq qilmoqda edi.

– Yigitlar ketib, klinik mana shu dikang-dikanglarga qoldi. Kecha-yu kunduz echkiday sakrashgani sakrash-gan... – Aya Hikmatilloga o'girilib qaradi-yu, kirtaygan ko'zlarining atrofidagi ajinlarini qat-qat qilib, iljaydi...

– Umringda qiz zotini ko'rmanmisan, nima balo? Ko'zing bilan yeb qo'yding-ku, aynanaylarimni!.. Senlar ham hadeb suzilavermay kitoblaringga qaranglar! Bu mening o'g'lim bo'ladi. Senlardan oldin shu o'yda turgan. Istudent. Qani, yura qol, aynanib ketay, suylog'imdan!

Ayaning «suyloq» degani g'ashiga tegsa ham, Hikmatillo qizlarga qarab, bir iljayib qo'ydi-da, kam-pirning orqasidan yurdi. Ular chap tomondagi oldi ayvon, o'rtasi dahliz, ikki xonali uyga kirishdi. Xonalar Hikmatillo ketganda qanday bo'lsa shunday-hali ganch suvoq ham qilinmagan, jihozlar ham o'zgarmagan, faqat... bata-reyalar o'rnatilgan edi!..

– Topgan-tutganimning hammasini shunga yaratdim,  
– dedi aya, batareyalarni xuddi nevarasining boshini si-

laganday mehr bilan silab, AGV degan pechkasi bo'lar ekan... Voy bu o'lgurni qidirib yurib topganlarimni aytib beraversam... misoli bir ertak deysan. Bormagan joyim, kirmagan idoram qolmapti. Axiyri bittasiga jindek pul qistirib, yo'qni yo'ndirib oldim! Umrimda shu ishni qilmagan edim, shu safar qildim, so'yloq...

Kampir bechora yuz ellik so'm sarf qilib, bu «o'lgur» AGV uchun alohida bir uycha ham qurdiribdi. Endi faqat bitta-yu bitta ish azbest quvur o'rnatib, pojarniydan spravka olish-u, raygazdan master chaqirib yoqtirish qolibdi...

Aya buni gapirkagan, ovozidagi boyagi bolalarcha hayrat, uyqusiz ko'zlarida porlagan quvonch, bata-reyalarni silagandagi bo'lakcha mehr – hammasi bir-dan so'nib, ovozida, hatti-harakatlarida kutilmagan bir xorg'inlik paydo bo'ldi.

– Gazga borsam navbat kutasan deyishadi. Bu navbati o'lgur qish o'tib, yozdayam kelmaydiganga o'xshaydi. Qu-vur topib, bozordan usta opchiqa qolay desam... o'z ustasi bo'lmasa pojarnysi bor bo'lgur ispravka bermasmish. Isp-ravkasi bo'lmasa raygazi tushmagur yoqib bermasmish!..

Aya, boshini sarak-sarak qilib, yana g'alati kulimsi-radi.

– Yemay-ichmay orttirgan besh-olti so'm pulim bor, bitta-yarimtasining jig'ildonga ura qolay desam, o'sha bittasi kim, bilmayapman!

Hikmatillo negadir yuragi zirqirab, ayaning iltijoli ko'zlaridan ko'zini olib qochdi.

Juda qiziq odam-da, bu kampir!

Uning tappa-tuzuk joylarga tushgan qizlari bor, lekin aya ular bilan ko'p bordi-keldi qilavermaydi, «qiz bola birovning xasmi, iloyim borgan joyida o'zidan tinsin», deb, yordam ham so'ravermaydi, biri kichikroq, biri kattaroq ikki uydan iborat shu ota-meros hovlida kenja o'g'li bilan turadi.

Eri frontda halok bo'lib, tul qolgan aya urush yilla-ridan beri mahalla do'konida qorovullik qiladi, qahraton qish kechalarida oyog'ida piyma, egnida qo'y terisidan tikilgan og'ir po'stin, yelkasida miltiq, do'kon, do'kongina emas, butun mahallani aylanib yuradi...

Kenjatoy esa... O'ttizlarni urib qo'ygan jingalak soch, soxt-sumbati kelishgan Kenjatoy esa qaysi bir ekspe-ditsiyada ishlaydi, umrining yarmi dalada, tog'-toshlarda o'tadi, shaharga qaytgan paytlarida, nihoyatda sipo kiyinib, pardoz-andozni o'rniga keltiradi-yu, lekin kampirga bir tiyin ushlatmaydi, balki undan, hatto ijaraga o'tirgan studentlardan qarz olib yuradi, topgan-tutganining hammasini qizlarga, maishatga sarf qiladi. Aya bechora bo'lsa qorovullikdan olgan maoshi va studentlardan tegadigan pulni tishining kavagida asrashga tirishadi, bir tiyin topsa yemay-ichmay uy-joyiga sarf qiladi, qishin-yozin dam suvoqchi, dam duradgor, dam tunukasoz yollab, xalloslab yuradi, lekin uchastkasi qurmagur sira bitmaydi, bir ishni tugamasdan, ikkinchisi navbat kutib turadi...

Hikmatillo gazchi bo'lmasa ham, qurilish texnikumida bu narsalarni ozmi-ko'pmi o'rgangan, kampirning ishi qiyin emasligini ko'rib turardi. Bitta uch metrlik azbest quvur bilan unga kiydiriladigan xomut deganlari-yu, quvurni yog'ochga tekkizmay ushlab turadigan to'rttagina kalta temir bo'lsa bas, bir-ikki soatda hech bir gazchi nuqson topolmaydigan quvurkon yasab berish mumkin. Ayaga rahmi kelganidan bu fikr birrov ko'nglidan ham o'tdi. Lekin... birinchidan, bor-yo'g'i bir kungina vaqtি bo'lsa-yu, yor-birodarlarini ko'rish, sog'ingan shaharini tomosha qilish o'rniga, kuni shu bemaza ish bilan o'tsa... Ikkinchidan, boringki, bu ishga kirishsin, lekin dolzarbda materialni qayoqdan topadi? Eng muhimi... boy a qizlar oldida «so'yloq» degani uchunmi, yo eshik dan kirmasdan turiboa uchastka mashmashasini bosh-

lagani uchunmi, ishqilib, aya uning g'ashini keltira bosh-lagan edi. Axir Hikmatillo oz-muncha kuch sarf qildimi bu uchastkaga? Og'zidan ona suti ketmasdanoq ota kasbi ustalikka mehr qo'ygan Hikmatillo bu uchastka-ga ozmuncha ter to'kdimi? Suvoq-puvoq u yoqda tursin, tandir-o'choqniyam o'zi qurib berdi, ayaga! Aya ham uni shuning uchun yaxshi ko'radi, yaxshi ko'radi-yu, gul-day qizlarning oldida so'yloq deydi! So'ylog'im mayliya, «so'yloqqinam»ga balo bormi?..

Hikmatillo gapni chalg'itish uchun:

– Kenjotoyingiz qani? – deb so'radi: – Yordam bersa bo'lmasmidi?

Kampir chuqur hursinib «AGV»ning eshigini yopdi.

– Kenjatoym bor bo'lsin, ishqilib! Ko'klamda Qizilqumga ketgan. Oltin qidirarmish... Omon bo'lsin ishqilib, – takrorladi aya. U o'ziyam uchastka g'avg'osini boshlab, Hikmatillonning g'ashiga tekanini sezdi shekilli:  
– Mo'risiyam qurib ketsin, – deb kuldi. – Kelmasing-dan burun miyangni qoqib qo'lingga berdim... Uyga kir, girgitton, hozir samovarga cho'g' tashlayman...

Hikmatillo soatiga qaradi: sakkizdan chorak o'tgan, hovli etagidagi qirmizi rang olchalarga oftob tushib, ul-kun gulkanday lovullab yona boshlagan edi.

– Rahmat, aya, vaqtim ziqroq, shaharga chiqay...  
– Qachon kelasan bo'lmasa? Do'ppidakkina osh qilib qo'yaman, aynanib ketay...

– Rahmat, ovora bo'l mang, – dedi Hikmatillo, lekin ayaning astoydil xafa bo'lishini sezib, barvaqtroq qay-tishga va'da berdi.

Aya uni darvozagacha kuzatib chiqdi. Hikmatillo yana bir bor kechikmaslikka va'da berib, jadal yurib ket-di-yu, kampirning: «So'yloqjon!» deb chaqirganini eshitib, ensasi qotib to'xtadi. Kampir unga tomon pildirab kelardi.

- Qaysisidan olay, gиргиттон?
- Нима? - тушунмади Ҳикматилло.
- Оқиданми, қызилданми, qaysisidan оlay deyman, аяң urgilsin?

Hikmatillo beixtiyor kulib yubordi.

- Keragi yo'q, aya. Bilasiz-ku, ichmayman.

- Sallot bo'lib ham ichishni o'rganmadingmi? - dedi kampir. - Voy o'rgilib ketay sendan! Koshkiydi mening kenjatoyim ham senday bo'lsa...

Ayaning «so'yloqjon»i bir bo'ldi-yu, bu gapi bir bo'ldi.

Hikmatillo ichida yana bir kulimsirab qo'ydi-da, yengil odimlab ketdi. Faqat bir narsa ko'nglini sal xijil qilib turar, u ham bo'lsa ayaning gaz quvuri edi!.. Hikmatillo bir-ikki soat vaqtini ayamay, kampir bechoraning og'iri ni yengil qilib duosini ola qolsa bo'lardi! U ikki haftalik otpuskasini ham qishloqda ish bilan o'tkazdi. Zotan, u otpuska so'ramoqchi emas edi, bundan yigirma kunlar muqaddam, qishloqdan dadasingin og'ir kasalligi to'g'risida telegramma oldi, to'g'rirog'i, telegrammani olgan batalon shtabi boshlig'i uni chaqirib, shu xabarni aytdi-yu, tayyorlab qo'yilgan hujjatlar va hatto samolyot biletini qo'liga tutqazdi. Hikmatillo shtab boshlig'inining qo'lidan hujjatlarni, ayniqsa oldindan taxt qilib qo'yilgan samolyot biletni olayotgan paytidayoq vujudini sovuq ter bosib, titrab ketdi. Lekin to uylariga kirib borguncha, to eshiklari oldida namat yozilgan supani - bu supani dadasi rahmatlik o'zi qurgan edi! - va supada xuddi kattalarday belini bog'lab o'tirgan o'n to'rt yashar ukasini ko'rмагuncha, mudhish shubhalarni dilidan quvib, o'zini har narsaga alahsитib bordi... Lekin supada xuddi kattalarday belini bog'lab, yolg'iz mung'ayib o'tirgan ukasini ko'rib yuragidagi bir murvati cho'rt singanday bo'ldi-da, ovozini boricha o'kirib yubordi...

Dadasi qishloqda mashhur usta edi. U hali oltmis-

ga ham bormagan, qotmadan kelgan, miqti odam edi. Hikmatillo so'nggi yillarda dadasingning qon bosimi oshib, tez-tez xastalanib yurganini bilar, lekin bu kasal bunday og'ir fojiaga olib keladi degan o'y yetti uqlab tushiga ham kirmagan edi!

Dadasi ishlab turgan joyida, yangi idora binosiga sarrov solayotgan paytida nimadir bo'lib tomdan yiqilib tushibdi...

Hikmatillo ukasini maktabga jo'natib, bir-ikki kun belini bog'lab eshikda, namat yozilgan supada o'zi o'tirdi. So'ng, yeng shimarib ishga kirishdi. Bo'zchi belboqqa, temirchi taqaga yolchimas, deganlaridek, marhum dadasi ham, bor kuchini kolxozdagi qurilishlarga sarflab, o'z ro'zg'origa deyarli qaramas edi. Hikmatillo eshik-romrlarni tuzatdi, singan shiferlarni almashtirdi, yangi oshxona qurib berdi. Hikmatillo qurilish texnikumida o'qib yurgan chog'larida ham qora ishdan sira qochmas, yozgi ta'til paytlarida to'g'ri kelgan ishni qilib ketaverar, g'isht desa, g'isht terar, ganch suvoq desa, ganch suvoq qilar, eshik-derazalarni moylash kerak bo'lsa, moylab, pol qoqish bo'lsa, pol qoqib ketaverar edi. Hunar, hunardan unar, deganlaridek, hunari armiyada ham qo'l keldi. Uni dab-durustdanoq qurilish batloniga olishdi, besh-olti oy o'tmasdanoq prorab bo'ldi, «serjant» degan unvon oldi, bir-ikki oy bo'ldi, oyiga yuz so'mdan oshirib pul ishlaydi. Mana endi, dadasingning vatotidan keyin, oyisi to'rtta ukasi bilan yolg'iz qolganini hisobga olib, uni xizmatdan ozod qilishlari ham mumkin. Har qalay, kolxozi rahbarlari voyenkom orqali uning qismiga murojaat qilishadigan bo'lishdi. Bordi-yu, xizmatdan bo'shatishmagan taqdirda ham, Hikmatillo oyisiga oyida ellik-oltmis so'm yuborib turishiga qurbi yetadi. Ilgari bu pulni uning qo'liga berishmas, tegadigan maoshidan ovqati bilan kiyim-kechagiga bosib qoli-

shardi-yu, qolgan ellik-oltmisht so'mini uning omonat daftarchasiga o'tqazib qo'yishardi. Hozirning o'zida Hikmatilloning omonat daftarchasida to'rt-besh yuz so'm puli bor. Xizmat joyiga qaytib borishi bilan u dadasingning vafoti tug'risidagi xatni ko'rsatib, bu pullarni oyisiga jo'natmoqchi... Ha, ishlagan o'zar, ishlamagan to'zar, deganlaridek, mehnat qilgan odam xor bo'lmas ekan... Ayaning quvurini o'rnatib bera qolsa ham bir joyi kam bo'lib qolmas edi! Aya ham uning o'z onasiday beva. Eri urushda halok bo'lgan mushtipar ayol.

Aya birinchi qarashda juda qo'rs, gap-so'zları dag'al tuyulsa ham, aslida ko'ngli bo'sh, bebaño ayol. Bir tomondan, ayaning o'rnida... qo'rs bo'lmayam ko'rsin-chi, odam? Hali o'n gulidan bir guli ochilmagan paytida umid bilan bir yostiqqa bosh qo'ygan jufti halolidan ayrilib tul qolish, boshqa er qilmay, xotin boshiga qorovullik qilib, tirishib-tirmashib yurib, uch farzandini oyoqqa qo'yish osonmi?..

Ha, Hikmatillo aya bechoraning mushkulini yengil qilib, duosini ola qolsa bo'lardi.

Lekin... birinchidan, kampir bechoraning azbest quvuriyu, boshqa ashqol-dashqollari yo'q, ikkinchidan... bir kun, hammasi bo'lib bir kungina muhlati bor! Axir u Toshkentni, salkam uch yil yashagan, eng shirin, eng mas'ul studentlik yillari o'tgan bu bag'ri keng, tuqqan onaday mehribon, saxiy shaharni shunday sog'ingan, shunday sog'ingan!..

Hikmatillo «Bo'zsuv» ko'prigiga chiqib, temir panjaraga suyandi. Suv, xuddi ko'klamidagidek limmo-lim to'lib, ariq bo'ylaridagi majnuntol shoxlarini silab-siy-pab, sokin oqar, uning osmonday tiniq sathidan yuz xil - tilla rang, to'q qizil, pushti rang, nim yashil, nim sariq yaproqlar qalqib oqardi...

Ajabo, bundan ikki yarim-uch yil muqaddam, Hikma-

tillo texnikumga kirish niyatida imtihon topshirib yur-gan paytlarida bu atrof bunchalik serbino, sershovqin emas, har holda sal nariroqlarda, «Bo'zsuv» bo'ylarida, kishining bahri dilini ochuvchi yalangliklar, shoxlari dehqonlarning qoramtilg'i qo'llarini eslatuvchi o'rrik va o'rirkorlar, sersoya yong'oqzorlar, so'lim jiydazorlar bo'lar, bolaligi kengliklarda o'tgan Hikmatilloga o'xsha-gan yosh-yalanglar kirish imtihonlari davrida o'sha ya-langliklarga, o'rirkorlarga chiqib dars tayyorlashar edi... Qarang, atigi uch-to'rt yil ichida hamma yoq bino, ham-ma yoq qurilish bo'lib ketibdi!..

Hozir, xuddi bahordagiday iliq oftobning allaqanday xushchaqchaq yog'dusida ko'p qavatli binolar, ko'chalar, «Bo'zsuv»ning chap sohilidagi do'ngalak maydon- ham-masi yashnab ketgan, binolarda rang-barang bayroqlar, hali yozuvlarining bo'yog'i o'chmagan tiniq matolar hil-pirab turardi. Nega hamma yoq alvonga to'lib ketgan? Ha, aytmoqchi, yaqindagina birvarakayiga ikki katta bayram o'tdi-ku!

Ellik yillik to'y-tantanalarini Hikmatillo o'z qismi-da, televizorda tomosha qilgan edi. O'shanda, kecha-si batalon klubida o'tirib, soldatlar davrasida Tosh-kent ko'chalarini, gul-gul yashnagan Qizil maydoni va maydonni to'ldirgan qandaydir juda tanish, juda ya-qin odamlar oqimini, ayniqsa karnay sadolari ostida o'ynab borayotgan atlas ko'ylakli qizlarni ko'rganida va nihoyat do'stlarining: «O-o, o'zbechkalar ja boshqacha bo'lar ekan-ku!» degan xitoblarini eshitganida, Hikma-tilloning qalbi toshqinday jilovsiz bir quvonchga to'lib, ko'zlaridan yosh chiqib ketgan edi! O'shanda Hikmatillo bu ko'rsatuv tong otguncha davom etishini istagan edi. Lekin ko'rsatuv tezda tugab qolgan va bundan ran-jigan Hikmatillo boshqa ko'rsatuvlarni tomosha qilgisi kelmay, xonadan chiqib ketgan, sog'inch tuyg'usidan

yuragi orziqib tashqarida allamahalgacha tanho aylanib yurgan edi...

Kishi kindik qoni to'kilgan, bolaligi va yoshligi o'tgan joylarning qadrini olislarda, judolikda bilarkan. Mana o'sha, Hikmatillo kechalari tushlarida ko'rgan, har eslaganda yuragi bir hapriqqan tanish ko'chalar, sohililar, maydonlar!.. Bugun u hammasini ko'radi. Birinchi navbatda o'sha televizorda ko'rsatilgan va aytishlaricha juda o'zgarib ketgan Qizil maydonga boradi. Anhor sohilini, o'tgan yili shu mahalda, yo'q, bundan sal oldinroq Nilufar bilan yetaklashib yurgan anhor bo'ylarini aylanadi...

Nilufarni eslaganda yuragi bir o'ynab ketdi, – yana o'zidan kulib qo'ydi. Endi unga baribir emasmi? Go'yo o'z polizidan yovvoyi o'tlarni yulib tashlagan dehqonday, u ham Nilufarni o'z ko'nglidan allaqachon uzib tashlagan emasmi? Uzib tashlagan! Garchi yuragi qon qaqshagan bo'lsa ham, uzib tashlagan! Nega bo'lmasa uni eslashi bilan, o'z ixtiyoriga qarshi yana ko'ngli bir xil bo'lib ketdi, Nega Begimqulni yo'qlab boraman deb o'zini aldaydi? Aslida Begimqulni emas, bu birda samimi, birda nosamimi, birda mard, birda nomard hamqishlog'ini emas, Nilufarni ko'rishga shoshayotgani yo'qmi? Ha, shunga shoshyapti! Lekin... Xudo ursin agar... uni sog'ingani uchun, yuragi unga qarab talpinayotgani uchun emas, qiziqqani uchun ko'rgisi kelyapti...

## 2

Nilufar bilan u bultur kuzda, armiyaga ketishidan bir-bir yarim oy muqaddam, paxtada tanishgan edi. Nilufar meditsina texnikumida o'qir edi. Qurilish texnikumi bilan bu texnikum «O'zbekiston» sovxoziiga tushgan, bir oy birga bo'lgan edi. Kimdir bu ishni xuddi bilib, xuddi

ataylab qilganday bo'ldi, chunki qurilish texnikumida qizlar juda kam, medtexnikumda esa, aksincha, yigit zoti anqoning tuxumi edi. Har ikkala tomon domlalarining, ayniqsa medtexnikum domlalarining o'z talablarini ehtiyyotlashga, «yomon ko'zlardan asrashga» urinishlari zoye ketdi, ularning irodasidan zo'rroq pinhoniy bir kuch ikkala tomonni bir-biriga tortar, kechalari qizlar yotog'i qamalga olinar, yon-veridagi bog'lar, daraxtzorlar, paxtazorlar yashirin uchrashuv, bo'g'iq kulgi, sog'in-gan qalblarning visol makoniga aylanardi...

Qurilish texnikumi yigitlariga Xudo o'zi in'om etgan bu kutilmagan baxtdan Hikmatillo bebahra edi. U o'z brigadasida oshpazlik qilardi. Sovxozi markazi olisroq bo'lgani uchun unga bitta ot-arava ajratilgan, u shu aravada ham oziq-ovqat, ham suv tashir, ham ovqat pishirardi.

Kechqurunga borib, daladagi terimchilardan besh-battar charchab, sulayib qolardi-yu, yotoqqa qaytgach, bosh qashishga holi yo'q, to'shakka tappa tashlardi.

Suvni u odatda tushdan keyin tashir, bochkani arava-ga ortib, to'g'ri paykalga olib borar, ariq yoqalab yurib, terimchilarga bir bordoqdan suv ulashib chiqardi.

Bir safar Hikmatillo medtexnikum qizlari qurshovi-ga tushib qoldi-yu, hash-pash deguncha bir bochka suvidan ayrildi-qoldi. Birinchi bo'lib, suv so'rab uning yo'lini to'sgan qiz shu Nilufar edi!

O'shanda, nozik bo'y-bastiga juda yarashgan ko'k triko va yengsiz guldor kofta kiyib, boshini novvot rang durra bilan tang'ib olgan, ko'zlari allaqanday chaqnab turgan bu sho'x, yulduzi issiq qiz paykaldan chopqillab chiqib:

– Akajon, bir krujka suv bering, – deb yo'lini to'sgan-da, Hikmatillo aravadan qanday sakrab tushganini bil-may qoldi.

Lekin qizi tushmagur bir bordoq suvni ichib bo'guncha, paykaldagi boshqa qizlar ham, xuddi o'rikka yopirilgan bir gala chug'urchikday chug'urlashib kelib, aravani qurshab olishdi-yu, yuz ellik litrlik chog'roq bochkani bir tomchi qoldirmay qurg'atib berishdi!..

Shu-shu Hikmatillo, garchi qoracha yuzida doim kulgichlari o'ynab turadigan bu lobar qizni ko'rgisi kelsa ham, hamshira qizlar paykalini imkon boricha chetlab o'tadigan, yo'lini to'smoqchi bo'lgan qizlar paxtazordan yugurishib chiqayotganini ko'rgudek bo'lsa, otini qamchilab, choptirib o'tib ketadigan bo'ldi. Bunday qilmasdan chorasi ham yo'q, suv ancha olisda edi!..

Bir kuni qiziq bo'ldi: odatdagiday tushdan keyin aravada suv olib kelayotgan Hikmatillo yo'l bo'yida bir to'p qizlarni ko'rib qoldi. Ularni chetlab o'tish qiyin edi. Hikmatillo, garchi, bochkadagi suv sachrasa ham, har safar-gidek otini qamchilab choptirib o'ta boshladi-yu, ariq yoqasidagi qizlarning:

– Akajon! Yordam bering, akajon! – degan xitoblarini eshitib beixtiyor otining jilovini tortdi.

Haqiqatan, yo'l bo'yida, to'g'rirog'i, katta o'qariqning narigi tomonida, yuzi doka ro'mol bilan yopilgan bir qiz yerda chalqancha cho'zilib yotar, bir nechta qizlar atrofida parvona edi.

– Akajon, yordam bering! O'rtog'imizni oftob urib, yiqilib qoldi. Yordam bering, akajon!

Aravadan sakrab tushgan Hikmatillo bir xatlab ariqdan o'tdi.

– Nima qilish kerak?

– Suv bering! Yuziga suv sepamiz! – dedi qizlardan biri.

– Yo'q, yo'q, ko'taring! Tez kasalxonaga oborish kerak buni! – dedi ikkinchisi. – Ko'tarib aravangizga soling. Oftob urgan bu bechorani!

Hikmatillo yerga tiz cho'kib, bir qo'lini qizning belidan, bir qo'lini tizzalarining ostidan o'tkazib, uni dast ko'tardi, ko'tardi-yu, orqada arava tomonda yangragan zo'r qahqahani eshitdi: bir gala qizlar, odatdagiday chug'urchuqday chug'urlashib, aravani qurshab olishgan, biri bordoqdan suv ichar, biri kranni ochib, yuzini yuvar, bir-birlarini quvlashib suv sepishishar edi!

Hikmatillo nima qilishini bilmay, ariq tomon yurdi. Shu payt qo'lidagi qiz ham xandon otib kului-da, yuzidagi doka ro'molni yulib olib, dik etib yerga tushdi. Bu o'sha, doim noz bilan kulib turadigan, o'ynoqli, lobar qiz edi! U oftobda qoraygan yuzida yana ham oqroq tuyulgan sadaf tishlarini yarqiratib, bitta-bitta terilgan qoshlarini chimirib, sho'x tikilib turardi!

– Shu ham ish bo'ldi-yu, – dedi Hikmatillo, qo'shilishini ham, achchiqlanishini ham bilmay.

Qiz porlab turgan ko'zlarini sal suzib:

– Nahot bizdan bir krujka suvingizni qizg'ansangiz?  
– dedi yarim araz, yarim noz bilan. U Hikmatilloga shunday yaqin turardiki, yengsiz koftasini turtib chiqqan bo'liq ko'kraklari yigitning ko'ksini tobora yondirib borar, umrida birinchi marta qiz quchgan sodda qishloq yigitni butun vujudi bilan hozirgina og'ushida bo'lgan qizning allaqanday silliq, durkun gavdasini his etib, titroqqa tushgan edi!..

– Yo'q, nega qizg'anar ekanman? – dedi u entikib. – Bu bir bochka ekan-ku, yuz bochka suv sadaqa sizga!

– Rostdanmi, yoqib qoldimmi sizga? – Nilufar shunday deb, arava atrofida chug'urlashayotgan dugonalari ga yuzlandi:

– Qizlar! Qurilish texnikumining nozaninlari dod desin! Bugundan boshlab bu yigit bochkasi-yu, ot-aravasi bilan bizniki!

– Asir tushirdingmi, Nilu! Molodets! Ura!

Qizlar yugurishib kelib, oldin Nilufar, keyin Hikmatil-loning yuziga suv sepishdi, ishdan bezgan takasaltang-larga bahona topildi, ikkalasini o'rtaga olishdi.

O'sha oqshom Hikmatillo, birinchi marta, garchi ish-dan charchab qaytsa ham – u yana bir marta suvg'a bo-rishga majbur bo'lgandi o'shanda – odatdagiday tappa tashlamadi, soqol-mo'ylovini qirtishlab, sochini tarab, bitta-yu, bitta tuzukroq kostumini kiyib, qizlar yotoq-xonasi tomon ravona bo'ldi...

Odatda, yigitlar ikki toifaga bo'linadi. Birinchi toifa yigitlar uchun sevgi muammosi, ya'ni qizlar bilan tani-shish, ularga muhabbat izhor qilish muammosi umuman yo'q, ular qizlar bilan oson tanishib, osongina, iz-tirobsizgina ajrashib ham ketaverishadi. Ikkinci toifa yigitlar uchun bir narsa nihoyatda qiyin muammo bo'lib tuyuladi, bolalikda qizlar davrasida kam bo'lgan, tabi-atan tortinchoq, hatto qizlarga yaqinlashishini «uyat» deb tushunadigan bu toifa yigitlar, er yetganda ham qiz zotidan iymanib, ularga yaqinlashishdan cho'chib, dovdirab, qisinib yurishadi. Lekin bu toifa yigitlar bir tanishgan qizga qattiq ko'ngil qo'yib, qattiq sevib qoli-shadi. Shu sabab, ular uchun judolik ham katta iztirobga aylanadi. Hikmatillo shu ikkinchi toifa yigtlardan edi.

Nilufar bilan tanishgandan keyin dalada o'tgan bir oy uning hayotidagi eng mas'ud, mehrga tashna qalbi-ni nurga to'dirgan eng yorug' onlar bo'ldi. Kechalari ular uchrashgan paxtazorlar Hikmatilloning tasavvuri-da oddiy paxtazor emas, go'yo chaman ochilgan nafis gulzor, qurib-qovjirab qolgan g'o'zalar g'o'za emas, eng xushbo'y, eng tarovatli gullar, sovuq, zimiston kecha-lar eng iliq, eng nurafshon oqshomlarga aylangan edi... Nilufarning yoqimtoy qiliqlari, jozibali kulgisi, oppoq qo'llarining qonni ko'pirtiruvchi mayinligi, dam suykan-ib, dam kiyikday xurkib qochishlari bir umr esida qoldi

uning... Shuning uchun ham boshqalarga bir olam quvonch keltirgan paxtadan qaytish xabari unga motam kuyiday sovuq eshitildi...

Ular Toshkentga qaytganlaridan keyin ham tez-tez uchrashib turadigan, birga kinolarga tushadigan bo'lishdi. Ularning munosabatida bir qarashda hech narsa o'zgarmagan, ayni zamonda nimadir o'zgargan, boshqa-chi, Hikmatilloni iztirobga soluvchi yangi tomonlar paydo bo'lgan edi.

Hikmatillo nima bo'layotganini o'ziyam tushunmas edi.

Nilufar unga ham yoqar, ham allaqanday cho'chitar edi. Dam qizning hamisha kulib, hamisha allaqanday suzilib turadigan ko'zlariday jon olguvchi ko'z, uning qiliqlariday yoqimtoy qiliq, sho'xligiday sho'xlik, kishining jon-dilini yayratib, o'ziga rom qilib quyadigan o'xshovsiz noziday noz olamda yo'qday, tanhoday tuyular, dam shu sho'xliklarining o'zi, g'alati qiliqlari, ko'chalarda, hatto odam gavjum joylarda ham birovdan tap tortmay uning qo'lidan sudrab erkalanishlari uni iymantirar, hurkitar, ko'zlarini lo'q qilib boshqa yigitlarga tikilishlari esa rashkini qo'zg'ar, g'ashini keltirar, iztirobga solardi.

Nilufar texnikumning uchinchi kursida, farmatsevtika bo'limida o'qir, Hikmatilloning kayfi buzuq bo'lsa doim: «Dorim bor. Tonusingizni ko'tarib qo'yaymi?» deb kulardi. U hamisha did bilan kiyinar, umuman nimaiki kiymasin, hammasi unga yarashar, hammasi husnini ochib, gul-gul yashnatib yuborardi. Bu ham Hikmatiloga bir yoqar, bir yoqmas, dilida pinhoniy shubha va rashk uyg'otardi. Hikmatillo, xiyol soddaroq tortinchoq-roq bo'lsa ham, qaddi-qomatda bir yigitdan kam emas, Nilufar bilan tanishganidan keyin esa kiyim-kechak, soch, soqol-mo'ylovga ham e'tibor bera boshlagan, faqat tarki odat-amri mahol, tortinchoq va jur'atsizlikdan, qo-

niga sut bilan kirgan bu nuqsonlardan sira qutula olmas edi. Shungami, boshqagami, ishqilib, Nilufar bilan shahar kezgan paytlarda o'zini bir oz g'arib sezar, nazarida o'tgan-ketganlarning hammasi ularni bir-biriga solish-tirib ko'rayotganday, go'yo «shunday ketvorgan qiz shu lapashangni topibdi-da!» deyayotganday tuyulardi.

Eng yomoni - ular uchrashganlarida, ko'chalar, xiyobonlar, parklarda... birga yurganlarida gaplari uncha qo-vushavermas, aksariyat biri bog'dan kelsa, biri tog'dan kelardi. Hikmatillo orala idagi bu «bo'shliqni» kino bilan to'lдirmoqchi bo'lar, lekin bu masalada ham aytgallari bir joydan chiqavermasdi.

Hikmatillo serqo'shiq, serkuy Sharq filmlarini yoqtirar, Nilufar esa, aksincha, bu kinolarni ko'p xushlayvermas, Hikmatilloday «kap-katta odam shunday chuchmal, bachkana, sentimental narsalarni» yoqtirishidan kular, ba'zan hatto jahli chiqardi. Gohida u Hikmatillo hech qachon o'qimagan, hatto eshitmagan kitoblar haqidagi so'z ochib qolar, Hikmatillo qizarib-qimtinib, o'qimaganiga iqror bo'lsa birdan ma'yus kulib qo'ya qolar, birda yuziga qandaydir sovuq, kibor bir niqob kiyib olardi. Shunday paytlarda Hikmatillo uning oldida o'zini yosh boladay sezib, esankirab qolardi.

Bir kun qiziq bo'ldi. Ular ko'lда uchrashishlari kerak edi. Hikmatillo borganda Nilufar, qo'lida oq jildli ko'rimsizgina kitob, ko'lning eng xilvat joyida, majnuntol tagida... yig'lab o'tirardi.

Shunchakiko'ziga yosh olib emas, yuzini kaftlari orasiga yashirib, yelkalari titrab, rostakam yig'lab o'tirardi!

Hikmatillo qo'rqib ketdi, yoniga cho'kkalab qo'lidan ushladi.

- Sizga nima bo'ldi, Nilu?

Nilufar indamay tizzasida yotgan kitobni unga uzatdi. Bu - Xemingueyning «Alvido, quro!» degan romani edi.

Hikmatillo shundagina gappa tushunib:

- Qiziqsiz-a, kitobgayam yig'laydimi, Nilu? – deb kulgan edi, Nilufar o'rnidan irg'ib turdi, uning qo'lidan kitobni yilib oldi-da, o'zini majnuntollar orasiga uring, yugurib ketdi.

Hikmatillo uni katta yo'lga chiqqanida quvib yetdi, qo'lidan ushlab to'xtatmoqchi bo'ldi, lekin Nilufar ko'z yoshi aralash:

- Tinch qo'ying meni! – deb qo'lini tortib oldi-da, darvozaga qarab jadallab ketdi.

Bu voqeadan keyin Nilufar o'zini Hikmatillodan opqochadigan, uchrashuvlarga kelmaydigan, kelsa ham yozilib gaplashmaydigan bo'ldi. Ayni zamonda, Nilufar undan nimanidir kutayotganday, kutgan narsasi ro'yoga chiqmagani uchun ham qo'rslik qilayotganday tuyulardi Hikmatilloga.

Bir kuni u Nilufarni turadigan uyiga, ayanikiga chaqirdi. Aya bir yoqqa ketgan, birga yashaydigan do'stlari esa texnikumda navbatchilik qiladigan kun edi. Hikmatillo Nilufarning kelishiga ishonmas, shunchaki uni sinab ko'rish uchungina taklif qilgan edi. Lekin Nilufarkeldi. Uyga ham kirdi. Chaqirishga chaqirib qo'yib, nima qilishini bilmay qolgan Hikmatillo shunday dovdiradiki, na tuzukroq bir gap topa oldi va na tuzukroq muomala qila oldi.

Nilufar eshikdan kirgan joydag'i karavotga omonatgina o'tirdi, tizzasiga yetmagan ko'ylagining etagiga charm sumkasini qo'yib, jihozsiz, torgina xonani ko'zdan kechirdi. U do'rdoq lablarini sal ximarib, kulimsiraganicha Hikmatilloning xatti-harakatlarini kuzatib o'tirar, go'yo undan g'ayri tabiiy bir narsani kutar edi. Uning kutGANI bo'lmadimi, boshqami, ko'p o'tmay, o'rnidan turdi. Hikmatillo ham o'rnidan turdi, yuragiga birdan quyilgan qaynoq tuyg'udan hansirab, qizning qo'lini, erkaklarni kiday katta oltin soat taqilgan oppoq qo'lini ushladi.

Nilufar qo'lini tortib olmadı, tegrasiga ko'kish buyoq surtilgan charos ko'zlarini uning ko'zlaridan uzmay, in-damay tikilib turar, uning nigohida na bir hadik, na bir hayajon sezilar, aksincha, «qani, yana nimaga qodirsiz», degan bir savol bor edi. Har qalay, Hikmatilloga shunday tuyuldi-yu, uni o'ziga tortib o'pdi. Lablari qizning lab-lariga emas, kulgichlariga to'g'ri kelib, yana o'pmoqchi bo'ldi, lekin Nilufar o'zini orqaga tortib:

- Qo'ying, o'pishniyam bilmas ekansiz! - deb kul-di-da, go'yo erkalaganday sochlarini tuzg'itib yubordi.

Yigit kishining hamiyatiga teguvchi bu kesatig'i bir bo'ldi-yu, tirnoqlari bo'yalgan uzun barmoqlarning er-kalovchi mayin harakati bir bo'ldi. Go'yo birining zahrini biri oldi.

Bu voqeanning ertasigami, indinigami, Hikmatillo texnikumda navbatchi edi, navbatchilikdan bo'shagach, yotoqda tunab qoldi. Ertalab barvaqt qaytib kelsa... o'rnida hamqishlog'i Begimqul yotibdi.

Umri bino bo'lib taroq tegmagan patak sochlarini tuzg'itib, xurrak otib yotibdi...

Begimqul texnikumni bitirib ketganiga bir yildan oshsa ham, ayanikiga, birga yashagan eski hamtovoqlarini ko'rgani tez-tez kelib turar, aytishicha, qurilishda emas, qurilishdan ham yog'liroq qaysi bir gazmontaj idorasida ishlar, har kelganida bir to'rva mayda-chuyda ko'tarib kelib, «stipendiya kutib yotgan mulla mirquruq do'stlarini mehmon qilib» ketardi.

Bu safar ham quruq kelmagan bo'lsa kerak, stolda konserva qutilari, bir-ikki bo'lak shokolad, bo'shagan shampan bilan yarmidan ko'prog'i ichilgan shisha kon-yak turardi.

Hikmatillo oyoq uchida yurib, darsga ketgan sheri-gining karavotiga o'tdi, mehmonni uyg'otib yubormay deb ehtiyyot harakat qilsa ham, Begimqul karavot g'ichir-

laganini eshitib qoldi chamasi, qovoqlari shishgan ko'zlarini olib ishshaydi-da, qaddini rostladi. U Hikmatillodan ham bo'ydar, lekin yelkalari keng bo'lgani uchun miqtiroq ko'rinar, o'ziyam kurashchi, sambo bo'yicha shahar yoshlari o'rtasida championlikni olgan, agar shu qaddi-qomatiga yarasha ust-boshiga ham e'tibor bersa yigitmisan-yigit bo'lardi!

Begimqul ko'rpani olib tashlab, yostiqday ko'pchib turgan keng ko'kraklarini ishqadi.

- Qayoqlarda yuribsan, og'ayni? Yigitmisan o'zi?

- Nima qipti?

- Nima qipti deydi-ya! Qizing keldi...

- Qizim? - dedi Hikmatillo tushunmay. Begimqul patak sochlariiga besh panjasini tiqib, xaxolab kuldi.

- Sendaqa oshiqi-beqarordan o'rgilib ketdim. Nilufarxonni aytaman. Kecha kechqurun izlab keldi...

Hikmatillo birdan yopirilib kelgan mudhish shubhadan nafasi siqilib:

- Xo'sh? - deb so'radi.

Begumqul nimasi bilandir Nilufarning ko'zlariga o'xshab ketadigan hayosiz ko'zlarini baqraytirib, yana uyni boshiga ko'tarib kuldi.

- Yo'qligingni bildirmadik, og'ayni. Shampan quyib berdim. Kinoga optushdim. Uylariga kuzatib qo'ydim. Yaxshi qippanmi?

Uning ko'zlarida, zotan, ko'zlarini lo'q qilib surbetlarcha gapirishida, go'yo mohir usta tergan g'ishtday bir-biriga zich terilgan oppoq yirik tishlarining chaq-nashida allaqanday shafqatsiz bir narsa bor edi. Shu topda Hikmatillo uni burdalab tashlashga tayyor, lekin unga kuchi yetmasligini bilar, surbetlarcha ishshayib turgan bu yigit uni qilichday yarqiragan shu tishlari bilan kulib turib, chaynab tashlashiga aqli yetar edi.

- Nima bo'pti shunga? - dedi Hikmatillo bo'shashib.

- Ha balli, mana bu boshqa gap! - Begimqul rangini bilib bo'lmaydigan, kir-chir, lekin yoshlar orasida ya-qindagina rasmga kirgan jinsi shimini kiyarkan, to'sat-dan ko'zini qisib:

- Menga qara, og'ayni, - dedi. - Bir gap aytsam xafa bo'lmysanmi?

Hikmatillo indamay kravotga o'tib o'tirdi. U titrar, butun vujudi olov bo'lib yonar edi.

- Shu qizingni menga oshira qolsang-chi! Baribir, sen uni... evlay olmaysan...

Hikmatillo o'rnidan qanday sapchib turganini, shampnan shishasini qanday olib, qanday otganini bilmay qoldi. Shisha chap berib qolgan Begimqulning quloqlari tagidan o'tib, devorga tegib chil-chil sindi. Yaxshiyam aya uyda yo'q edi! Begimqul qaddini rostlab, xuddi hech narsa bo'limganday yana xandon otib kului.

- Ana unisiniyam ot! Zora tegizsang! Hikmatillo boshini buqiday egib, o'zini unga otdi.

Hikmatilloyam bo'sh keladiganlardan emas, qishloqda o'z tengqurlari bilan kuch sinashib davraga tushib yurgan yigitlardan edi, lekin Begimqul boshidan oshirib karavotga bosdi-da, xuddi hazillashayotganday kulib turib, o'ynab turib piypalay ketdi... U kulgan sayin g'azabi ortgan Hikmatillo poylab turib uning yapalog'roq katta burniga bir mush tushirdi. Begimqul «xap senimi», deb burnini bosganicha qoldi. Hikmatillo eshikni bir tepib, tashqariga chiqib ketdi...

Texnikumda tanaffus payti edi. Hikmatillo shitob bilan kirib borganida Nilufar odam a'zolarining surati osilgan doska oldida bir guruh dugonalari bilan gaplashib turardi. Dugonalari Hikmatillonni tanib, Nilufarni turtishdi, «aravakash-aravakash», degan shivir-shivir va piq-piq kulgi eshitildi. Hikmatillonning vajohatidan odam qo'rqlik edimi, yo boshqa narsadan hadiksiradimi, ish-

qilib, Nilufar uni ko'rib oqarib ketdi, lekin darrov o'zini bosib oldi, shekilli, hovliga chiqqanlarida chehrasida, ko'zlarida sovuq bir g'urur paydo bo'lgan edi.

- Bu... bu nima qilganingiz? - dedi Hikmatillo han-sirab.

- Nima qipman?..

- Nima qipman deysiz? - Haligi u nokas bilan shamp-pan ichibsiz, kinoga tushibsiz...

Nilufarning tegrasi nafis bo'yalgan ko'zlarida to'sat-dan sho'x uchqunlar o'ynab, oqargan yuziga anor suvi yugurdi.

- Voy, manu odamni - deb xitob qildi u. - Kinoga tushsam... nima bo'pti? Nima, men sizning xotiningizmanmi?

«Xotin» so'zining Nilufarday yosh, nozikkina bir qizning og'zidan chiqishi Hikmatilloga shunday erish tuyuldiki, u dovdirab:

- Axir, - dedi. - Axir biz... o'pishgan edik-ku! Nilufarning ko'zlaridagi sho'x uchqunlar hayratga, hayrat zo'r qahqahaga aylandi.

- Men... lablarimni artib tashladim! Nilufar xandon otib kulganicha, shartta burilib ketarkan:

- Xayr, Hikmat aka! - deb qo'l siltadi. - Biz endi ko'rismaymiz!

Hikmatillo keyinchalik bu uchrashuvni, o'zining «axir bir o'pishgan edik-ku!» degan so'zlarini har eslaganida uyat va iztirobdan ingrab yuboray derdi, mana, hozir ham oldin yuzlari tirishib, keyin xaxolab yuborishiga oz qoldi, lekin o'shanda... o'sha kuni u umrida birinchi mar-ta ichdi, shunday ichdiki, ertasiga bo'lgan voqealarning bittasini ham eslay olmadi. Bu voqealarni unga kula-ku-la do'stlari gapirib berishdi. Go'yo u g'irt mast bo'lib yotoqqa (xayriyat ayanikiga emas!), texnikumning yotog'iga borgan emish, «sevgilimdan ayrıldim! Qiz zoti-da vafo yo'q! O'zimni o'ldiraman!» deb, boshini devorga

urib yig'lagan, ochiq derazalarga intilib, ikkinchi qavat-dan o'zini otmoqchi bo'lgan, oxiri kursdosh do'stlari uni karavotga bog'lab zo'rg'a uxlatgan emish!..

Hikmatillo o'shanda ikki kun boshini yostiqdan ko'tarolmay yotdi, uchinchi kuni esa... voyenkomatdan povestka keldi...

Bu povestka o'shanda unga ko'k yuborgan bir najot, hamma musibatlardan qutqaruvchi baxt qushi bo'lib ko'rindi. Chunki o'shanda u bu shaharda turishga ham, o'qishga ham, Nilufarni ko'rishga ham toqati qolmagan edi! Lekin hayot ularni yana bir marta duch kel-tirdi. Chaqiriq qog'ozi kelgan kunning ertasigayoq uch-rashtirdi.

Bo'lgan voqealardan hamon dili siyoh, hamon iz-tirobda yurgan Hikmatillo povestka tekkan kuni kech-qurun O'rdaga kelib, trolleybusdan tushdi-da, anhor bo'ylab sekin yurib ketdi. U anhor bo'yiga jinday yozi-lish, yuragini qoplab olgan qora dudni jinday tarqatish umidida kelgan edi, lekin o'rniga aksi bo'ldi: atigi uch-to'rt kun muqaddam Nilufar bilan qo'l ushlashib borgan sohillarni, uning hamisha porlab turguvchi ko'zlariga tikilib, dam kulib, dam nozlanib gapirgan gaplarini eshi-tib, yonma-yon yurgan xiyobonlarini, o'tirgan skamey-kalarini ko'rGANIDA, olam ko'ziga qorong'i ko'rINIB ketdi. U orqasiga qaytmoqchi bo'ldi, lekin xuddi shu payt, endi qaytmoqchi bo'lib turganida... ularni ko'rib qoldi.

Begimqul bilan Nilufar, «Paxtakor» stadioni dar-vozasining ro'parasidagi qo'sh tol tagida, bir mahallar choyxona bo'lgan joyning skameykasida qo'l ushlashib o'tirishar, Begimqul yo'lovchilarga zig'ircha e'tibor ber-may, qizni bag'rige bosib o'pmoqchi bo'lar, Nilufar esa, boshini har tomonga olib qochar, to'g'rirog'i, shunga o'xshash harakatlar qilar, lekin Begimqul uni qo'yib yubormas edi!

Hikmatillo buning hammasini shunday yaqin borib qolganda ko'rdi, ko'rdi-yu, orqasiga chekinishni ham, o'tib ketishni ham bilmay, to'xtab qoldi. Chunki Nilufar uni ko'rib, Begimqulni siltab tashladi-da, o'rnidan turdi. Oppoq, muloyim yuzi gulxanaptida qizarganday lov-lov yonib, charos ko'zları allaqanday porlab:

– Hikmatillo aka! – dedi. – Og'ayningizni tartibga chaqirib qo'ying, hech uyalmaydi-ya!

Begimqul ham ishshayib o'rnidan turdi, go'yo xijolat chekkanday tomoq qirdi. Lekin Hikmatillo unga e'tibor ham bermadi, rangi o'chib, Nilufarga yuzlandi.

– Menga qarang Nilufarxon! – dedi, keyinchalik o'ziniyam hayratga solgan bir sovuqqonlik bilan. – Erkalikni Begimqulga qiling. Bu kishiga o'pich berib... menga erkalanish... ko'chada qolgan sayoq qizlarga ham yarashmaydi!

Hikmatillo shunday dedi-da, shartta orqasiga burildi, burilarkan, Nilufar yuzini qo'llari orasiga yashirib olganini, Begimqul esa hamon xaxolab kulib, uning qo'llarini tortqilayotganini ko'rib qoldi.

Ertasiga, yelkasida buyum to'rva, qo'lida almisoqdan qolgan katta chamadon, ofitserlar boshchiligidagi vagon-ga chiqayotgan edi, kimdir yelkasidan turtdi. O'girilib qarasa... Begimqul!

Qo'lida setkaga solingan ikkita qovun, hammomdan chiqqanday qip-qizarib ishshayib turibdi!

– Kechirasani, hamshahar... mana shu... arzimagan narsa... Yo'lda yor-birodarlarling bilan baham ko'rarsan!..

Hikmatillo qovunlarni olmay shartta burilib ketmoqchi bo'ldi-yu, ko'ngli bo'sh odam, dag'allik qilishga yuragi chopmadi. Qovunlarni olib vagonga tashlab chiqdi. Begimqul uni chetga tortdi, hamon xijolat chekib kului.

– Kecha ja...yomon qilding-ku, og'ayni... Nilu mendan arazlab ketib qoldi...

– Qo'rmasang ham bo'ladi, qaytib keladi...

Begimqul boshini qashib:

– To'g'ri, menam cho'chqalik qildim, – dedi. – Lekin... sen o'ylamaginki, men uni shunchaki... yo'ldan uryapti deb! Men unga uylamoqchiman...

– Baxtli bo'linglar!..

– Sen xafa bo'lma, og'ayni... Negaki, baribir foydasi yo'q edi. Chunki mana, armiyaga ketyapsan. U seni ikki yil kutadigan qizlardan emas...

Hikmatillo ko'zları o't chaqnab Begimqulga qadaldi.

– Shu bachkana gap kimga kerak?

– To'g'ri, keragi yo'q, – dedi Begimqul yo'talib.

– Xo'p, xayr.

– Xayr, do'stim...

Bir-ikki oy o'tdi... Shu yil qishda, bir kun, – bu payt Hikmatillo tizzadan qor kechib, Novosibirsk o'rmonzorlarida, qalin qarag'ayzor orasida qurilishda ishlamoqda edi, – Begimquldan g'alati bir xat oldi. U o'zi Begimqulga xat yozmagan edi, adresimni qayoqdan topdi, deb hayron bo'ldi. Xatdan ma'lum bo'lishicha, Begimqul uning adresini ayadan olibdi.

Begimqul, soxt-sumbatiga mos tushmagan, xuddi tishlariday bitta-bitta yozilgan yirik harflarni ipga tergan sadafday terib, undan, hamqishloq do'stidan yana uzr so'ragan, yana maqsadi jiddiyligini aytib, Hikmatiloni yaqinda bo'lajak to'yga taklif qilgan edi. Lekin eng qizig'i, bu bema'ni, ham bachkana, ham qandaydir o'ziga xos samimiylidän xoli bo'lмаган bu g'alati xatning g'alati ilovasi ham bor edi. Qing'ir-qiyshiq qo'l bilan yozilgan bu ilovada shunday deyilgan edi.

«Hikmatchik, azizim!

Siz menden nega xafasiz? Bilmadim. Axir o'rtamizda hech narsa bo'lмаган edi-ku? Siz hech tashvish qil-

mang. Mening go'zal o'rtoqlarim ko'p. Qaytib kelgani-  
ngizda tanlaganingiz bilan tanishtirib qo'yaman. Faqat  
bitta shartim bor: qizlar bilan muomala qilishni o'rganib  
keling.

Sizga bu sohada muvaffaqiyatlar tilab, Nilu...»

Garchi «Hikmatchik» degan so'z g'ashini keltirsa  
ham, Hikmatillo bu xatni o'qib, ichida kulib qo'ya qoldi.  
Chunki, birinchidan, o'tgan bir-ikki oy ichida u Nilufarni  
dilidan tamom chiqarib tashlagan, ikkinchidan, Nilufar  
aytganday, qizlar bilan muomala qilishni o'rgana bosh-  
lagan edi.

Hikmatillo xizmat qilgan joy nomiga Novosibirsk,  
deb atalsa ham, shahardan ancha yiroqda, qalin o'rmon-  
lar orasida edi. Atrofda, ham besh-olti chaqirim joyda  
bir qishloq bor, bu qishloqlarda yigitlarni kunduz chiroq  
yoqib topib bo'lmas, lekin qizlar serob edi!

Har shanba yo dam olish kunlari, soldatlar etiklarini  
ko'zguday yarqiratib, gimnastyorkalarining yoqalariga  
oq surpdan hoshiya taqib, kamarlarining taqinlari va  
qulochchinlarining yulduzchalarini qumga ishqab yaltil-  
latib, shu qishloqlarga otlanishar, tomlarini qor bosgan,  
tor, lekin hammomday issiq klublarda garmon sadosi  
ostida yer depsinib tansa tushishar, yangi film qo'yil-  
sa, sahnadan ko'ra yonlaridagi qizlarga ko'proq e'tibor  
berishib, g'ira-shira zalda piq-piq kulishib, pinhona  
pichirlashib, kino ko'rishardi.

Dastlabki paytlarda Hikmatillo bu qishloqlarga  
borishga, borganda ham qizlarga yaqinlashishga iyma-  
nib yurdi. Bir kuni - bu o'sha, Begimquldan xat borgan  
paytlar edi shekilli - nomiga posilka kelganligi haqida  
pochtadan qog'oz oldi. Pochta idorasi qo'shni qishloqda  
edi. Hikmatillo Oles Mayborada, degan og'aynisi bilan  
posilkani olishga bordi.

Pochta qishloq magaziniga yondosh torgina xonda edi. Xona ko'chadan ham sovuq, uyning to'rida, derazaning oldida, qalin po'stin kiyib, boshiga tivit ro'mol o'rab olgan yoshgina bir qiz, og'ir piymalarini bir-biriga uring, yer depsinib turardi. Qiz po'stinining ichidan ham qat-qat kiyim kiygan bo'lsa kerak, matryoshka degan yum-yumaloq qo'g'irchoqqa o'xshar, tugmadekki-na burni, yupqa lablari, katta-katta ko'm-ko'k ko'zlar bu o'xshashlikni yana ham kuchaytirar edi. Hikmatillo qog'ozni ko'rsatdi, qiz uning hujjatiga ko'z tashlab, pesh-taxtaning tagiga engashdi-yu:

– Voybo', xotiningiz sizni juda yaxshi ko'rар ekan! – deb tivit ro'mol o'ragan boshini likillatdi. – Yuborgan posilkasini men ko'tarolmayman. O'zingiz kirib ola qoling!

Qizning qiliqlari ham, kulgisi ham, so'zlar ham Hikmatilloga shunday xush yoqib tushdiki, qizarib:

– Xotinim yo'q mening! – dedi.

– Aldamay qo'ya qoling! – dedi qiz, tivit ro'mol bilan o'ralgan bir parchagina yuzida kulgichlari o'ynab.

– Bilamiz!

– Yo'q, yo'q rost, xotinim yo'q! – dedi Hikmatillo va Olesning biqiniga turtganini sezib, unga yuzlandi. – Xudo ursin agar, yolg'on so'zlasam!..

– Qo'y, shu xotiningni! Posilkangni ol! – dedi Oles, aftini burishtirib.

Hikmatillo ichkariga kirdi. Posilka haqiqatan ham juda og'ir – kamida bir pud kelardi.

Hikmatillo uni ko'tarib chiqayotib, qizga qaradi. Qiz qizargan qo'llariga ufurib, Hikmatilloga tikilib turar, yо-qimtoy nigohida har qanday yigitni ham eritib yuboradigan qandaydir iliq bir mehr bor edi. Hikmatillo posilkani ochib, qizga mevalardan – uydan ho'l meva yuborganlardan xabardor edi! – bergisi keldi-yu, iymandi.

Tashqariga chiqib, eshikni yopishlari bilan Oles uning yelkasiga urib:

- Nima balo, yoqib qoldimi? – deb so'radi.
- Yaxshi qiz ekan, – dedi Hikmatillo.
- Yaxshi qiz bo'lsa shunday qilasanmi?
- Nima qildim?
- Xotining bor desa, xotinim yo'q, deb ont ichasan!
- Yo'q xotinni bor deymanmi bo'lmasa?
- U senga jo'rttaga aytyapti-ku buni, to'nkamisan hazilni tushunmaydigan? Bitta emas, ikkita xotinim bor, ammo sizning bitta tabassummingiz uchun ikkalasiniyam qo'yvorishga tayyorman, demaysanmi, kallavaram?

– Dabudurustdan-a?

Nima balo, sahroda o'sgan yovvoyimisan? Shunday jonon qiz hazil qiladi-yu, bu bo'lsa:

«Xotinim yo'q!» deb ont ichadi. U jo'rttaga sening qitig'ingga tegyapti-ku, latta!

– Yo'g'-e, – dedi Hikmatillo ishonmay.

– Men bu qizni taniyman. Oti Nadya. Klubda kutubxonachi bo'p ishlaydi. Hozir bu yerda oyisining o'rnila turgan bo'lsa kerak. Kechqurun tansaga kelamiz, o'zim tanishtirib qo'yaman...

Oles kun bo'yi unga qizlar bilan tanishish, ularning ko'nglini ovlash «uslubidan» saboq berdi. Bu saboq uncha mushkul emas, Olesning aytishicha, qizlar nima desa, shuning teskarisini aytish, hazilga hazil bilan javob berish, hozirjavob bo'lish kerak ekan, xolos! Lekin juda oson ko'ringan bu «uslub»ni qo'llash o'ng'ay emas ekan, Hikmatillo tugul, sho'xlikda batalonda tengi yo'q Olesning o'ziyam kechqurun qizlar davrasida bu «uslub»ni qo'llayman deb, rosa kulgi bo'ldi. Lekin shu kulgi bahona Hikmatillo Nadya degan haligi kutubxonachi qiz bilan tanishib oldi.

Hikmatillo bolaligida kitob o'qishni yaxshi ko'rsayam, texnikumga kirganidan keyin deyarli hech narsa o'qima-

gan, darsdan tashqari kitob o'qishga vaqtiyam yo'q edi. Armiyada ham vaqt kam edi, lekin... u oldin Nadyadan uyalgani uchun, mazmunini so'rasha o'sal bo'lib qolmay, deb o'qidi, keyin... kitob bahona diydor g'animat, deganla ridek, qizni ko'rgisi kelgani uchun olgan asarlarini tezroq o'qiydigan bo'ldi, oxirida esa o'ziyam shunday qiziqib ketdiki, so'nggi besh-olti oyda bir dunyo kitob o'qib tashladi!..

Eng muhimi, bu quvnoq, hazilkash qiz bahona Hikmatillo umuman qiz-juvonlar davrasida o'zini erkin tutishga o'rgandi, o'rgangandan keyin esa, ilgarigi tortinchoqligi, Nilufarga qilgan muomalalarini eslab kulgadigan bo'ldi...

Begimqul so'nggi bir xatida Chilonzorda, ikki xonalii alohida uyda turishini aytib, mehmonga taklif qilgan, «otpuskaga kelsang, eski og'aynilaring yodingdan chiqmasin, ayaning uyida qilgan jinniliklarimizni eslab, bir otamlashamiz», deb yozgan edi. Bu «jinniliklari», Nilufarni deb, Begimqul bilan mushtlashganlari endi Hikmatilloning o'zigayam juda g'alati tuyular, ayni zamonda negadir Nilufarni, umuman ularning turish-turmushlarini ko'rgisi kelardi.

Hikmatillo bugun dam olish kuni ekanini, barvaqtroq bormasa mezbonlar bir yoqqa ketib qolishlari mumkinligini o'yladi-da, tramvayga mindi.

### 3

Eshik orqasida oldi ship-ship etgan yengil sharpa, so'ng uyqudan bo'lsa kerak, sal bo'g'iq, tanish ovoz eshitildi:

- Bu kim?..

- Kechirasiz, bu men, Hikmatman...

- Hikmat? - go'yo bir narsadan hurkkanday patir-purtur sharpa, so'ng, sal nariroqdan sarosimali shivir-shivir eshitildi:

- Ayiqday ag'anab yotavermay, turing hoy, Hikmat keldi!

- Qaysi Hikmat? - do'rilladi yo'g'on ovoz.

- Qaysi bo'lardi! O'sha, hamqishloq do'stingiz-da!

- Topgan vaqtini qara! Endi bag'rimga bosaman deb...

- Ko'p so'yilavermang! Boring, eshikni oching. Men kiyinib olay...

Hikmat ketishini ham, ketmasligini ham bilolmay, turgan joyida serrayib qoldi.

Ichkarida karavot purjinasining og'ir g'ichirlashi, chindan ham ayiq g'ingshiganday g'ingshigan, esnagan, kerishgan ovozlar eshitildi. So'ngga kalitlar, zanjirlar shaqir-shuqur qilib, nihoyat, eshik ochildi.

- E-e, do'stim, Hikmatillo! Olamda bormisan? Uyquni beliga tepding-u, ammo yo'qlab kelganingga xursandman, humpar!

Ancha to'lishgan, salobatlashgan Begimqul, egnida yo'l-yo'l ipak pijama, oppoq ko'kraklari qornigacha ochiq, patak sochlari burungidan ham hurpaygan, poygakda eshikni to'sib turardi.

- Ostonada ko'rishishning xosiyati yo'q deyishadi! Ichkariga kir! Qani, quchoqlashamizmi, ablah - Begimqul quloch yozib ko'rishdi. - Bo'ydan beripti-ku, Xudo! Boshingni eg, humpar, shiftni teshvorasan! Qaydasan, Nilu? Ja ketvorgan yigit bo'pti, bu lapashang?

- Rostdan-a?

Shundoq ro'paradagi eshik ochilib, Nilufar chiqdi. Egnida qandaydir yaltiroq matodan tikilgan keng xalat, shoshilinch turmaklangan sochlarining bir necha tolasi nafis egilib chakkasiga tushgan, surma qo'yilgan ko'zlarini xiyol suzilgan Nilufar, tirnoqlari nafis bo'yalgan nozik qo'llarini berib, kulib ko'rishdi, ko'risharkan, yuziga bilinar-bilinmas qizillik yugurdi.

- Chindanam shiftga tegadigan bo'psiz!

Nilufar bir oz ozgan, yumaloq oppoq yuzi xiyol cho'zilgan, o'ziyam allaqanday ma'yus bir latofat kasb etgan, go'yo bultur ichida lovullab yonib turgan qandaydir alanga so'ndirilgan-u, endi orom olib, tinchib qolgan...

- Xotinimga namuncha qadalasan, ablah! Bilasan-ku, rashkim yomon! - Begimqul qizilo'ngachigacha ko'rsatib, xaxolab kului.

Nilufar yana qizarib yerga qaradi:

- Bachkana bo'l mang! Ichkariga kiring... Yo'q, yo'q, etizingizni yechmang, artib kiravering! - u chap tomondagi devor shkafini ochib, Hikmatilloning oyoqlari ostiga ho'l latta tashladi.

Hikmatillo, gard yuqmagan qip-qizil poyandozni iymanibgina bosganicha tor yo'lakdan yurib, o'ng qo'lidagi xonaga o'tdi, o'tarkan, ko'zi beixtiyor yotoqxonaga tushdi; qo'sh tavaqali garniturga ilingan kiyimlar taxi buzilgan, qo'sh karavotdagi atlas ko'rpa yig'ilmagan... Lekin mehmonxonadagi tartib bekami ko'st: chet ellik qora yaltiroq servantlardagi chetlariga tilla suvi yuritilgan piyola-choynaklar, idish-tovoqlar, rang-barang ko'za va ko'zachalar, surat solingan mis buyumlar, nozik qadahlar, hammasi joy-joyiga qo'yilgan, jigarrang kitob shkafidagi oq, qizil, qora jildli kitoblar bitta-bitta terilgan, yerdagi qirmizi gilam, eshik va derazalarga nafis harir to'r ustidan tutilgan qalin ipak darpardalar, ekrani katta rangli televizor, tilla romga solinib, devorga osilgan ikkita tabiat manzarasi, shiftdag'i katta billur qandil - hamma-hammasida nozik didli ayolning mehribon qo'li sezilib turar, hammasi alohida qunt bilan yasatilgan edi.

- Namuncha og'zing ochilib qoldi? - dedi Begimqul, mammun jilmayib. - Qalay, akang o'rgilsinni qasri-oliylari yoqdimi? Buning hammasi kaminaning halol puliga kelgan! Hozir kimni qo'li baland - quruvchi bilan gaz-

chinging qo'li baland. Hasad qilma! Qaytib kelsang sen ham bir-ikki yoldayoq boplab koshona qurib olasan!

- Kim hasad qilyapti?

- Gap-da, kallavaram!.. Xo'sh, ya'ni... qachon kelding?

- Ikki hafta bo'ldi. Qishloqda edim...

- E, ha... boboy olamdan o'tibdilar. Joylari jannatda bo'lsin. Yaxshi odam edi, rahmatlik. Xafa bo'lma, hammaning boshida bor gap. Qani, yuqori o't, men yuvinib chiqay. Xohlasang sen ham yuvinib ol. Bitta vanna qurdirganman, ko'rsang og'zing ochilib qoladi. Ko'rasanmi?

- Yo'q, rahmat...

- Bo'lmasa yuqori o't, dampingni ol.

Begimqlul ayiqday chayqalib, vazmin odimlab chiqib ketdi. Uning yurish-turishi, xatti-harakatlari, hatto «ablah» deb xaxolab kulishlarida ham g'urur aralash zo'r bir mamnuniyat, o'z turmushidan qoniqish, baxtiyorlik sezilib turardi. Nega ham mamnun bo'lmasin? Shunday go'zal, orasta xotini, shohona uy-joyi bo'lsa, hech narsadan kam-ko'sti bo'lmasa... u mamnun bo'lmay, Hikmatillo mamnun bo'lsinmi?

Bu nima? Hasadmi? Ichi qoralikmi? Yo'q, hasad emas, lekin... lekin nima bo'layotganini o'ziyam tushunolma-gan, faqat tiniq kuyday hazin bir tuyg'u dilini chulg'ab olganini sezgan Hikmatillo bir-bir bosib, kitob terilgan shkaf yoniga o'tdi...

Hoshiyasiga zar tikilgan guldor shippagi bilan gilamni unsizgina bosib, Nilufar kirdi.

O'rtadagi yaltiroq stolga popukli qalin dasturxon yozarkan, bilinar-bilinmas kulimsirab:

- Xizmatlar yaxshi o'tyaptimi, Hikmat aka? - deb so'radi.

- Shukur... o'zingiz qalay? O'qishlar tugadimi?

- Ha, ko'klamdan beri aptekada ishlayapman. Agar dori kerak bo'lsa... ishxonayam yaqin, shu uyning o'zida...

Yo'g'-e, dorini nima qilardingiz siz? Ja... otday bo'p ketib-siz! – Nilufar bu gapni aytishga ayt-i-yu, qizarib ketdi.

– Ha, endi... – Hikmatillo xijolat chekib yo'taldi. Nilufarning bulturgi odatlari, bir joyda bir zum tinch turolmay kiyikday sakrashlari qolgan, yurish-turishlarida, harakatlarida yosh kelinchaklarga xos yoqimli ma'sumlik, bosiqlik, nazokat paydo bo'lgan edi. Yo tavba! U chindan ham shunchalik o'zgarganmi, yo boshdayam shunday ma'sum bo'lgan-u, faqat unga, rashkchil qishloqiga behayo va shaddod ko'ringanmidi?

Hikmatillo eski munosabatlarini eslab o'zidan qancha kulgan bo'lmasin, bugun yo'lda kelayotib erkin gaplashishga o'zini qanchalik chog'lamasin, hozir unsizgina odimlab dasturxon yasayotgan bu yosh, go'zal juvon oldida o'zini erkin tutolmas, nimadir unga xalaqit berar, nimadir asablarini tarang tortib turar, eng yomoni yuragi nina sanchilganday betinim sanchib og'rirdi.

Nilufar servantdan to'rtta likopcha, og'ir kumush qoshiq, kumush vilkalar olib stolga qo'yarkan:

– Xizmatdan qachon qaytasisiz? – deb so'radi.

– Hali bir yil bor...

Hikmatillo shkafni ochib oq jildli qalin kitobni oldi. Yo rab! Bu o'sha mahallar ko'l bo'yida Nilufarning qo'li-da ko'rgan «Alvido, quro!» degan kitob edi!

Dasturxon yozib bo'lgan Nilufar, xuddi nima qilishi yodidan ko'tarilgan odamday, xayolga tolgan edi. Ni-hoyat, u qandaydir ichki bir taraddudni yengib, chakkasiga tushib turgan soch tolalarini to'g'riladida, sharpasizgina odimlab, Hikmatilloga yaqinlashdi.

– Nimani o'qiyapsiz?..

– Ha, shu.. Xemenguey, – dedi Hikmatillo. – «Alvido quro!» Chindan ham... g'alati kitob ekan!..

Nilufarning ko'zlarida quvonch aralash bir hayrat porladi.

- O'qidingizmi?

- Hozir Xemingueyni o'qimagan odam, ayniqsa biz tomonlarda, armiyada, kulgi bo'ladi-ku! – dedi Hikmatillo va beixtiyor qizarib ketdi.

Uning yodiga kutubxonachi qiz Nadya tushdi. Nadya unga bu romanni navbat kutayotgan kitobxonlardan yashirib, ikki kunda o'qib chiqish sharti bilan bergan edi. Hikmatillo esa kitobga sira kirisholmagan, romanining bosh qismi unga juda zerikarli tuyulgan edi. U bir o'yida kitobni «o'qidim» deb, qaytarib bergisi ham kelgan, biroq Nadyaning so'rab qolishidan qo'rqqan edi. Eng muhimi, shu kitob bahona Nilufar bilan ko'lda arazlashib qolgani yodida turgani uchun ham o'qishga majbur etgan edi o'zini. Va ajabo, birinchi kunlari kitobning yigirma-o'ttiz betini zo'rg'a o'qigan Hikmatillo, uchinchi kuni qolgan qismini bir o'tirishdayoq o'qib chiqqandi. O'sha kuni Hikmatillo qurilishda navbatchi edi. U kechasi prorabning xonasiga kirib, eshikni yopib oldi-da, kitobni ochdi, ochdi-yu... U yog'i nima bo'lgani yodida yo'q, faqat tong palla kitobni yopib o'rnidan turgani esida... Kitob qahramonlarining fojiali muhabbati, Ketrinning to'lg'oq azobida o'lishi, sevgilisidan ayrılgan Genrining musibati uni titratib yuborgan edi!..

- Bechora Ketri! – dedi Nilufar. – Uning o'limi... xudi Genrining ko'z yoshlariga o'xshash tinimsiz quygan yomg'ir... esingizdami? Men yig'layverib esim ketuvdi...

- Ha, ha, – dedi Hikmatillo birdan yopirilib kelgan hajajonni yashirishga urinib. U ko'zlari allaqanday porlab, ovozi titrab gapiyatotgan bu muloyim juvon bilan o'zi o'rtasida qandaydir nozik bir yaqinlik paydo bo'lgani ni his etdi, nazarida, Nilufar shu topda faqat o'z ko'ngli emas, uning, Hikmatilloning ko'nglidagi to'fonni ham his etayotganga o'xshardi!

- Bilasizmi, Hikmat aka? – dedi Nilufar va qo'lini Hik-

matillonning qo'liga qo'ydi. – Ketrin o'ladi-yu, biroq... birroq men uni juda baxtli, juda baxtli ayol deb o'ylayman...

– Nega?

– Chunki... Genriday... ajoyib yigitning muhabbat... shunday pok tuyg'ular, shunday samimiy... – Nilufar «qult» etib yutindi-yu, ko'z yoshi aralash jilmaydi. – Kechirasiz, men juda... g'alati...

– Yo'q, yo'q! – dedi Hikmatillo. – Men... tushunib turibman. Hammasiga tushunib turibman. Men o'shanda... ko'lda... bilmagan ekanman...

Boyadan beri bir me'yorda quyilayotgan suvning sokin shing'illashi tinib, vannadan Begimqulning:

– Hoy, bu qanaqa shivir-shivir? Rashkim yomon manim! – deb qichqirgani va xaxolab kulgani eshitildi.

Nilufar, xuddi, bexosdan xunuk bir gap aytib yuborgan odamday qizarib ketdi-da, boshini bir tomonga egganicha, tez yurib, mehmonxonadan chiqди. Yo'q, bu Hikmatillo bilgan bulturgi Nilufar emas, tamom boshqa odam edi!.. Yo bu bir yil ichida unga bir nima bo'lgan-u, juda o'zgarib ketgan yo, aksincha, Hikmatillo boshdayoq yanglishgan, boshdayoq u haqda noto'g'ri xulosa chiqargan!

Ha, gap Nilufarda emas, uning o'zida! Nilufar bultur ham birda yosh qizlarga xos sho'xliklar qilib, rashkini keltirsa, birda u bilan, Hikmatillo bilan samimiy gaplashgisi kelib, muzika haqida, qandaydir notanish kitoblar haqida gap ochar, lekin u qizning suhbatiga jo'r bo'lomas, u olamdan bexabar oddiy bir to'pori edi. Durust, u-ku olamdan bexabar, to'qim tabiat bir yigit ekan, Begimqul-chi? Begimqul qaysi fazilatlari bilan rom qildiykin bu nozik tabiat sanamini?

Hikmatillo yana boyagiday yuragi ohista bezillab, divanga o'tib o'tirdi.

Eshikda, vujudidan pag'a-pag'a issiq hovur tara-

gan, yumaloq yuzi hozirgina bo'yalgan qo'g'irchoqning yuziday yaltillagan, mamnun-xushchaqchaq Begimqul ko'rindi.

- Qani, xotinjon, ovqat gatopmi, o'rgilib ketay sizdan? Gatop bo'lsa opkeling. Ishtahalar karnay bo'p ketdi! Xolodilnikdagi konyakniyam oling, og'aynim bilan bir otamlashaylik!

Oshxonada boshlangan jaz-buz orasidan Nilufarning xiyol ranjigan ovozi keldi.

- Tong otmasdan turib konyakmi?

- Konyak bo'lmasa shampanxon to'rani oling, o'rgilsin. Siz ham yayraysiz, biz ham! - Begimqul Hikmattiloga ko'zini qisib, servantdan billur kadahlarni oldi. Jizillab turgan bir tova quymoq ko'tarib Nilufar kirdi, kolbasa keltirib qo'ydi.

Begimqul konyakka chiqdi shekilli, xolodilnikning eshigi gursilladi. Oshxonadan Nilufarning yana bir nima deb zorlangani, Begimqulning xushomad qilib kulgani eshitildi:

- Xotin zoti ikki toifaga bo'linadi, xonim. Yaxshi xotinlar-u, yomon xotinlar, - dedi Begimqul mehmonxonaga bir shisha konyak ko'tarib kirarkan.

- Yomon xotinlar mehmonning oldida erlariga xuruj qilishadi. Yaxshi xotinlar, ichlaridan zil ketsayam, mehmonning oldida iljayib turib, mehmon ketgandan keyin egovlashadi. Mehmon ketgandan keyin boshimda yong'oq chaqsangiz ham mayli, ungacha iljayib turing, o'rgilay sizdan!

- Eski hammom, eski tos! - dedi Nilufar, boshini egib.

- Mayli, xotin, mayli. Siz nima desangiz biz xo'p deb, ko'ksimizga uramiz, akasi jonidan.

- Begimqul qadahlarga konyak quyib o'rnidan turdi.

- Xo'p, do'stim, Hikmatillo. Sen uchun. Eson-omon xizmatni bajarib kel. Kelganiningdan keyin o'zim ishga

joylab qo'yaman. Menga o'xshab gaz bo'yicha master bo'p olsang – oshig'ing olchi!

– Sen qachon master bo'lding?

– Bir yildan oshdi. Nega ko'zingni lo'q qilasan? Hozir gazchi turganda quruvchiga yo'l bo'lsin, og'ayni! Ertalab idoraga bor, ko'rason: manman degan yo'g'onlar «Gaz-24» mashinalarini ko'ndalang qilib, «ukajon, bugun biznikiga tashrif buyurib, bir cho'qim osh yeb ketsangiz», deb qo'l qovushtirib turishihti! Toshkentda nima ko'p, uchastka ko'p. Gaz turganda kim qo'lini kosov qilib ko'mir yoqishni xohlaydi deysan?..

– Gazdan boshqa gap yo'qmi olamda? – dedi Nilufar.

– Miyasini qoqib qo'liga berdingiz-ku, Hikmatjonni!

– Hikmatjongayam kerak gap bu, xonim! Uyingizdag'i mana bu servantlar, qo'lingizdagi billur qadah, egningizdaga ipak xalat, hatto siz yaxshi ko'rgan ana u serbezak kitoblar –hammasi o'sha sassiq gaz orqasidan kelgan, jonginam! Xo'p, bas qildik, xonim, bas qildik...

Qani, oldik, do'stim...

Hikmatillonning esiga ayaning gaplari tushdi: «Gazga borsam... navbat kutasan deyishdi.

Navbatchi o'lgur oxiratdayam kelmasmish. Bozordan usta opchiqa qolay desam, pojarnysi bor bo'lgur, isparav-ka bermasmish...»

– Ayadan xabar oldingmi hech? – dedi Hikmatillo.

– Aya? Ha, kampirni aytasanmi? Nima qildi?

– Hech nima... Kampir bechora uyiga gaz o'tkazmoq-chi bo'lib, batareya qurdirgan ekan. Hammasi bo'pti-yu, quvurkon o'rnatib senlardan ruxsat olish qopti. Yordam bervorsang bo'larkan...

– Yordam ham gapmi? Sandiqning tagiga taxlab qo'ygan yuz so'lkavoylardan chiqarsin, shu bugunoq yoqib beramiz! – Begimqul odatdagiday xaxolab kulmoq-chi bo'ldi-yu, og'zi to'la quymoq, kulolmadi.

– Kampir bechora yuz so'lkavoyliklarni qayyoqdan olsin?

– Nima? – dedi Begimqul, og'zidagi quymoqni chaynashdan to'xtab. – Sen ayani bilmas ekansan! Ilonni yog'ini yalagan kampir u! Ko'mma tillosi bor ayaning. Sen... haliyam qishloqililing qomapti, og'ayni!

– Sen qishloqi emasmisan?

– Menmi? Men... haqimni ajratoladigan qishloqlar danman! – Begimqul stulning suyanchig'iga chalqayib, xotiniga qirg'iy qarash qildi.– Mana, shaharning man man degan oliftalarini dog'da qoldirib shunday jonon ni gah deb qo'limga qo'ndirdim-u, sen bo'lsang qishloqi deysan-a! Labbay, xonim?

Boyadan beri dasturxonning popugini barmog'iga o'rab, yerga qarab o'tirgan Nilufar non chaynashdan to'xtab, «qult» etib yutindi-yu, indamadi.

– Chindan ham obi zamzam desa bo'ladi, bu ichimlikni! Endi ter chiqay dedi! Qani, shunday narsani o'ylab topgan gurji xalqining salomatligiga yana bittadan olaylik, do'stim!

– Qo'ying, yetar endi! – dedi Nilufar va go'yo bu so'zlari uchun Hikmatillodan uzr so'raganday qizarib ketdi. – Men buni qizg'anayotganim yo'q, mashina hay dashlari kerak. Dalaga chiqmoqchi edik...

– Hikmatniyam opketamiz! – Begimqul og'zini oq qog'oz bilan artib o'rnidan turdi. – Yaqinda «Jigulli» olganman. Bir kataysa qildiraman, do'stim. Bugun bo'shmisan axir? Qachon ketmoqchisan?..

– Ertaga. Lekin hali bilet olishim kerak... Rahmat.

– Shu ham masalami? Yo'l-yo'lakay kassaga kirib o'tamiz. Qani, xonim, dasturxonni yig'ishtirib, yasan-tusanni boshlang. O'n minut muhlat sizga – Begimqul ayiqday tebranib, mehmonxonadan chiqdi. Hikmatillo o'ng'aysizlanib o'rnidan turgan edi, Nilufar:

– Rost, birga bo'ling! – dedi, allaqanday yolvorgan to-vushda. – Dalada yaxshi joylar bor.

Qo'l bola osh qip beraman o'zim!

Nilufar, go'yo o'z gapidan o'zi uyalib ketganday to'sat-dan ko'zlari yoshlanib kului-da, tez yurib mehmonxonadan chiqdi.

Hikmatillo o'rnidan turdi, hamon zil-zil og'riyotgan yuragiga qo'lini qo'yib, derazaning oldiga bordi. U juda ko'r kam, xushmanzara, lekin qandaydir havosi bo'g'iq joyga kelib qolgan odamga o'xshardi. Joy xushmanzara bo'lsa ham, bunday paytda bo'g'ilib ketayotganday tuyulib, tez-roq sof havoga chiqqisi keladi kishi. Hikmatillo ham hozir shu ahvolda edi. Ayniqsa Begimqulning aya to'g'risidagi gaplardan keyin, yarim hazil, yarim chin sandiq to'la pullariga shama qilganidan keyin joyida o'tirolmay qoldi. Attang! Bir tishlab uzib oladigan paytni boy berib qo'ydi! Tavba! Hikmatillo ayani bilmas emish! Ilonning yog'ini yalagan, shaytonni avragan kampir emish! Sandiq to'la yuz so'lkavoyliklar emish!.. Ha, bir boplaydigan payti keluvdi! Bor gapni yuziga aytib, shartta turib ketish kerak edi! Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi, – deganlari rost ekan! La'natি tortinchoqlik! G'azab va nafratdan tars yorilib ketay dedi-yu, bir og'iz gap topib aytolmadi! Doim shu! Payti kelganda bir nima deyolmaydi-yu, keyin mana shunaqa ich-ichidan zil ketib, fig'oni chiqib yuradi. Lekin... aytganda gap kor qilarmidi yulduzni benarvon uradigan bu olg'irga? Gapni gapir uqqanga, jonne jonga suqqanga!.. Yaxshisi birorta aeroflot kassasiga oborib qo'yishlarini so'raydi-da, xayr-ma'zur qilib qo'ya qoladi.

Bor-yo'g'i bir kun vaqtি bor. Bu bezbet bilan sayilga chiqib, bachkana qiliqlarini ko'rib qovurilib yurguncha... shaharni tomosha qil, o'ynab qol!.. Faqat... faqat Nilufar!.. Har bir harakati, boqishlari, har bir so'zi yurakni timdalovchi ma'yuslikka to'la bu ma'suma juvonni tashlab

ketish, ayniqsa negadir ko'zi yoshlanib aytgan so'nggi taklifini yerda qoldirish!.. Lekin yerda qoldirmay birga sayilga chiqqanda nima bo'ladi? Begimqulning bachkana hazillarini eshitish, xotiniga qilgan bema'ni qiliqlarini va bu qiliqlardan iztirob chekkan Nilufarni ko'rib zil ketishdan boshqa nima bo'ladi?.. Yo'q, yaxshisi, biletni cho'ntakka solib xotirjam bo'lib olgin-da, o'z yo'linga ravona bo'l! Keyingi pushaymon, o'zingga dushman. Endi bu gaplardan foyda yo'q!..

Bilet esiga tushgani uchunmi, Hikmatillo beixtiyor hujjatlari solingan ko'krak cho'ntagini ushlab ko'rdi, so'ng, tugmasini yechib soldat daftarchasini oldi, oldi-yu, yuragi orqaga tortib ketdi: hamyonga solingan bilet puli yo'q edi!..

Hammasi besh so'mliklardan iborat to'qson so'm puli bor edi!.. Soldat daftarchasi, otpuska qog'ozi joyida, daftarchaga solingan pul yo'q!

Hikmatillo jon holatda ko'kraklarini paypaslab, shi-mining cho'ntaklarini kovlashtirdi.

Gimnastyorkasining ikkinchi cho'ntagidan har xil adreslar yozilgan mitti bloknot, shi-mining bir cho'ntagidan ro'molcha, ikkinchisidan amakisi bergen o'n so'mning - uning uch so'mini ertalab taksiga to'lagan edi, qolgan yetti so'mi chiqdi, faqat alohida saqlangan bilet puli yo'q!

Lop etib, kechasi vagonda bo'lgan voqealar esiga tushdi.

Hikmatillo chiqqan vagonning deyarli yarmini lo'lilar egallagan edi. Keyin bilsa, ular Saratov tomonlardan ya-roqsiz otlarni opkelib, pullab qaytayotgan asbi jalloblar ekan. Lo'lilar hammasi bo'lib yigirma chog'lik, uch-to'rtta ayol - ular orasida boyo vokzalda xayrashgan xush-chaqchaq lo'li yigitining ketvorgan singlisi ham bor edi - va besh-o'nta erkak bo'lsa ham, butun vagonni shovqinsuronga to'ldirgan, hammasi kayfli, hammasi raqsga tushgan, garmon, hushtak, nag'al qoqligan etiklar dukuri,

likopchadekkina mitti childirmachalarining darang-durungidan olam larzaga kelgan, tekin tomosha avjida edi!..

Hikmatilloni kuzatib chiqqan do'stlari, qo'yar-da-qo'y may vokzalda ungayam jinday musallas ichirish-gan, u ham shirakayf edi. Shirakayf holda o'sha tanish lo'li yigitlar davrasiga tushdi.

Ular Hikmatilloni xushnud qiyqiriq bilan kutib olish-di. Boya ertalab maydonga kuzatib chiqqan sho'x yigit-cha esa, tor vagonda charx urib, o'zi childirma chalib, o'zi raqs tushayotgan, qavat-qavat qizil ko'ylagining o'tovdek etaklarini gir aylantirib, qizil guldor ro'molini havoda hilpiratib yer depsingan qaynisinglisini unga beradigan, to'yni Saratovda qiladigan bo'lib, ust-ustiga ikki piyola sharob quydi. Hikmatillo ichmagan edi, piyolani qiz oldi va unga ta'zim qilib:

– Ol, serjant! – dedi, ko'zлari yonib. – Yuragingda yoding bo'lmasa qaytarib ber – o'zim ichaman!

Lo'li yigit esa o'rnidan sakrab turdi.

– Buni ichsam, men ham bir shishaga qarz bo'laman, deb qo'rqma! Folbinlik qilib pul topadigan iprindi-si-prindi lo'lillardan emasmiz bizlar! Ot jallobi deydilar bizlarni! Pul kerak bo'lsa mana! – lo'li yigit do'ppayib turgan yon cho'ntagidan bir dasta pul olib, havoga otib yubordi-yu, yerga sochilgan qog'oz pullarni bosib, yer depsinib o'ynay ketdi:

*Ey, lalu-lalu, la!  
Lalu, lalu!  
Oh, qora tunlar,  
Lo'lining  
Baxt tunlari,  
Lalu!*

Qancha pul kerak bo'lsa ol, serjant! Aspi jallob deydilar bizni!..

Hikmatillo noiloj uzatilgan piyolani bo'shatib berdi, qizil ro'molchasini boshi uzra hilpiratib, qizil etikchasi bilan polni teshvorgudek depsinib raqs tushayotgan jononga uch so'm pul qistirdi, so'ng boshi gir-gir aylana boshlaganini sezdi-da, ikkinchi qavatta chiqib cho'zildi...

Pul cho't emas, aspi jallob bo'lgan ablah! Pulni yerga sochib, raqs tushadi-yu, dong qotib uxlayotgan odamning cho'ntagiga qo'l soladi! Yana chamadonini ko'tarishib chiqqanini, qaynisinglisini bermoqchi bo'lganini aytmaysizmi? Yo'q, ayb uning o'zida! Kim unga lo'li tutgan sharobni ol dedi? Kim dong qotib uxla dedi? Endi nima qiladi? Kimdan pul so'raydi?

Oyisiga telegramma berish to'g'risida gap bo'lishiyam mumkin emas. Busiz ham o'lim dog'ida jizg'anak bo'lib o'tirgan onaizoriga bu gapni aytib adoyi tamom qiladimi? Lekin vaqt ziq. Ertaga uchishi shart!..

Hikmatillo cho'ntaklarini yana bir bor shap-shap ushlab chiqdi-da, yuragi muzlab:

- Begimqul! - deb yubordi.

Eshikda, bo'yniga galstuk bog'layotgan Begimqul ko'rindi.

- Ha, nima qildi?

- Bu yoqqa qara... eshikni yop!

- Nima gap? Tinchlikmi?

- Tinchlik. Pulimni oldirib qo'yibman...

- Nima? - dedi Begimqul, galstugini bog'lashdan to'xtab. - Pulimni oldirib qo'ydim? Qanaqa qilib?..

- Ha, shu... kechasi poyezdda... bir vagon lo'lilar orasiga tushuvdim. O'shalar oldimi, boshqami, bilmadim, ishqilib, pulim yo'q. Hozir biletga chiqamiz deb, cho'ntagimni paypaslab ko'rsam... yo'q! Hujjatlarim turipti-yu, pulim yo'q!

- Latta! - dedi Begimqul! - Yosh boladay lo'liga pulini oldirib o'trsa! Necha so'm edi?

– To'qson so'm. Hammasi besh so'mliklar!  
– Hayronman... – Hikmatillo, ko'zлari javdirab, ham-qishlog'iga tikildi. – O'zing bir nima qilasan endi, do'stim. Men... kassada pulim bor. Borgan zahoti jo'nataman. Xudo ursin agar...

Begimqul ensasi qotib aftini burishtirdi.

– Gap unda emas! Men jonim bilan berardimu... buni qara! Aksiga olib, hozir mendayam pul yo'q edi-da!..

Hikmatillonning a'zoyi badanidan ter chiqib ketdi.

– Jon do'stim! Bir ilojini top! Bu katta shaharda sendan boshqa tanish-bilishim bo'lmasa... kimga boraman? Xudo haqqi, ertaga yetib borsam, indinga jo'nataman!

Begimqul yana yuzini burishtirib qo'lini siltadi.

– Qiziqsan-a, og'ayni! Po'lim bo'lsa... men senga tekinga berib yuborardim. Aytyapman-ku, aksiga olib... pulsiz paytimga to'g'ri kelding deb! Tavba, Kap-katta odam! Serjant! Cho'ntagidan pul oldirib o'tirsa-ya...

– Menga qara, Begimqul. – Hikmatillonning ovozi tit-rab ketdi. – Bir ilojini qil, jon do'stim... Qo'ni-qo'shning-dan qarz olsang ham bir balo qil...

– E-e, soddaliging qolmadi-qolmadi-da, og'ayni! Shu ko'p qavatli uylarda qo'ni-qo'sh nichilik bormi? Bizni qishloq deb yuribsanmi betni? Odam odamni tanimaydi betta!

Hayronman, nima qilish mumkin? Doim pul degan qalanib yotadigan uy, kelib-kelib, sen so'raganingda bir tiyin bo'lmasa-ya! Ayb xotinda! Bilasan-ku, xotinlarni!

– Balki xotiningda bordir, Nilufarxonida... Hikmatillo bu gapni aytishga aytdi-yu, tilini tishladi. «Yo'q! Nilufar-ni aralashtirish kerak emas bu ishga!» xayolidan o'tdi uning.

Begimqul tajang bo'lib, boshini qashidi.

– E-e, xotin zotini bilmas ekansan! Pul turarmidi bo'larda? Bir tiyin tushsa atelye modga yugurishgani-yu-

gurishgan bular!» – dedi Begimqul, lekin Hikmatilloning javdirab turgan ko'zlariga ko'zi tushib, boshini qashidi:

– Xo'p, so'rab ko'ray-chi, zora, baxtingga topila qolsa...

Hikmatillo «to'xta», deb qichqirib yuborishiga oz qoldi, lekin uning tili so'zga kelguncha Begimqul uydan chiqdi.

Hikmatillo turgan joyida qulog'ini ding qilib qotib qoldi. U o'zining naqadar ayanchli ahvolda ekanini sezар, chidab bo'lmas haqorat tuyg'usidan yer yorilsa-yu, yerga kirib ketsam der, ayni zamonda boshqa boradigan joyi, yalinadigan bir kimsasi yo'qligini bilgani uchun, tishini tishiga qo'yib, chidashga, yolg'on gapirayotgani yuzidan, gap-so'zlaridan bilinib turgan bu lo'ttivozga yolvorishga majbur edi...

Yo tavba! Shu uy, shu jihoz, «Jiguli» mashinasi, shu turish-turmushiga to'qson so'm topib berolmasa! Bunga ishonib bo'ladimi? To'qson emas, sakson, boringki yetmish so'm bo'lsa ham yetar edi. Bir tiyiniyam yo'q emish! Birga o'qigan, bir mayizni bo'lib yegan hamqishloq do'sti uning ahvolini ko'rib turib, ikki-uch kunga yetmish so'm qarz berib turishdan bosh tortsa!..

Yo'q, shoshma, balki topib berar. Balki Nilufarxon!..

Nilufarni bekor aralashtirdi shu ishga. Bildirmay qo'ya qolish kerak edi unga! Lekin... agar shu safar yordam berib yuborishsa, bu mushkul ishdan qutqarishsa edi! Hikmatillo abadul abad unutmas edi bu yaxshiliklari! Bergan pullarini indindan qoldirmay telegraf bilan qaytarar, hatto ikki baravar qilib qaytarishga ham tayyor edi! Chindan ham uning omonat daftarchasida sal kam besh yuz so'm puli bor! U axir qurilish batalonida pro-rab bo'lib ishlaydi. Har oyida yuz so'm, ba'zi oylarda hatto yuz yigirma so'mgacha pul oladi! Hikmatillo dadasi ning vafoti haqida qishloq Sovetidan olgan spravkasini ko'rsatib, endi bu pulni oyisiga yubormoqchi edi... Mayli,

yuz so'm kam yuborar. Aqalli ellik so'm topib berish-sayam mayli, ellik so'mlarini yuz so'm qilib, hatto yuz ellik qilib qaytarishga rozi. Yana bir umr minnatdor bo'lib yurardi. Bir umr!

Oshxona tomondan asabiy shivir-shivirlar, so'ng Nilufarning «Qo'ying! Bilganingizni qiling!» degan xitobi eshitildi, eshik ochilib Begimqul ko'rindi, ko'rindi-yu, qo'llarini yozib, allaqanday ayanchli nosamimiyl jilmaydi.

– Aytdim-ku, xotin zotida pul turarmidi deb! Tavba! Meniyam juda noqulay ahvolga solding-da, do'stim... Menga qara! – dedi u, to'satdan esiga bir narsa tushgan odamday ko'zлari chaqnab. – Buyumlarining qani? Chamadon-pamadoning bormi o'zi?

– Bor.

– Bor bo'lsa... balki chamadoningdadir? Hikmatillo bo'shashib boshini chayqadi.

Yo'q, pulni chamadonga solmaganini u aniq biladi.

Chamadonda kiyim-kechak, olma-anor bor, xolos. Pulni cho'ntagiga, soldat daftarchasiga solgani esida turibdi.

– Sen boshingni chayqama, do'stim! Menam shunday odatim bor! Pulimni bir joyga qo'ydim, deb o'ylayman-u, doim boshqa joydan topaman. Chamadoning qayerda o'zi? Oldin bir qarab ko'r...

Xonaga Nilufar kirdi. Sayilga tayyor shekilli, egnida atlas ko'ylak, bir qo'lida qirmizi jemper, bir qo'lida qizil charm sumka... Oqarib ketgan yuzida, tegrasi bo'yalgan katta ko'zlarida hayajon aralash iztirob.

– Voy, nima bo'ldi, Hikmat aka?

Nilufar kirib kelishi bilan Hikmatilloning ichki a'zolari siqib turgan qandaydir bir prujina yozilib ketdi-yu, qaddini rostladi.

– Xo'p, mayli, bir gap bo'lar... Xayr...

– Shoshma! Chamadoning qayoqda o'zi? Oborib qo'yaman...

– Keragi yo'q. Rahmat...

– Attang! Ja g'alati ish bo'ldi-da! Doim taxlanib yotadigan pul, shu safar... bunaqa bo'lganini qara?... Ja-a.. noqulay bo'ldi-da... To'xta deyman, oborib qo'yaman...

– Ovora bo'lma...

– To'xtang! Axir siz... axir biz! – Nilufar, lablari pirpirab, bir eriga, bir Hikmatilloga qaradi. Uning ko'zlarida yana yosh tomchilari miltiraganday tuyuldi-yu, Hikmatillo tishini tishiga bosib, eshikni yulqib ochdi.

– Rahmat sizga. Xayr.

Hikmatillo, go'yo Begimqul quvib kelayotganday, zinalardan hatlab-hatlab pastga tushdi.

Oftob charaqlab turar, to'rt qavatli binolar bilan o'rallagan kattagina hovli bola-chaqaga to'la, kulgi, qiyqiriq osmoni-falakka chiqqan edi.

Hikmatillo eshikda bir zum to'xtab, ko'kragini to'ldirib nafas oldi, keyin ko'chaga chiqib, g'iz-g'iz uchib o'tayotgan mashinalarga qo'l ko'tardi: cho'ntagidagi yetti so'mni tejashning baribir foydasi yo'q edi!..

Hikmatillo qarsillatib yopgan eshik go'yo Nilufarning peshonasiga kelib tekkanday bo'ldi-yu, ko'z oldi qorong'ilashib, devorni ushlab qoldi. So'ng, bir-bir bosib, mehmonxonaga kirdi-da, shilq etib divanga o'tirib qoldi.

– Xo'sh, nima qildik, ketdikmi?

Nilufar indamadi. U tomog'iga kelib tiqilgan achchiq faryod ko'ksidan otilib chiqishidan qo'rqib, tishini tishiga bosdi.

– Nima balo, og'izlariga talqon solib oldilarmi? – Begimqulning ovozi tahdidli yangradi. U vazmin odimlab, divanga yaqinlashdi. Nilufar boshini ko'tarmasa ham, uning darg'azab vajohatini tasavvur etdi.

– Nima bo'p qoldi birdan?

– O'zim... boshim og'riyapti...

– Hmm... – dedi Begimqul. – Miltiqning o'qidek odam... nechuk tuyqusdan boshlari og'rib qolarmish?

Boshlari og'risa... dalada... tabiat qo'ynida yozilib keta-siz. Men bosh injenerimizga va'da berib qo'yganman...

Nilufar ko'zini yerdan uzmasdan sekin javob berdi?

- Yo'q, men... chiqolmayman. Negadir... noxush sezyapman o'zimni...

Begimqul go'yo nima qilishini bilmagan odamday ancha jim qoldi. Lekin Nilufar bilar -uning bu sukutidan qo'rqqulik edi!.. Nihoyat u qandaydir og'ir pishillab:

- Menga qarang, xonim! - dedi. - Bosh-moshni bahona qilmay to'g'risini aytib qo'ya qoling: eski jazmani-ningizga qarz bermaganim uchun ko'rsatayotgan o'yini-ngiz emasmi bu?

Nilufar yalt etib qaradi. Uning yosh miltiragan ko'zlarida ifoda etish qiyin bo'lgan shunday zo'r bir qahr yonib turardiki, Begimqul bir nima deb g'uldiradi-da, eshikni taraqlatib yopib, uydan chiqib ketdi.

Eshik yopilishi bilan boyadan beri Nilufarni ip bo'g'ib olgan faryod ko'ksidan otolib chiqdi-yu, yostiqni quchoqlab o'krab yig'lab yubordi...

Nilufar yaqinda allaqaysi bir jurnalda o'qigan edi; go'yo, ko'z yoshi kishiga foyda keltiradi, degan gap shunchaki taxmin emas, balki ilmiy jihatdan asoslangan fikr emish, go'yo yurakni chulg'ab olgan alam, ko'z yoshi bilan birga mayda tomirlar orqali sizib chiqib ketarmish-u, kishi yengil tortarmish. Xullas, g'am bo'g'ganda yig'la-magandan yig'lab olgan yaxshi emish!..

Nilufar hozir buni o'ylagani uchun emas, ko'pdan beri yig'ilib yurib, bugun birdan xuruj qilgan tizginsiz alamga bardosh qilolmagani uchun yig'ladi, divanga yuz tuban tushib, yostiqni quchoqlab, o'zini tutolmaganidan uvvos tortib yig'ladi. Bu yig'i chindan ham yuragidagi mislsiz iztirobni xiyol tarqatganday, xiyol yumshatganday bo'ldi. Lekin buning o'rniga xayolini oxiri ko'rinnagan tunganmas ma'yus o'ylar egallab oldi. Bu betaskin

g'am, oysiz tunday qorong'i o'ylar uning xayoliga bugun kelayotgani yo'q, ular sal kam bir yil oldin, to'yanan bir hafta o'tmasdanoq boshlangan, lekin bugun, Hikmatil-loni ko'rghanidan keyin yangi bir kuch bilan xuruj qildi, jilovsiz to'fon bo'lib yopirilib keldi.

Qiziq, bugun Xemengueydan gapirgan, eng muhimi, har bir so'zi, qiliqlari, muomalasidan kishini rom qiluvchi bir samimiyat, odamiylik, g'urur sezilib turgan bu yigit bultur Nilufarda tamom boshqacha taassurot qoldirgan edi.

Boshda, paxtada tanishgan mahalda Nilufarning dilida iliq mehr uyg'otgan bo'lsayam, keyinroq, shaharga kelganlaridan keyin, o'ta jo'n, o'ta sodda, ayni zamonda juda rashkchi va to'pori bo'lib ko'ringan edi.

Hikmatillo haqiqatan Nilufarni hammadan, ko'cha ko'yda tikilib qaragan yigitlardan, texnikumdag'i kurs-doshlaridan, kinolarda yonma-yon o'tirib qolgan erkak-lardan, hamma-hammadan qizg'anar edi. O'ziyam na bir yaxshi gap, na bir shirin suhbatga qodir edi. Bolaligida muzika maktabida ta'lim olgan, bir olam kitob o'qigan Nilufar birorta qiziq asar yo yangi kino haqida gap ochsa u yo so'z topolmay g'uldirab qolar yoki g'alati gaplar aytib, Nilufarning kulgisini qistatardi.

O'sha mahalda Nilufarning nazarida yigit kishiga nomunosib ko'ringan jur'atsizligi, kulgili tuyulgan tortin-choqligi-chi? Hikmatilloning mo'min-qobilligi faqat Nilufar emas, uning dugonalarini ham hayratga solar, ular: «Bu yumshoq supurgini qayoqdan topding?» deb kulishhardi...

Yomg'irdan qochib, do'lga uchradim, deganlaridek, uning «yumshoq supurgidan» qochib, bu chaqir tikanga duch kelishiga shu kulgilar, kursdosh yigitlarning zahar-xandasasi-yu, dugonalarining pichinglari ham sabab bo'lди.

Mana hozir ham bir safar Hikmatillo darg'azab bo'lib texnikumga kirib borgani, Nilufar:

«Kinoga tushsam nima qipti?» deganda, ko'zlarini katta ochib: «Axir... axir biz o'pishgan edik-ku!» deb xitob qilgani esiga tushib, ko'z yoshi aralash bir jilmayib qo'ydi.

Endi o'ylab qarasa... o'shanda Nilufarga o'ta g'alti, o'ta jo'n tuyulgan uning bu xitobida ham allaqanday soddadillik, gard yuqmagan bir samimiyat bor ekan...

Voy, tavba! Odam degan ham bir yilda shuncha o'zgaridi? U-ku o'zgaripti, o'sipti, bu-chi, eri-chi? Ushanda o'ta ilg'or, o'ta zamonaviy ko'ringan, hatto eng dag'al hazillari, pardasiz gaplari, hayosiz qiliqlari ham yigitlikning eng yaxshi belgilari bo'lib tuyulgan Begimqul-chi?

Begimqul qanday paydo bo'ldi-yu, qachon uning ko'nglini rom qilib oldi – buni Nilufarning o'ziyam bilmasdi. U xuddi oftob charaqlab turganda to'satdan yopirilib kelgan qora bulutday, yozda, hech kim kutmagan bir paytda yoqqan do'lday kutilmagan bir mahalda paydo bo'ldi. Faqat bir narsa esida: texnikumda Hikmatilloning o'rniда patak sochlari hurpaygan bu o'ktam, xushchaqchaq tanti yigit paydo bo'lganida, ilgari kulib yurgan dugonalarigina emas, hatto Nilufarga oshiq kursdosh yigitlar ham to'satdan jimib qolishdi.

Ilgarigi «oyim supurgi», «aravakash», degan pichinglar o'rniغا «champion!», «sambochi!» – degan hayrat aralash vahimali xitoblar eshitiladigan bo'ldi. Nilufarning esida bor: bu xitoblar uning dilida ham hayrat aralash g'urur uyg'otardi... Keyin... keyin Nilufar hushini yig'ib, bamaylixotir o'ylab ko'rishgayam fursati bo'lma-di. Xushchaqchaq, hazilkash champion championchasi-ga ish tutdi. Tanishgan kunidan boshlaboq har kuni uni yo'qlab boradigan, har kuni parklarga, kinolarga, kafelarga boshlab kiradigan, shisha tiqinlarini paqillatib, shampan deganni suvday oqizadigan, uylariga piyoda emas, taksilarda oborib qo'yadigan bo'ldi.

Kafe tugul kinoga taklif qilishga iymanadigan, taksi-

larda belidan quchib o'tirish u yoqda tursin, qo'lidan ushslashga jur'at qilolmaydigan Hikmatillodan keyin Begimqulning bu hatti-harakatlari chinakam mardlik, chinakam yigitlik bo'lib tuyulgandi Nilufarga!

Keyin... keyin Hikmatillo armiyaga ketdi. Ketganiga bir oy ham o'tmadi. Bir kun... Begimqul bilan uchrashish uchun texnikumdan barvaqtroq qaytgan Nilufar davorozalari oldida qator turgan ikkita oq «Volga»ni ko'rdi. Xuddi oq qushlarday hech bir joyiga gard yuqmagan bu oq «Volga»larda Begimqulning otasi yuborgan andijonlik sovchilar kelgandi!

Nilufar oq «Volga»larning qudratini o'shanda, yo'q, sal keyinroq, mahallada ko'tarilgan shov-shuvni eshitganida bildi.

Rost, dadasi bechora «sinamagan toyning sirtmog'iga ilinib qolmaylik, qudalar kim, qanday odamlar, oldin so'rab-surishtirib ko'raylik», dedi. Lekin oyisi...

Oyisi bir mahallar tappa-tuzuk tashkilotlarda rahbarlik qilgan, lekin bir-ikki yil oldin nimadandir qoqilib, popugi pasayib qolgan, shu-shu o'ziyam qiynalib, oddiy muzika o'qituvchisi bo'lib ishlaydigan dadasini ham qiy nab qo'ygan edi. Shuning uchunmi, yo boshqa sababdanmi, eshiklariga qo'sh «Volga»lik sovchilar kelishi oyisining tushkun ruhiga boshqacha ta'sir etdi...

Yo'q, Nilufar aybni oyisiga to'nkasayam bo'ladi. Begimqulning... mardligiga, saxiyligiga, sovchilar kelgan bu oq «Volga»larga oyisidan avval uning o'zi uchmaganmid? To'ydan bir hafta oldin Begimqul Nilufarni shu uyga boshlab kelganida va u jihozga to'la bu xonalarni, yerdagi qip-qizil gilamlar, hali g'ilofdan chiqarilmagan anavi servantlar, xolodilniklar, to'rda turgan rangli televizorlarni ko'rganida yosh boladay sevinib, qimmatbaho buyumlarini qo'llari bilan silab-siypab ko'rмаганми? Xonadan xonaga o'tib, oshxona-yu vannalarga kirib, zavqlanmagan

hayoti haqida o'ylab, betoqat to'lg'anib chiqmaganmidi?

Endi qaysi yuz, qaysi vijdon bilan aybni oyisiga to'nkamoqchi bo'ladi?..

Esida bor, o'shanda, Begimqul uni boshlab kelib, mana shu xonalarni ko'rsatganida, Nilufar kulib:

- Hammasi yaxshi-yu, faqat... qandilingiz yarash-mayapti! - deb kulgan edi. Chindan ham o'shanda meh-monxonaning shiftiga qo'polroq yasalgan uch shamlik jo'ngina mis qandil osilgan edi. Lekin Nilufar bundan ranjigani uchun emas, shunchaki hazillashib aytgan edi. Uning gapiga Begimqul ham hazillashib:

- Sizday sanamga yoqmasa yoqadiganini olamizda, akasi o'rgilsin! - deb javob berdi.

Ertasiga esa birinchi qilgan ishi uni Chilonzordagi eng katta xo'jalik magaziniga boshlab bordi. Magazinda Nilufarga yoqadigan nozik qandil yo'q, hammasi qimmatba-ho billur qandillar yig'ilib qolgan ekan. Begimqul qimmatlarining ichidan eng qimmatini, uch yuz ellik so'mlik katta, beso'naqay, lekin yonganda mayin ko'kimir jilo sochib turadigan mana shu billur qandilni sotib oldi.

Yodida bor, o'shanda Begimqul cho'ntagidan taxi buzilmagan shaldiroq ellik so'mliklarni chiqarib, kassaga to'layotganida Nilufar allaqanday cho'chib:

- Voy, pul fabrikasida ishlaysizmi? - deb so'radi. Uning gapiga Begimqul:

- Mevasini yeng-u, bog'ini surishtirmang, jonidan! - deb kulib qo'ya qoldi. Biroq keyin, og'ir qandilni birga ko'tarib chiqayotganlarida:

- Boboy omon bo'lsinlar! - deb qo'ydi, go'yo Nilufarning dilida shubha qoldirgisi kelmaganady. - Boboy omon bo'lsalar siz bilan biz dard ko'rmaymiz, jonginam!

Begimqulning dadasi Asakadagi katta bir millioner kolxozda bosh buxgalter bo'lib ishlardi. Ko'rinishidan u Begimqulning tamom teskarisi, nimjongina, yuvoshgi-

na, kamgap odam. Lekin bu yuvvosh odamning qo'li yet-maydigan joy yo'q. Toshkentda ham oshna-og'aynilari ko'p. U hammani hayratda qoldiradigan katta to'y qildi, to'y kechasi Nilufarlarning eshigida bitta-ikkita emas, yigirmadan ortiq yangi «Volga»lar saf tortib turdi...

Yo tavba. Yana hamma aybni ularga to'nkayapti! Bosh-da, to'ydan oldin yengiltaklik qilib, Begimqulning tantili-gi-yu, to'y sarpolariga uchib, endi aybni unga to'nkash insofdanmi? Bu xonadonga kelib tushib nima kamchilik ko'rding, nimalarga muhtoj bo'ldingki, endi, to'ydan keyin nog'ora qoqasan? Ich-ichingdan zil ketib, pushaymon chekasan? O'zaybingni birovlarga to'nkamoqchi bo'lasan?

Ha, to'yda ham, to'ydan keyin ham Nilufar hech narsaga muhtoj bo'lindi, xuddi ertaklardagiday hozir ham ko'ngli nimani tusasa hammasi bir zumda mu-hayyo bo'ladi. Hatto boshqalar oylab navbat kutadigan, yozilolmay dog'da qoladigan noyob kitoblar, Nilufar ko'pdan beri orzu qilib yurgan jahon klassiklarining ko'p jildli asarlari ham uning bitta gapi bilan bir kunda paydo bo'ladi, odamlar yillab yig'adigan nodir buyumlar uning istagi bilan bir lahzadayoq yo'qdan bor qilinadi. Buni ko'rgan qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug'lari, bir-ga o'qigan dugonalari unga havas, hatto hasad qilishadi. Nilufar esa... Nilufar esa istagan narsaga qo'li yetadigan, har ishga qodir bu xonadonga kelin bo'lib xato qilganini to'ydan keyin... bir oy o'tmasdanoq tushundi.

To'y kechasi tantanali holatda kaliti qo'lga tekkan bu uyda chindan ham hamma narsa muhayo, hatto an-qoning tuxumi desa topiladi, faqat bir narsa - samimiy gaplashadigan bir do'st, kishi bir nimadan to'lib ketganda o'tirib dardlashadigan bir inson topilmaydi. Ajabo, dard, oddiy insoniy dard o'zi yo'q bu uyda!

To'y bo'lganiga sal kam bir yil bo'pti-yu, har kuni bir xil gap, bir xil qiliq, bir xil hazil-mutoyiba.

- Qalay, palovxon to'ra gatopmi, jonginam? Gatop bo'lsa shampanxondi oling, ko'pirtirib bitta olaylik! Yo besh yulduzligidan qittay-qittay qilib gijinglashamizmi, akasi jonidan?

Xo'p deya qoling, o'rgilay! Hozir «Rohat»ni qo'yib yuboraman, bir ho'plam olib, haligi... akangiz yaxshi ko'radigan novvot rang ich ko'ylakti kiyib, bitta qilpillab bersalar toabad qullari bo'lamic, labbay? Ha, yoqmay o'lsin! Saryog'dek yoqib turipti-yu, yana qovoq-tum-shuq qiladilar! Xa-xa-xa..

Qiziq, ilgari, to'ydan oldin ham Begimqulning gapso'zlari shampanxon to'ra bilan kurash uslublaridan nariqa o'tmas edi, lekin u paytlarda Begimqulning bu hazil-mutoyibalari bilan dag'alroq qiliqlari dilidagi nozik tuyg'ularni oshkora qilishni istamaydigan zamonaviy yigitlarning soxta qo'rsligi bo'lib ko'rinaridi, Nilufarga... Hayhot! Nilufar kutgan nozik tuyg'ulardan asar ham yo'q ekan unda!.. Nozik tuyg'u tugul sambo, championlik unvonini saqlab qolish istagi – hammasini yig'ishtirib qo'ydi. Zotan, shampanxon to'radan boshqa istak qolmadi unda.

Nilufar miyasi g'ovlab ketayotganini sezib, sanchib og'igan chakka tomirlarini siladi, bir nuqtaga tikilib, uzoq o'tirdi. U o'ylayotgan o'ylarining butun adolatsizligini tushunar, erini emas, o'zini ayblashi kerakligini sezar, biroq alamli o'ylar girdobidan chiqolmas edi. Qanday chiqsin, axir...

So'nggi paytlarda Begimqul yana bir qiliq chiqardi: har kuni bo'lmasa ham, haftada bir- ikki marta navbat-siz gaz olish payida yurganlar ziyofatini yeb keladigan bo'ldi. Bu ziyofatlardan u doim shirakayf bo'lib, o'z iborasini bilan aytganda, «gijinglab» kelar, har safar magnitofon qo'yar, Nilufar uyda kitob o'qib o'tirgan bo'lsa kitobini, boshqa ish bilan band bo'lsa ishini qo'lidan olib, darhol o'yinga tushirar: «Qo'ying shu kitob-pitobingizni!

Davr kelibdi o'ynab qolaylik-da, bu besh kunlik dun-yoda, akasi jonidan!» deb, uyni boshiga ko'tarib kular, o'ziyam raqsga tushib, «jinnilik»lar qilardi. Eng dahshat-lisi - bunday paytlarda Nilufar istasin-istamasin erining aytganini qilishga majbur bo'lar, u kulsa kular, o'yna desa o'ynar, chunki «gijinglab» qaytgan kunlari uning ayt-gani-aytgan, degani-degan bo'lmosg'i kerak, aks holda ha-zillari qahrga, yolg'on jinniligi chin jinnilikka aylanar edi!..

Ha, endi o'ylab qarasa Nilufar eriga bir og'iz gap qay-tarolmaydigan, u nima demasin hammasiga, hatto eng tuban istaklari, bachkanaliklari, jinniliklariga ham lom-mim deyolmaydigan bir bechoraga aylanib qolibdi! Nilu-far buni allaqachon sezar, sezib ich-ichidan ezilib yurar, biroq, hech kimga bildirmay, dardini ichiga yutib kelardi. U o'zining qanchalik g'arib, qanchalik ayanchli ahvolga tushib qolganini faqat bugun, to'qson so'm emas, to'qqiz yuz so'm topib berishga qodir erining Hikmatilloga qil-gan pastligini ko'rgandagina bildi, bu tubanlikni ko'rib turib, bir og'iz bir nima deyolmagandagina tushundi...

Yo tavba! Zebi-ziynat haqida yo birorta qimmatbaho buyum haqida gap ketganda pulning yuziga qaramay-digan erining bunchalik xasisligini ham Nilufar bugun ko'rди, ko'rди-yu, bir og'iz e'tiroz bildirishga, «Sizdan boshqa kimga boradi bu bechora, yordam berib yubo-ring!» deyishga qurbi yetmadi! Erining ko'ngliga boshqa narsa kelishidan, rashk qilishidan qo'rqiб, og'iz ochol-madi!.. Erining inson sha'niga nomunosib bu ishi, bu x-a-sisligidan vujud-vujudigacha qaqshab, dod deb yuboray desa-yu, bir og'iz bir nima deyolmasa!.. Bundan ortiq xorlik, bundan ortiq g'ariblik bormi?

Bechora Hikmatillo! U nima qildiykin? Qarz so'rab kimga bordiykin?..

Yo'q, u bechora emas! Yigit kishi bir yo'lini topgandir. Bechora deb uni, Nilufarni aytsa bo'ladi!

Nachora, Nilufar hayotda qanchalik yanglishgani ni boyaga Hikmatilloni ko'rgandagina, uning bolalarcha samimiyat bilan javdirab turgan ko'zlariga ko'zi tushgandagina tushundi, tushundi-yu, yuragida ko'tarilgan to'fonni zo'rg'a bosib oldi. Keyin, Hikmatilloda ham qandaydir o'zgarish ro'y berganini, u ham to'satdan ma'yuslanib, indamay qolganini sezganida esa yodidan chiqqan esdaliklar qaytadan yopirilib kelib, bir zumda issiq ko'z yoshiga aylandi-yu, tomog'ini g'ip bo'g'ib oldi. Ha, boyaga ovqat pishirib, uyga kirib-chiqib yurgan, hatto Hikmatillo bilan gaplashishga urinib ko'rgan Nilufar burungi Nilufar emas, uning soyasi edi, xolos...

Haqiqatan, u burungi Nilufarning, qizlik chog'larida butun bir texnikum yigitlari shaydo bo'lgan, ham shaddod, ham muloyim, samimiylargacha samimiy, dag'allarga dag'al bo'la oladigan mag'rur Nilufarning quruq bir soyasi, qudratli ho'jayinining tilsiz bir cho'risi! Aks holda, boyaga erini insofga chaqirmsmidtisi? Eri odamgarchilik qilishni istamagan bo'lsa, uning o'zida ham pul bor edi-ku. Xuddi mehmonxonadagiday yana bir qandil olasan deb, bir hafta oldin eri bergen uch yuz ellik so'm pul shkafda turgan edi-ku? Shu pulni erining esiga solsa bo'lmasmidtisi?

Shkafdagagi pul esiga tushishi bilan Nilufar o'rnidan sakrab turdi-yu, yugorganicha yotoqxonaga chiqdi. Xonada hamon to'shaklar yig'ilmagan, shkafdagagi kiyimlar yerga sochilgan, hamma yoq alg'ov-dalg'ov bo'lib yotardi. Lekin Nilufar bunga e'tibor ham bermadi, u shkafning pastki qujisini sharaqlatib ochib, taxlab qo'yilgan mayda-chuydalarini titkilab ketdi. Ha, bir kiyim atlasning orasiga qo'ygan uch yuz ellik so'm pul qanday qo'ygan bo'lsa shunday turardi.

Nilufar pulni olib sumkasiga soldi, so'ng negadir naqshinkor yog'och qutichani ochib, zebi-ziynatlarini titkilay ketdi! Lekin shu payt eshik taraqlab ochilganini eshitib, cho'chib o'rnidan turdi.

- Sho'ttamisan, Nilu?

Ostonada paydo bo'lgan Begimqul bir Nilufarga, bir betartib sochilib yotgan buyumlarga qaradi.

- Nima qilyapsan?

- Shu... o'zim... - dedi Nilufar.

- Bularni qo'yib tur, jonginam. Mehmon keldi. Kutib ol!

- Qanaqa mehmon?

- Bosh injenerimiz! - Begimqul ko'zini g'alati qisib jilmaydi. - Dalaga birga chiqmoqchi edig-u, chiqmaganimizdan keyin... uyga taklif qildim. Sen bilan tanishmoqchi...

- Men bilan tanishib nima qiladi?

- Qiziqmisan? Men o'zim aytdim. Xotinim bilan tanishib qo'ying, bordi-keldi qilaylik, dedim! - Begimqul unga qandaydir yopishmagan bir xushomadgo'ylik bilan yana ishshaydi. - Uyda hamma narsa gatopmi?

U gapini tugatmagan ham edi, tashqi eshik tiqirlab:

- Mumkinmi? - degan ovoz eshitildi.

- Ana, keldilar. Bo'la qol, jonginam! - Begimqul yana ko'zini qisib kuldi-da, eshikni yopdi. - E-e... kelsinlar, kelsinlar. Qadamlariga hasanot! Yo'q, yo'q, yechmang-yechmang. Mana, latta! Artib o'tavering! Qani, marhamat...

- Xo'jayka ko'rinxaydilar?

- Xo'jayka... xotinlarni bilasiz-ku: pardoz-andoz, yasan-tusan, xa-xa-xa... Qani, bu yoqqa...

Nilufar birdan yuragi gurs-gurs urib eshikni tovushsizgina ochdi, dahlizda hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilgach, yuragi qinidan chiqqudek bo'lib, o'zini ohista tashqariga oldi...

## 6

Aya eshikda paydo bo'lgan Hikmatilloni ko'rib, ang-rayib qoldi.

- Senga nima bo'ldi, bolajonim? Tinchlikmi?

- Chamadonim qani, aya?..

- Kenjatoyning uyida. Nima qildi? Tinchlikmi o'zi?

- Tinchlik, aya, tinchlik.

Hikmatillo kenjatoyning xonasiga kirib, chamadonni karavot tagidan sug'urib oldi.

Chamadonning qulfi yo'q, qoq belidan yo'g'on tasma bilan chandib qo'yilgan edi. Hikmatillo tasmani yechib, chamadonni ochdi, olma-anor ustiga taxlangan kiyim-kechaklarini titib, cho'ntaklarini kovlab chiqdi. Pul yo'q, bo'lishi ham mumkin emas edi!

Aya uning qo'lidan ushladi.

- Hoy, og'zingga talqon soldingmi, so'yloq! Aytsang-chi!

- Yo'q, shunchaki... bir narsani qidirdim, ayajon...

- Rangingda rang yo'q... Ayajoningdan yashirmay qo'ya qol, aylanib ketay!..

Hikmatillo chamadonni yopib, o'rnidan turdi, xijolat chekib peshonasini ishqadi.

- Yo'l kira pulimni yo'qotib qo'yibman, aya...

Ayaning serajin yuzidagi, kirtaygan ko'zlaridagi saro sima norozilik bilan almashdi.

- Nima bo'pti debman-a? Joning omonmi ishqilib?

Necha pul edi, bo'tam?

- To'qson so'm...

- To'qson ming emas, to'qson so'm ekan-ku! O'takam-ni yorib yubording-a, bolam!

Hikmatillonning lablariga alamlı tabassum yugurdi.

- To'qson so'mga alam qilyatgani yo'q, ayajon. Yo'l kirasisiz qoldim, shunga hayronman.

- Ha-ya! - dedi kampir. - Boshqa puling yo'qmi?

- Bir tiyinim ham yo'q...

- Endi nima qilasan?

- Shunga boshim qotib turipti-da...

- Unda qiyin bo'pti, - dedi kampir. - Nima qilasan? Yo uyingga borib kelasanmi?

- Vaqt bo'lsa-ku, borib kelardim-a? Ertaga xizmat joyimga yetib borishim kerak...

Hayronman... Kampir birdan toliqib qolganday, kara-votga o'tirdi, ham kuyingan, ham jerkkan tovushda:

- Tuyadek yigit! - dedi. - Sallot! Kissangdagi pulingni yo'qotib o'tirsang... Uyat emasmi? Gaz quvurga saqlab yur-gan biri kam yetmish so'm pulim bor edi, ola qol shuni...

- Siz nima qilasiz?

- Yetim qo'zichoqday ko'zing mo'l tirab tursa... men nima qilay? - dedi aya, yana jerkinqirab.

- Bir yil gaz yoqmasam, cho'yan pech yoqarman! Ko'chada qolganim yo'q, qo'ni-qo'shni, el-yurt bor, bir gap bo'lar axir, yur!..

Aya kuymalanib, narigi xonaga chiqdi. Bu xona hali ganch suvoq ham qilinmagan, faqat tagiga pol, shiftiga chiy qoqilgan, endigina somon suvoqdan chiqqan edi.

Aya taxmondagi sandiqqa yig'ilgan ko'rpalarga imo qildi: «Olishvor!»

Hikmatillo ko'rpalarni bir chekkaga olib taxlagach, sandiqni ko'rsatdi - «buniyam ko'tar!»

Sandiqning osti taxta bilan yopilgan o'racha ekan. Kampir taxtani surib, o'rachadan yumaloqqina xo'qa-loqcha, xo'qaloqchadan kichikroq bo'g'cha, bo'g'chadan mittigina tuguncha olib, uni tishi bilan yecha boshladи. Tugunchadan bir dasta besh so'mlik, uch so'mlik, bir so'mliklar chiqdi.

Hammasi g'ijimlangan, ezilgan, lekin silab-siypab, bitta-bitta qilib taxlangan edi.

- Ma, bir kam yetmish so'm. Sanab ol, aylanib ketay...

Hikmatillonning esiga Begimqulning gapi tushdi: «Sandiqdagi yuz so'lkavoylarni chiqarsin, shu bugunoq yoqib beraman gazni!»

Hikmatillonning tomog'ini bir narsa g'ippa bo'qqan-day bo'lib bir zum jim turib qoldi.

– Ayajon. Ertaga yetib borishim bilanoq pochtadan jo'nataman. Yuz so'm qilib qaytaraman, ayajon!..

– Qayoqdagi gaplarni gapirma! – dedi kampir, o'ranchaning og'zini yoparkan. – Bir oyog'im yerda, bir oyog'im go'rda turganda sening haqingni nima qilay? O'z pulimni qaytarib bersang bo'ldi! Qani, sandiqni joyiga qo'yib, ko'rpalarni yig', ilgarigi quvvat yo'q ayangda. Ishqilib, o'zingga insof bersin...

«Ayajon! Haqingiz manda ketmaydi. Sizdan ko'p yaxshiliklar ko'rganman. Bu yaxshiliklaringizni to abad unutmayman».

Hikmatillo qalbidan qaynab chiqqan bu gaplarni aytgisi kelar, lekin tomog'iga tiqilgan allanima tobora qatiqroq bo'g'moqda edi...

U so'nggi ko'rpani taxmonga otdi-da, jadallab uydan chiqdi, chiqarkan, ayaning:

– Hoy, so'yloq, – deganini eshitdi. – Biletingni olgin-da, hayallamay qaytib kel. Bir siqimgina osh qilib qo'yaman, aynanib ketay...

Hikmatillo javob bermadi. U ayvondan tushayotganda «AGV» uchun qurilgan uychaga ko'zi tushdi, uychanning hali eshigi yo'q, ichkarida yashil rang «AGV» ko'rinib turar, garchi gaz pechkaning quvuri o'rnatilmagan bo'lsa ham, uychaning tepasi shifer bilan yopilgan edi...

«Vaqt bo'lganda... quvurkon o'rnatib, kampirning ishini bitirib berganda-ku, ko'p savob ish bo'lardi-ya! – dedi Hikmatillo ichida. – Lekin... vaqt topilgandayam... azbest truba bilan uning dardisar homutini qayoqdan topadi?».

Hikmatillo kechi bilan indinga ertalab o'z qismida bo'lishi kerak. Agar ertaga ertalabki samolyotga bilet olsa, tushda Novosibirskka yetib boradi, u yog'i elektrichkada bir soat-bir yarim soatlik yo'l, undan u yog'iga yo harbiy qismlar, yo lespromkombinatning mashinasini

ga o'tiradi-yu, kechqurun o'z qismida bo'ladi. Agar kechqurunga samolyotda uchsa... Novosibirskka tong payti boradi, ertalabgacha elektrichka kutadi, undan u yog'iga mashina duch kela qolsa nur ustiga nur, kelmasa... bir oz kechikishiyam mumkin...

Hikmatillo buning hammasini yo'lga chiqmasdanoq rejalab qo'ygan edi. Lekin endi, kampirning muomalasi dan keyin, ikkilanib qoldi. Albatta, u borgan zahoti pulni yuboradi.

Oddiy pochta orqali emas, telegraf bilan yuboradi. Kampir uch-to'rt kunda bu pulni oladi.

Lekin gap pulda emas! Kampirning yaxshiligiga yara-sha bir yaxshilik qilmog'i kerak! Balki pulni olganda ham quvurni o'rnatolmay, kuni yana cho'yan pechkaga qolar! Ilgarigi quvvati qolmagan ayajoni yana uzun qish azob chekib chiqar!.. Bir yo'lini topib, ayaning ishini bitirib berishi kerak. Shu arzimagan ishni udda qilolmasa, u nima degan odam, nima degan yigit, nima degan soldat bo'ldi?

Haqiqatan, agar u biletni ertaga kechqurungi samolyotga olsa nima bo'ladi? Kechasi Novosibirskka yetib boradi. Ertalab soat beshda elektrichka yura boshlaydi. Elektrichkadan naryog'i ellik-oltmischa qaqirim yo'l... Birorta mashina topilib qolar axir?.. Lekin ertaga kechqurunga qolgandayam azbest quvur bilan boshqa mayda-chuydalarni qayoqdan topadi? To'xta, agar u ertaga qolib barvaqtroq Begimqulga borsa, pul masalasida nomardlik qilgan odam, nahot bitta azbest quvur topib bermasa?

Yo'q, Begimqulning uyini endi yelkasining chuquri ko'radi! Lekin, nima bo'lgandayam, ayaning ishini bir yoqlik qilishi kerak! Shart!

«AGV» pechkasiga ko'zi tushganda ko'ngliga kelgan bu gap, aeroflot kassasiga yetguncha qat'iy qarorga aylandi.

Lekin kassaga borganida yangi muammo tug'ildi: ertaga kechqurun to'g'ri Novosibirskka uchadigan sa-

molyot yo'q, faqat Toshkent-Irkutsk samolyoti Novosibirskka qo'nib o'tar ekan.

Hikmatillo tavakkal qilib biletni shu samolyotga oldi-da, ko'chaga chiqdi.

Oftob charaqlab turar, kun iliq, hatto bir oz issiq, hali bayram libosini yig'ishtirmagan ko'chalar, xiyobonlar, maydonlarda erkaklar bitta kostum, ayollar yengil jem-perlarda yurishar, odamlarning rang-barang kiyimlari bayramga bezatilgan shahar ko'chalarining tiniq bo'yoqlariga qo'shilib, ko'zni qamashtirar edi...

Hikmatillo piyoda yurib, «Rossiya» mehmonxonasi yonidan havo rang gumbazlar xiyoboniga, undan Qizil maydonga o'tdi. So'nggi yillarda Toshkent chindan ham ochilib ketgan, o'ziga xos bir ko'rк, kenglik, ulug'vorlik kasb etgan edi.

Xuddi sharsharaday shovullagan ulkan favvora va uning marmar sarhovuzi atrofida suratga tushishga kelgan, oppoq ko'ylak kiyib, yuzlariga harir ipak narda tutgan bo'lg'usi kelinchaklar va ularni yetaklab olgan qora libosli yigitlar, yangalari, yor-do'stlari qurshovida to'pto'p bo'lib yurishar, ipak so'zanalar yopilib, gullar bilan bezalgan yangi «Volga»lar qatorlashib turardi...

Bo'lg'usi kelinlarga xos iffat bilan boshlarini xiyol egib, bir-bir bosib borayotgan bu qizlarni, yangi chust do'ppilarini peshanalariga qiya qo'ndirib, qayliqlarini avaylabgina qo'ltiqlab olgan yosh kuyovlarni ko'rganida yana Nilufar esiga tushib, yuragi zirqirab ketdi.

Yo'q, yana emas, Begimqulning uyidan chiqqanidan beri, Nilufar bir minut ham ko'z oldidan ketmadi. Bir minut ham! Eng yomoni – bugun Nilufarni ko'rganda anglagan haqiqat qayta-qayta esiga tushib, uni tinimsiz ezmoqda edi. Ha, yuragini allaqanday pinhoniy dard kemirgan bu g'amgin juvon u bilgan va negadir yengiltak deb o'ylagan Nilufar emas, bu tamom boshqa, unsiz

iztirob chekayotgan pok, samimiyl, go'zal bir ayol edi. Yo shu bir yil ichida Nilufarning hayotida mudhish bir voqearo'y bergen, nimadir uni sindirib, insogfa keltirgan, yoxud u boshdayoq shunday pok, oq ko'ngil bo'lgan-u, Hikmatillo buning qadriga yetmagan, kaltabinlik va rashk tuyg'usi ko'zini bog'lab, qizning nozik qalbini ko'rolmay qolgan!

Hikmatillo horg'in odimlab, Qizil maydonga chiqdi, undan Gagarin parkiga o'tmoqchi edi, lekin bu parkda Nilufar bilan birga yurgan xiyobonlari, o'tirgan skameykalari, qo'l ushlashib kezgan anhor bo'ylarini ko'rsa bat tar ezilishini o'yadi-yu, ikkilanib to'xtadi.

Haqiqatan, endi bu iztiroblardan foyda yo'q, vujudini qaqqhatgan bu tizginsiz g'amni jilovlay bilmoq, nima bilandir ovunmoq kerak! Ha, aytmoqchi, ayaning quvurkonи turipti-ku!

Shu ishni bitirib, ayaning mushkulini yengil qilib ketmoq kerak! Lekin azbest quvurni qayoqdan oladi? Begimqul yordam berishi mumkin edi, biroq... Yo'q, Hikmatillo endi unikiga bormaydi, pulini oldirib arosatda qolgan hamqishloq do'stiga to'qson so'm qarz berib turishni lozim topmagan bu nokasni ko'rishniyam istamaydi u!

To'satdan, Hikmatillo texnikumni eslab qoldi. Balki u bilan o'qigan yigitlardan birortasi uchrab qolar. Yigitlar, odatda, yozgi ta'til paytlarida qurilishlarda ishlashadi.

Balki ulardan bir maslahat chiqar?..

Hikmatillo orqasiga qaytib, tramvay bekatiga o'tdi. U to'g'ri yotoqqa bordi. Lekin dam olish kuni bo'lgani uchunmi, kursdoshlari u yoqda tursin, birorta tanish student ham uchramadi.

Hikmatillo hech qachon yotoqda yotmagani uchun, hech kim uni, u ham hech kimni tanimadi.

Yotoqdagilar undan: «Qarindoshingiz bormi? Kimni qidirib yuribsiz, soldat?» deb so'rashar, u esa nima deb javob berishini bilmas edi.

Aya bir siqimgina osh qilib, kutib o'tiradigan vaqt yaqinlashmoqda edi. Hikmatillo avtobusga chiqdi, Agar quvur topilmasa, u kampirning oshini yeb, Sverdlov teatrida bo'ladigan «Katta konsert»ga tushishga ahd qildi. Uzoqda yurib, o'zbek raqsini, qo'shiqni, muzikani juda sog'ingan edi.

Avtobus Oqtepaga yaqinlashib, Hikmatillo tushishga hozirlanayotgan edi, kimdir nogahon yelkasiga qo'lini qo'ydi.

– Hikmatmisan, og'ayni?

Hikmatillo o'girilib qaradi: shundoq oldida egnida ohak yuqqan ishchi jomakori, qo'lida andava bilan bolg'acha solingen eski sumka, burni puchuq, pakanagina bir yigitcha, xuddi armiyadan qaytgan o'z akasini ko'rganday, xushnud jilmayib turardi. Hikmatillo uni qayerdadir ko'rgan, bu miqti, pakana yigit boshqa grup-pada bo'lsa ham, shubhasiz texnikumda birga o'qigan, lekin xotirani qarang, ismi yodidan ko'tarilgan edi!

– Otpuskaga keldingmi, og'ayni?

– Otpuskaga...

– Bo'ydan Xudo beribdi! Jaa... jirafa bo'p ketibsan!..

– O'zing qalaysan? O'qishlar tugadimi?

– Qayoqda? Hali bir yil bor-ku! Ketganingga bir yil bo'ldimi, axir? – kului puchuq yigit. – Yo qancha yil xizmat qilganing yodingdan ko'tarildimi?

– Yo'q... – Hikmatillo uning ismini eslashga urinib, peshanasini tirishtirdi, lekin eslay olmadi. – Ishdan kelaysanmi? Bugun dam olish emasmi?

– Quruvchiga dam olish bormi? Mardikorlik qilib yuribman!

– Yozdayam ishladilaringmi?

– Bo'lmasam-chi! Gosbanka qurdik, og'ayni. Pul ko'payadi endi!

– Qanaqa qilib?

– Yangi gosbank qurgandan keyin pul ko'payishi kerakmi, axir? Yo bankaga shaftoli qoqi solishadimi?

Hikmatillo bu hazilkash yigitchaning puchuq bo'lsa ham, allaqanday yoqimtoy chehrasiga qarab turib, esiga yana quvur tushdi.

– Menga qara, do'stim, men ertaga ketyapman. Shunga... zarur bir ish chiqib qoldi. Bitta... ammam bor edi. Eri frontda o'lib ketgan, beva, hech kimi yo'q. Shuning gazini to'g'rilib berish kerak edi. Bitta azbest quvur kerak bo'p qoldi. Iloji bo'lsa xomuti bilan. Yordam berolmaysanmi, do'stim?..

Puchuq yigit sumkasini o'rindiqqa qo'yib, bo'ynini qashidi.

– Azbest quvur... bittasi yetadimi?

– Bilmadim... uzunligi necha metr bo'ladi o'zi?

– «AGV» gami axir? Podvalda emasmi?

– Yo'q, hovlida. Alovida uychasi bor.

– Unda bittasiyam yetib ortadi!

– Xomut deganiyam bo'lsa...

– Yo'q, quvurni topsa bo'ladi-yu, xomuti yo'q... Lekin xomutni nima qilasan? Xomut yog'och to'singa truba tegmasin, deb quvurga kiydiriladi. Uning o'rniga temir ishlatsang ham bo'laveradi. Ikkita temirni to'singa qo'qib, orasiga quvurni qo'yasan-u, yana ikkita temir bilan qisib, sim bilan qotirib bog'laysan, vassalom!

– Pojarniklar qildan qiyiq qidirishmasmikan?

– Tavba! – dedi puchuq yigitcha. – Qurilish texnikumida o'qiganmisan o'zi? Hammasi qonuniy bo'lsa pojarniklarning nima haqi bor bir nima deyishga?

– Xo'p. Quvur topishga yordam berasanmi, xullas kamom??

Pakana yigitcha puchuq burnini ishqab:

– Yarimta bo'lsa-ku, topiladi-ya! – dedi. – Ammo yo'lkarasiyam bor-da, og'ayni!

- Yo'lkirasi necha pul bo'ladi?
- Kamida o'n so'm.
- Iye! – dedi Hikmatillo. – Quvur yarimtaga topilsa-yu, opkelish o'n so'm bo'lsa.
  - Hozir ishlar shunaqa! – pakana yigitcha munchoq ko'zlarini mug'ombirona o'ynatdi. – Eshagidan tushovi qimmat. Shofyor zoti o'n so'mdan kamiga yurmaydi. Bit-ta truba bo'lsayam o'n so'm, yuztasigayam o'n so'm!
  - Bo'pti, mana! – Hikmatillo cho'ntagini kovlashtirib, to'rt so'm chiqarib berdi. -Yarimtaning puli. Kira haqini oborganda olasan. Lekin ertalab soat to'qqizga yetkazib berasan!
  - To'qqizga va'da berolmayman-u, to'qqiz yarimga yest qilaman. Adresni cho'z!
- Hikmatillo adresni aytgan edi, "puchuq yigitcha boshini liqillatdi.
  - E, bilaman, bilaman. Bu ko'chadayam bittasining uyini bo'r suvoqdan chiqarib bergenman.
  - Ertalab gatop qilamiz, og'ayni!
  - ... Hikmatillo qaytib borganda aya «do'ppidekki-na» osh damlab, ayvonga joy solib, kutib o'tirgan ekan, o'choqqa qarab pildiradi. Hikmatillo ayani to'xtatib:
    - Uyda qolgan-qutgan temir topiladimi? – deb so'radi. Aya hayron bo'lib o'choq yonida to'xtadi:
    - Qanaqa temir, aynanib ketay? Batareyadan bitta truba yotuvdi... nimagaydi, so'yloqjon?
    - Ertaga quvurkon yasab beraman. Qani, trubangizni ko'rsating!
  - Kampir aytgan gaz truba hovlining oxirida zang bosib yotar, uni kamida to'rtga bo'lish kerak edi. Hikmatillo po'lat arra topib keling deb, ayani qo'shnilarni kiga chiqarib yubordi-da, o'zi kenjatoyning eski kiyimlarini kiyib, ishga kirishdi: «AGV» uchun qurilgan uychaning shiferini ko'tarib, to'sinlarining orasini o'lchab

ko'rdi. Boyagi puchuq yigit haq - quvurga xomut kiydirish shart emas, uni temir bilan mustahkamlasa ham bo'laveradi.

Bir siqimgina osh yeyilib bo'lgach, Hikmatillo aya topib kelgan arra bilan temir trubani arralashga kirishi. Kampir uning atrofida parvona - goh choy damlab kelar, goh ishga yordamlashaman, deb unga xalaqit berar, dam quvonar, dam «pojarniy bor bo'lgur ispravka berarmikin» deb, tashvishga tushar edi.

- Ko'p tashvishlanavermang, aya, - dedi Hikmatillo. - Spravkasiyam to'g'ri bo'ladi.

Begimqul esingizdam?

- Qo'y, o'sha ayiqpolvonni gapirma! - aya serajin yuzini teskari burdi. - Uyimda yaxshi-yomon bir-ikki yil turgan edi-ku, esida bordir deb, bir safar yo'qlab bordim. Shunaqa-shunaqa, umid bilan gaz o'tkazuvdim, qariganimda qolgan besh kunim tinchroq o'tsin, desam... «aya, gaz yoqaman desangiz, xumga ko'mgan oltinlaringizdan op keling» deb, hirinlab kulta bo'ladimi.

Voy tilginingga chipqon chiqsin buving tengi kampirga uyalmay shu gapni aytgan! Oltinim bo'lsa, yurarmidim sochim oqarganda qorovullik qilib, dedim ichimda! Bir o'yim, kattalarga kirib aytay dedim-u, ke, qo'y, oshimni oshab, yoshimni yashab bo'lganimda... chaqimchilik qilib yuramanmi dedim, bo'tam...

Kampirning gapi Hikmatilloga yana boyagi voqealar ni eslatdi-yu, qo'lidan arrasi tushib, o'rnidan turib ketdi. U ertaga Begimqulga borishga, borib ko'nglidagi hamma gapni yuziga shartta-shartta aytishga ahd qildi.

Hikmatillo hovlini bir aylanib kelib, yana ishga kirishi. U ertaga Begimqulga aytadigan gaplarini o'ylarkan, temir qirqayotgan arraning harakati tezlashar, qoni jo'shib, yuragi gurs-gurs urardi.

Arra o'tkir bo'lsa ham, temir trubani qirqish oson

emas edi. Payvand qilinsa birpaslik ish, anchaga cho'zil-di-yu, konsert vaqtি ham o'tib ketdi. Bu orada, ertalab dikanglashib, gimnastika qilgan qizlar o'qishdan kelishdi. Ulardan xabar olgani ketgan aya zum o'tmay, qaytib keldi:

- Seni bir qiz yo'qlayapti, so'yloq!
- Qanaqa qiz?
- Tanimasam! - dedi kampir. - Ishqilib, qiz bo'lsa... bekning qizi, xotin bo'lsa poshshoning xotini.
- Poshshoning xotini bizday fuqaroni boshiga uradimi?
- Bilmasam endi, qidirib kepti-yu, aynanib ketay!..

Hikmatillo shosha-pisha qo'lini artdi-da, allaqan-day ichki bir sezgidan yuragi uvishib, tashqariga chiqdi. Ko'chada, darvoza oldidagi olcha tagida... Nilufar turar, nariroqda och yashil taksi ko'rinaridi. Egnida yangicha tikilan kalta xonatlas ko'ylak va oq momiq jemper, oyog'ida to'ng'iz tumshuq, poshnasi baland tuqli, qo'lida tilla halqali qizil charm sumka, Nilufar boshini bir to-monga sal egib, olcha yaproqlarini o'ynab turardi...

Hikmatillo vujudidan o't chiqib ketganday bo'lib, eshikda to'xtadi.

- Nilufar?!
- Ajablanyapsizmi? - Nilufar qizarib kuldi-da, olcha tagidan chiqdi. - Boya... to'satdan bo'lganiga... shoshib qopmiz. Shunga haligi... so'ragan pulingizni opkeldim... - Nilufar itoatsiz barmoqlari bilan qizil charm sumkasini ochdi-da, negadir qo'llari qaltirab, do'ppaygan konvert oldi.
- Yuz so'm, Hikmat aka...
- Bekor ovora bo'psiz...
- Ovorasi yo'q... Iltimos qilaman, oling, Hikmat aka!
- Nilufar qo'lini cho'zganicha bir qadam oldinga yurdi, ovozi titrab, duduqlanib gapirdi. - Ko'nglingizga hech narsa kelmasin.

Boya... Siz ketgandan keyin o'ylab qarasak... Juda

xunuk ish bo'pti... Mayli, qachon desangiz shunda qaytararsiz...

Hikmatilloning qalbida bir-birida zid ikki tuyg'u oli-shardi, biri qandaydir iztirob to'la minnatdorlik, biri xudbinlik aralash shodlik!

Nilufarning, bundan bir yil muqaddam uni haqora-tomuz gaplar bilan rad etgan bu go'zal sanamning endi yalinganday bo'lib kelishi Hikmatilloning izzat-nafsi qitiqlamoqda, bir mahallar poymol bo'lgan yigitlik g'ururiga taskin bermoqda edi. Ayni zamonda uning yuziga qarash-gayam jur'at etolmay, yerga tikilib turgan bu juvonning ho-zirgi ruhiyati yuragini zirqiratmoqda, u Nilufarning holiga tushunib turar, lekin u cho'zgan pulni ololmas edi!

– Yo'q, rost aytaman, Nilufarxon, men pul topdim, mana, biletniyam oldim... – Hikmatillo shoshqaloqlik bilan ko'krak cho'ntaklarini paypasladi va shundagina kenjatoyning eski, kir-chir kiyimida ekani esiga tushib, qizarib ketdi. – Rahmat, Nilufarxon, lekin men bu pulni... rahmat!..

Nilufarning boshi pastroq egildi.

– Ha, ha, albatta-albatta. Keragi yo'q... – u «qult» etib yutindi. – Kechirasiz...

Nilufar lablari pirpirab, sekin burildi-da, olisroqda turgan yashil «Volga»ga qarab ketdi. U oldin boshini ko'tarmasdan bir-bir bosib bordi, keyin nimagadir qo-qilib ketib, sim yog'ochni ushlab qoldi-da, yuzini qo'llari bilan bosganicha yugurib ketdi. Hikmatilloga u go'yo o'kirib yig'lab yuborganday tuyuldi-yu, beixtiyor mashi-na tomon talpinib:

– Nilufar! – deb qichqirdi.

Nilufar uning chaqirganini eshitmadimi, yo eshitsa ham o'zini eshitmaganlikka oldimi, Hikmatillo buni bilolmay qoldi. Eshigi qarsillab yopilgan «Volga» shitob bilan joyidan qo'zg'aldi. Hikmatillo g'ildiraklar tagidan

ko'tarilgan changga tikilganicha ko'chaning o'rtasida serrayib qoldi.

## 7

Begimqul jahl bilan eshikni ochdi, ochdi-yu, lol bo'lib qoldi: Nilufar yo'q edi! Hozirgina shkaf oldida qizil charm sumkasini ushlab turgan Nilufar qayoqqadir gumdon bo'lган, xuddi uyga o'g'ri kirganday hamma yoq o'stin-ustin bo'lib yotardi.

Begimqul hayron bo'lib oshxonaga chiqdi, vannaga qaradi, hatto taraq-turuq qilib, devor shkaflarini ochib ko'rdi – Nilufar xuddi suvga cho'kkан toshday nom-nishonsiz yo'qolgan edi.

Mehmonxonadan bosh injenerning ovozi keldi:

– Nima bo'lyapti o'zi, og'ayni?

– Hech gap! Xotin... qo'shnilarinikiga chiqib ketganga o'xshaydi...

– Nima balo, arazlashib qoldilaringmi? – dedi bosh injener. – Yo bizni yoqtirmay juftakni rostlab qoldilarmi kelin poshsha?

– Yo'g'-e, nega yoqtirmas ekan! Men hozir qo'shnilarinikiga qaray...

– Yo'q-yo'q, ovora bo'lman. Bizga ruxsat berasiz, boradigan joylarim bor, – dedi bosh injener, lekin Begimqul uning gapiga quloq solmay, uydan chiqdi.

Nilufarni yon qo'shninikiga, keyin aptekaga kirib surishtirdi. Nilufar qo'shninikidayam, aptekadayam yo'q edi!

Begimqul yomon bir shubhadan ko'ngli orqaga tortib, ko'chaga chiqdi. U bir o'yi mashina to'xtatib, qaynotasinikiga borib kelmoqchiyam bo'ldi-yu, mehmonxona da qolgan bosh injener esiga tushib, orqaga qaytdi. Le-

kin u zinadan chiqayotganida tepadan tushib kelayotgan bosh injener ko'rindi.

- E-e, nega qo'zg'aldingiz?

Bosh injener, yoshgina, xushbichim yigit, pillapoyada to'xtab:

- Xo'sh, kelin topildimi o'zi? - deb kului.

- Topilmay qayoqqa ketardi? Do'kon-po'konga chiqqanga o'xshaydi. Qani, yuring...

- Rahmat! - Bosh injener kinoyali jilmayib, qo'lini uzatdi. - Oldin kelin poshsho bilan yarashib, keyin mehmon chaqiring-da, og'ayni. Yo'q, yo'q, ovora bo'lman, kelgan yo'lim esimda. Bu yog'ini o'zim topib olaman.

Bosh injener birinchi qavatga tushib, ko'chaga chiqib ketguncha Begimqul o'rnidan jilmadi, so'ng, horg'in odimlab, uyg'a kirdi. O'zi eng yomoni ham shu, bosh injener oldida nomusga qolgani bo'ldi!..

Institutni kechagina bitirgan bu yosh, lekin o'ziga juda zeb qo'ygan, ancha manman yigitning bosh injener bo'lib kelganiga hali bir oy ham bo'ljadi, ammo shu bir oy ichida u Begimqulni bir necha marta tanqid qildi, «tirnoq ostidan kir qidirish» qabilida yo'l tutib, mayda-chuyda ishlariga tumshug'ini suqaverib, jonidan bezor qilib yubordi. Shunga Begimqul bugun uni dala ga opchiqib mehmon qilmoqchi, uy-joyini, mashinasini, Nilufarni ko'rsatib, eng muhimi, dadasidan gap ochib, u ham «ko'chada qolganlardan» emasligini bosh injenerga ko'rsatib qo'ymoqchi edi!.. Aksiga olib, «ko'rsatib qo'yish» u yoqda tursin, o'zi sharmandai-sharmisor bo'ldi!..

Nilufarsiz uy qandaydir bo'm-bo'sh bo'lib, huvullab qolganday tuyuldi Begimqulga. U stoldagi ochilmagan konyakka, to'g'ralmagan kolbasa, ushatilmagan patirlarga ko'zi tushib, ichkari kirdi, shishani ochib ust-ustiga ikki piyola konyak ichdi-da, bir burda non chaynab, divanga yonboshladi.

Ey, darig'! Tinchgina, tappa-tuzuk kechayotgan hayot  
birdan bunaqa ag'dar-to'ntar bo'p ketsa? To'xta! O'zi ni-  
madan boshlandi bu g'avg'o?

Ha, hamma balo Hikmatdan boshlandi! Og'zidagi  
oshni evlab icholmagan bu landovur... kelib-kelib shu  
bugun paydo bo'lganini qarang!

Yo'q! Hikmat emas, uning o'zidan ham o'tdi! Shu ar-  
zimagan to'qson so'mni bera qolsa... o'lib qolmas edi Be-  
gimqul! Shu pulni bermadi-yu, bir balo bo'ldi Nilufarga!..

Yo'q, gap puldayam emas! Bu pulsiz ham xotiniga bir  
balo bo'lganini sezardi Begimqul!

Lekin bu kasal qachon boshlandi, uning sababi nima,  
Beginqul shuni bilolmay dog'da.

Begimqul hayron edi: bu xotinning turmushdan  
norozi bo'ladigan nima kamchiligi bor?

Unga nima yetmaydi o'zi? Yegani oldida, yemagani  
ketida! Kiygani atlas-u ipak! Hech narsadan kam ko'sti  
yo'q! Nima tilasa – hammasi muhayyo! Qishloqda u  
tengi qiz-kelinchaklar, qo'llari kosov, sochlari supurgi,  
qishin-yozin tinim bilishmaydi! Qishloqni aytadi, shu  
yerlik, shaharlik yor-birodarlarining turish-turmushini-  
yam biladi-ku Beginqul. Hammasiyam unga, xotinlari  
esa Nilufarga havas qilishadi! Bu bo'lsa... arshi-a'loda  
yashaganday yashaydi-yu, sira chehrasi ochilmaydi! Na  
unga, Beginqulga kulib boqadi, na o'zi o'ynab-kuladi!

Beginqul uni urishib ham ko'rdi, so'kib ham ko'rdi,  
bo'ljadi. Alamidan ichib kelib, to'polon ham qildi – foy-  
da bermadi. Kecha-yu kunduz bir nimalarni o'ylagani  
o'ylagan, qovog'i solingani solingan. Bitta-yu bitta top-  
gan ovunchog'i – kitob! Ertalab ham kitob, kunduz ham  
kitob, kechasi to'shakka kirgandayam kitob! Bir nima  
desa ko'ziga g'ilt-g'ilt yosh oladi, lekin o'lib ketsa ham  
ichidagi dardini aytmaydi, yorilay demaydi. Ichimdagini  
top deb, bezrayib turgani-turgan!

Begimqul ba'zan jonidan to'yib ketib, bor-e deb, javobini berib qo'ya qolay desa... yaxshi ko'radi! Eng dahshatlisi – Nilufar qiliq chiqargan sayin uning ko'ngli sovish o'rniga, tobora muhabbatি ortib borar, u hatto Nilufar ketib qolishidan qo'rqrar, buni o'ylasa vahima bosardi!..

Ba'zan u yomon tushlar ko'rар, bu tushlarida Nilufar yo arazlab ketib qolgan, yo boshqa bir yigit bilan yurgan bo'lar, shunday paytlarda qoraterga botib uyg'onib ketgan Begimqul yonida tinchgina uxlab yotgan Nilufarni ko'rsa mudhish jardan sakrab o'tgan odamdan yengil tortar, so'ngra tong otguncha uning qo'lini qo'yib yubormas edi.

Mana endi uni vahimaga solib yurgan narsa ro'y berdi! U ketdi! Lekin qayoqqa? Oyisnikigami yo eski jazmani... Hikmat lapashangni qidirib ketdimikin? Hikmatiloni eslashi bilan Begimqul xuddi ari chaqqanday irg'ib o'rnidan turdi, yana ust-ustiga ikki piyola konyak ichdi, so'ng qayta joyiga o'trib, uzoq, og'ir xayolga toldi.

Yo'q, Nilufar boshiga urarmidi og'zidagi oshini evlab icholmaydigan, qo'lidagi pulini qayoqdagi qalang'i-qasang'ilarga oldirib o'tirgan bu lapashangni? Qidirgandayam qay go'rдан topardi uni? Bir bo'lsa... oyisnikiga ketgandirda arazlab? Oyisnikida bo'lsa... qayoqqa ham borardi! Ertaga o'zi pesday bo'lib qaytib keladi! Kelmasa Begimqul o'zi borib opkeladi!

Qaynanasi omon bo'lsa... Begimqulning gapi ikki bo'lmaydi bu oilada!

Qaynatasi mazasi yo'q odam! Unga bitta g'ijjag-u, bitta shaxmat bo'lsa bas. G'ijjagini g'iyqillatib, shaxmatini taqillatib o'tirsa bo'ldi olam guliston! Lekin qaynanasi... ko'pni ko'rgan, yaxshi ishlarda ishlagan xotin, insonning qadrini biladi u. Qaynanasi omon bo'lsa, gapi yerda qolmaydi Begimqulning. Nega ham yerda qolsin. Ko'mir yoqib, qora qurum bosib yotgan uchastkalariga benavbat gaz o'tkazdirib berdi. Qaynatasiday yayovlar tugul,

otliqlarga topilmaydigan «AGV» pechkani topib, oborib o'z qo'li bilan o'rnatib berdi. Xullas, o'tkazib qo'ygan joyi bor! U hozir borsayam qo'lidan sudrab opkeladi Nilufarni! Lekin... nimadan norozi bu... fohisha? Nima yetmaydi unga? Boshqa bir insofli xotin bo'lganda oyog'ini o'par-di Begimqulning! Soyasiga ko'rpacha yozardi uning! Bu bo'lsa... odamni qon qilib yubordi-ku, axir?

Uyga birov kirdimi yo unga shunday tuyuldimi? Yo'q, kirdi. Dahlizda chiroq yondi. Nahot shunaqa... kech bo'p qolgan bo'lsa?

Begimqul yuragi uvushib o'rnidan turdi, alpang-tal-pang yurib borib, chiroqni yoqdi.

Eshikda... Nilufar turardi!..

Qo'lida sumka, katta ochilgan ko'zlarida taraddud, yuzida qandaydir ayanchli ifoda, o'ziyam qimtinib, g'ujanak bo'lib turipti. Uning yuzidagi bu ayanchli ifoda, ko'zlaridagi taraddud Begimqulning dilida zo'r bir za-harxanda uyg'otdi.

- Xo'sh, tun yarimda qayoqlarda sang'ib yuriptilar, oyimcha?

Nilufar Begimqulning qon talashgan ko'zlaridan ko'zini olib qochdi.

- Tun yarmi emas...

- Gapir! Tilingga chipqon chiqsayam gapir deyap-man senga! Jonim halqumimga keldi-ku seni deb! Dard-ing bo'lsa ayt, axir!

Nilufar boshini pastroq egdi.

- Dard? Dard nima qilsin menda?

- Nima? - dedi Begimqul. - Nima yetmaydi o'zi sen-ga? Kim uchun jonimni jabborga beryapman men? Kim uchun yig'dim bu mol-dunyo, bu zeb-ziynatni?. Yolg'iz menga kerak deb o'ylaysanmi bu mulk, bu jihoz, bu oltin qandillar? Senga kerak bo'lmasa mengayam ke-rak emas!

O't qo'yaman hammasiga, o't! – Begimqul lablaridan tupuk sachrab atrofiga alangladi, ko'zi stoldagi bo'sh shishaga tushib, uni yulib oldi-da, qulochkashlab shiftga otdi. Billur qandilning sumalaksimon shishachalari qandaydir sho'x jaranglab yerga duv to'kildi, servantning oynasiga sochilib nozik qadahlar chil-chil sindi. Bu to's-to'polon, sharaq-shuruq, darang-durung ovozlar Begimqulga yangi kuch, yangi ilhom berganday, u stoldagi piyola-choynak, rang-barang likopchalar, bilur qadahlar, qoshiq-vilkalar, – qo'liga nima duch kelsa shuni otib, stoldagi buyumlarning hammasini sindirib bo'ldida, og'ir hansirab orqasiga qaradi.

– Xo'sh, endi xursandmisan? Ko'ngling o'rniga tushdimi endi?

Nilufar boshini ko'tardi. Uning ko'zlaridagi boyagi taraddud qandaydir shafqatsiz bir ifoda bilan almashgan, o'ziyam hamla qilishga chog'langanday qaltiroq bosib, yonib turardi.

– Bu mol-dunyo, bu jihoz, bu zeb-ziynat meniki emas! Hammasi sizniki! Xohlang sindiring, xohlang hammasiga o't qo'ying – ixtiyor o'zingizda! Faqat... faqat meni tinch qo'ying!

– Yo'q! Qo'yib bo'pman! Ketib bo'psan! – Begimqul al-pang-talpang odimlab borib, dahlizga chiqqan Nilufarning qo'lidan ushladi.

– Qayoqa shoshayaptilar, jonon?

– Qo'ying, qo'yib yuboring yo hozir dod solaman! Qo'ni-qo'shnilarни chaqiraman!

– Chaqir! Jumlai mo'min ko'rib qo'ysin! Bu tur-mush, bu boylik, bu zeb-ziynatlar seni quturtirib yuborganini hamma ko'rsin! – Begimqul Nilufarning qo'lidan «shap» ushlab, tomog'iga chang soldi. Nilufar jon holatda bor kuchini to'plab, bir siltandi-yu, quchog'idan chiqib eshikka otildi, otilarkan, qo'lida-

gi katta soatining oltin zanjiri uzilib, soat qayoqqadir uchib ketdi...

– To'xta! To'xta deyman senga! – Begimqul qo'llari ni silkitib uning ketidan talpindi, biroq oyoqlari ostida yotgan kolbasa parchalariga sirg'anib ketdi-da, ayiqday zil-zambil gavdasi bilan polga gursillab yiqildi.

## 8

Nilufar qizlik chog'ida kinogami, teatrgami tushib, uylariga kech qaytgan paytlarida dadasini uyg'otib yubormaslik uchun oshxonalarining derazasini uch marta sekin taqillatar edi.

Oyisi, ukalari bilan oshxonaga yondosh xonada uning qaytishini poylab, «tiq» etgan tovushga quloq solib yotar, Nilufar derazani chertishi bilan sharpasizgina yurib chiqib, eshikni ochar, birda kech kelgani uchun lablari pichirlab koyir, birda «shu mahalgacha qayoqlarda yuribsan, yurakkinam yorilib ketdi-ku, voy. Niluginam-ey, Niluginam-ey» deb nolib qo'ya qolar edi.

Turmushga chiqqandan beri Nilufar kechasi deraza chertib kelmagan bo'lsa ham, onaizor uning bu odatini unutmagan ekan. Deraza tiqirlashi bilan pardaning cheti ko'tarilib, oyisining uzunchoq yuzi ko'rindi, qorong'ida tilla tishlari «yarq» etdi. Zum o'tmay, hovlida ship-ship ovoz eshitilib, eshik zulfinlari shiqirladi...

– Voy, bir o'zing... tun yarmida nima qilib yuribsan, Nilu?

– Qo'rwmang, oyijon, shunchaki... o'zim keldim... Dadamlar uydamilar?..

– Dadang... Bugun otdix-ku, oftobim. Choyxonada osh qilib, o'tirishgandir, shaxmatlarini taqillatib!.. Nima qildi, tinchlikmi? Yo ering bilan arazlashib qoldilaringmi?..

Nilufar biladi: oyisi uni juda baxtiyor deb hisoblagani uchunmi, qizining eri bilan urishib, uylariga qaytib kelishidan, qaytib kelib, beva bo'lib o'tirib qolishidan qo'rqaadi.

- Tinchlik, oyijon. Tinchlik... - Nilufar oyisining sovuqdanmi, qo'rquvdanmi titrab turgan yelkasidan quchdi. - Keyin aytib beraman. Hozir juda sovuq yedim. Joy solib bersangiz yotaman...

Nilufar oyisining hamma savollariga «keyin, keyin aytib beraman. Qo'rqmang, tinchlik, tinchlik, oyijon» deb javob berdi-da, ukalarini bezovta qilmaslik uchun oshxonaga raskladushka qo'ydirib, yotib qoldi.

Nilufar Chilonzordan to bu eski mahallalarigacha pi-yoda kelib, chindan ham dildirab qolgan edi. U g'ira-shira ko'chalar, tanish va notanish joylardan bir-bir bosib, tanho yurib kelarkan, o'y o'ylayverib boshlari g'ovlab ketdi. Lekin qiziq; u hozirgina o'z uyi, bir yil bir yostiqqa bosh qo'ygan erini tashlab chiqib ketgan bo'lsa ham, bu haqda negadir kam o'ylar, uning xayoli ko'proq Hikmatilloda, to'g'rirog'i, kunduz bo'lib o'tgan uchrashuvda edi. Nilufar boyaga kunduz Hikmatilloga nega borganini, unga pul berish fikri xayoliga nega kelganini o'ziyam bilmaydi. Bu ishi qanchalik o'rinsiz, qanchalik nojo'ya bo'lganini rad javobini olganidan keyingina tushundi.

O'sha daqiqada, Hikmatillo uning qo'lini qaytargan mahalda yer yorilmadiki, Nilufar kirib ketsa... U Hikmatilloning oldidan qanday ketdi, Chilonzorga qanday yetib bordi -bittasiniyam bilmaydi.

Nilufar ko'nglining bir chetida Hikmatillo haq ekaniga, o'zini hurmat qilgan hech bir yigit bu vaziyatda undan pul ololmasligiga iqror bo'lar, umuman ahmoqona ish qilganini tushunar, lekin tahqirlangan hislari, poymol bo'lgan g'ururi bu oddiy haqiqatni tan olishga qo'ymas, miyasida isyonkor fikrlar uyg'otardi... Axir nahot uning ko'ngliga yomon fikr kelgan bo'lsa? Nahot uning, Nilu-

farning samimiyligiga tushunmagan bo'lsa? Uning ah-vol-ruhiyatini sezmagan bo'lsa?

Nilufarning xayoli, xuddi juvozga qo'shilgan ho'kiz-day, faqat shu bitta fikr atrofida aylanar, bu o'ylar mi-yasini burg'i bilan burg'ilaganday vujud-vujudigacha zirqiratar edi.

Hozirgina tashlab chiqib ketgan o'z uyi, Begimqul esa... Nilufar endi bu uyga qaytib bormasligini, hamma narsadan – Begimquldan tortib, qimmatbaho jihozlar-gacha, kiyim-kechaklari-yu, sevikli zeb-ziynatlariga-cha – hammasidan voz kechganini, hammasidan ko'ngil uzganini bilar edi. Faqat bir narsani eslasa sal yuragi achishar, u ham bo'lsa kitoblar edi!

Lekin bu uyni qayta ko'rmaslik uchun hatto sevikli kitoblaridan ham voz kechishga tayyor edi. Mayli, omon bo'lsa kitoblarni o'zi topib oladi, bitta-bittalab o'zi sotib oladi. Qo'shni xonada chiroq o'chdi, qorong'ida oyisi-ning: «Ey Xudo, ishqilib, o'zing beobro' qilmagaysan!» deb shivirlagani eshitildi.

Oyisining pichirlab aytgan bu so'zlari Nilufarning dilida oldin iliq mehr to'la iztirob, keyin allaqanday mud-hish bir qo'rquv uyg'otdi.

Nilufar suratlardan bilardi: oyisi yoshligida nihoyatda ko'hlik bo'lган, lekin nimadir bo'lib, birinchi eri bilan murosalari kelishmagan, shundan keyin hozirgi dadasiga turmushga chiqqan. Oyisi bundan besh-olti yil oldin, savdo tashkilotlarida ishlab yurgan chog'larida ham o'z husnini yo'qotmagan, bir so'zli, o'ktam xotin edi. Nimadir bo'lib, ishdan tushdi-yu, birdan qandaydir cho'kib qoldi. Ilgari mayda-chuyda narsalarga parvo qilmaydigan odam, endi chaqimchilikdan boshqa ishi yo'q mahalla oyimchalarining gap-so'zlaridan ham cho'chiydigan bo'p qoldi... Nahot oyisining taqdiri yana takrorlansa?..

Nilufar boyaga uyimni, Begimqulni yelkamning chuqu-

ri ko'rsin dedi. Lekin o'z uyiga qaytib bormagan taqdirda, Begimqul bilan orani ochiq qila olgan taqdirda bu uyda qanday yashaydi?

Mahalla-yurt, qarindosh-urug'lari nima deydi? Ishxonadagi yor-do'stlari-chi? Ishxonadagi yor-do'stlari-ku, tushunishar. Lekin qiz bolaning eridan chiqib, ota xonadoniga qaytib kelishini azaldan eng katta nomus deb bilgan mahalla-yurt-chi? Kechagina «darvozamiz tagida yigirmata «Volga» tizilib turdi deb, hovliquvdilaring, oxiri nima bo'ldilaring», deb zaharxanda qilishmasmikin?

Nilufar-ku, og'ziga kuchi yetmagan bu oyimposh-shalarning sassiq gaplaridan yuqoriroq bo'lishga qurbi yetar, oyisi bechora nima qilar ekan? Busiz ham ko'ngli yarim bo'p qolgan mazluma, og'zi bilan yuradigan mahalla korchalonlari oldida bosh egib qolmasmikan? Oyisi bilan dadasini aytadi, hali Begimqul nima deydi? Uning ketaman deganiga «xo'p, ixtiyor o'zlarida, xonim», deb uni o'z holiga qo'yib berarmikan hali? Hamma ishni xamirdan qil sug'urgandek qilib silliq bitiradigan, sizlab turib, kulib turib, jon oladigan qaynatasi-chi?

Erta-indin bu gaplardan xabar topsa, odatdagidek qo'li ko'ksida: «Assalomu alaykum!

Borakallo, sizga, borakallo!» deb kirib kelib, oyisini qo'lga olmasmikan, hamma yoqni sovg'a-salomga to'ldirib, unga qarshi qayrab solmasmikan hali?

Tavba! Yana aybni oyisiga to'nkamoqchi! Yo'q, o'zi yemay, senga yedirgan, o'zi kiymay, senga kiydirgan onaizoringda nima ayb?.. Dadang bechora bo'lsa sening ko'ngling o'ksimasin deb, g'ijjagini qo'ltiqlab, maktab-maktab chopganini unutdingmi? Seni muzika maktabida o'qisin deb, o'zi qo'shimcha darslar berib: kecha-yu kunduz tinim bilmaganlari yodingdan chiqdimi?

Sen endi, topgan eringning kimligini bilganingdan ke-

yin bu ko'rksiz, jihozsiz, jo'ngina uyda o'tgan damlarning qadriga yetyapsan. Kechalari dadangdan dutor o'rgan-gan chog'laring, sevikli kitoblarining o'qib, totli xayollar og'ushida suzgan onlaring umringning eng ma'sud onlari ekanini, zotan, baxt degan narsa o'zi shu ekanini tushunyapsan. Bultur bu mahalda esa, uning devorlari nozik kafellar bilan bezatilgan, shiftiga billur qandillar osilgan, poliga qimmatbaho gilamlar to'shalgan uyini ko'rganingda esa... ko'zlarining yonib, betoqat entikmagan-miding? Endi nima qilasan aybni onaizoringga to'nkab?

Ha, nima bo'lsayam dardi-alami ichida! Chunki ham-masiga o'zi aybdor. Begimqulni unga ota-onasi topib bergani yo'q, o'zi topdi. Nima qilsayam hammasini o'zi qildi, endi jafosiniyam o'zi tortadi!..

Tuyqusdan ko'cha eshik qattiq taqilladi, hovlida, ko'chada kuchuklar vovulladi.

«Begimqu!»

Nilufar a'zoyi badani muzlab, ko'rpara g'ujanak bo'lib oldi.

Oldin dadasi yotadigan katta uyning chirog'i yondi, gurs-gurs qadam tovushlari eshitildi, so'ngra hovliga chiqqan oyisining yengil ship-shipi quloqqa chalindi. O'rdaday katta hovli qandaydir og'ir, notinch sukutga cho'mdi.

- «Dadamlar... choyxonadan qaytdilar, shekilli. Bo'ldi. Uxlash kerak!»

Nilufar chap tomoniga ag'darilib, boshini ko'rpara o'rabi oldi. U ko'zi ilindimi, yo'qmi, bilmay qoldi, hovlida, xuddi derazasining tagida dadasinging ingichka, asabiy ovozi eshitildi.

- Qizing kepti - nega aytmaoding?

- «Har kuni kelib yurgan qizingiz, kelsa nima bo'pti?

- Bir nima bo'lmasa... bu ayiqpolvon nima qilib yu-ripti tun yarmida? Nima shivir-shivir boyadan beri?

– Nima bo'lardi? Ikkisi jinday arazlashib qolishipti.  
Er-xotinning urushi, doka ro'molning qurishi... Qo'ying,  
siz aralashmang shu ishga!

– Haliyam aralashmoqchi emasman. Ammo lekin...  
gulday qizimning umriga zavol bo'lding-da, xotin...

– Voy, manu kishini! Qizingizga nima bo'pti? Yegani  
oldida, yemagani ketida, kiygani ipag-u atlas! Qo'lida  
oltin soat-u tilla bilaguzuk, tagida mashina!..

– Koshkiydi gap mashinada bo'lsa!..

– Sizga qolsa hamma gap g'ijjakda! G'ijjagingizni  
qo'ltiqlab o'n yil yugurganda" bitta gaz plitaga kuchingiz  
yetmadi. Bir oyda hammasini to'g'rilib berdi kuyovingiz.  
Rohat qilib yoqib o'tiribsiz. Hayronman, shu kuyovi-  
ngizni ko'rsangiz jiningiz qo'zg'aydi. Maqsadingiz nima?  
Qizingizni ajratib, uyingizga op-kep olmoqchimisiz? Qa-  
rindosh-urug', mahalla-yurt nima deydi?

– Mahalla-yurt deb kimni aytyapsan?? Og'ziga kuchi  
yetmagan uch-to'rtta satanglariningimi? Padariga la'nat  
o'sha... og'zi bilan yuradigan otinchalarini!.. O'zim  
gaplashib qo'yaman o'sha suykli kuyoving bilan!

– To'xtang! Qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarasiz!  
To'xtang deyapman sizga!

Ovozlar uzoqlashdi.

Nilufar boshini ko'rpgaga o'rarkan, yuragiga quyilib  
kelgan cheksiz mehrdan o'pkasi to'lib:

– Dadajon! – dedi pichirlab. – Toabad unutmayman  
bu gaplaringizni. Qizingizman, dadajon!..

## 9

Begimqul kechasi tomog'i quruqshab uyg'ondi: tili  
tinglayiga yopishib qolgan, og'zi kakra chaynaganday  
taxir edi.

Odatda, Begimqul birorta ziyofatdan qaytganda, kechasi bosh tomonidagi tumbochkaga bir kosa sut, bir choynak ko'k choy yo bir shisha Toshkent suvi qo'yib yotar, kechasi bilan uyqu aralash shularni simirib chiqardi. Bu safar ham ko'zini ochgisi kelmay qo'lini tumbochka turadigan tomonga cho'zdi, cho'zdi-yu, bosh barmog'i chayon chaqqanday jaz etib, o'rnidan turdi.

Chiroq o'chirilmagan, u yotoqxonada emas, mehmonxonada, divanda yotib qolgan, hamma yoq ola to'polon, singan qandil, piyola-choynak, pachaq bo'lган qadah siniqlaridan gilamda oyoq qo'yadigan joy yo'q, uning qo'lini «jaz» etib chaqqan «chayon» ham qandil parchasi edi.

Hammadan burun negadir Nilufarning gaplari, uning ko'ksidan itarib, uydan qochib chiqib ketgani esiga tushdi. Bu esdalik uni qandaydir dahshatga soldi. U yotganda ham yechmagan tuflisi bilan gilamda ko'kish jilo sochib, bodrab yotgan qandil sumalaklarini, billur qadah siniqlarini patir-putur bosib, yotoqxonaga chiqdi.

Nilufardan nom-nishona yo'q, yotoqxonayam ag'darto'ntar, hatto tashqi eshik ham qiyg'och ochiq qolgan edi!

Begimqul birdan tizzalari qaltirab, karavotga o'tirib qoldi.

U endigina, Nilufarsiz allaqanday huvullab qolgan bu to's-to'polon xonani ko'rgañdagina tushundi: Nilufarsiz yashay olmaydi! Nilufarsiz hayot hayot emas unga!..

Bu uy, bu mol-dunyo, bu zebi ziynat – Nilufarsiz bularning bir tiyinlik qimmati yo'q!

Agar dunyodan umidi bo'lsa, agar Nilufarning dardida umrbod iztirob chekib o'taman demasa... uni qaytarmoq kerak!

Padaringga qusur Hikmatillo! Poyqadami yoqmadidi dayusning! Lekin hozir Hikmat lapashangni o'ylab

o'tiradigan paytmi? Nilufarni o'ylamoq kerak hozir. Uni qaytarib olib kelish yo'llarini o'ylamoq darkor hozir!

Ha, qaysi yo'l bilan bo'lmasin, nimalar qilib bo'lmasin, qaytarmoq kerak uni! Hamma mol-dunyosini sochib bo'sayam, hatto oyog'iga yiqilib bo'sayam, qaytarmoq kerak Nilufarni!..

Bir tomoni uning o'zidan ham o'tdi! Nilufar avval-danoq boshqalarga o'xshamaydigan qandaydir g'alti qiz edi. Birda o'ta sho'x, olov bo'lsa, birda... juda injiqlashib, noziklashib qolar, uncha-muncha odamning aqli yetmaydigan narsalar, hech kim o'qimaydigan kitoblar haqida gapirishni yaxshi ko'rardi. Begimqul xotining husn-latofatini, qizlik jozibasini, vaqtı chog' paytlaridagi o'zgacha sho'xliklarini qanchalik xushlasa, uning bu odatlarini shunchalik xushlamas edi. Lekin, «mayli, qizligida erkalanib qolsin» deb, xushlamaganini bildirmas, «erta bir kun qo'limga tushgandan keyin bu donoliklari o'z-o'zidan qolib ketar, qolib ketmasa qitig'ini o'zim bosib qo'yarman, deb o'ylagan edi. Yo'q, bosilmadi! Lekin bosilmasa nima qipti?

Yaxshi ko'rgandan keyin uncha-muncha noziniyam ko'tarib, faqat maishatni o'layvermay, yolg'ondan bo'lsa ham «Siz yaxshisiz, xotin» deb alday qolsa, ko'ngil uchun o'zini zo'rlab bo'lsa ham, bitta-yarimta kitobini o'qiy qolsa, ba'zan-ba'zan u yaxshi ko'rgan kinolarga, konsert-larga op tusha qolsa bir joyi kamayib qolmas edi! Mana endi nima degan odam bo'ldi? Yo'q, uni qaytarib opkelish kerak! Qanday bo'lmasin, aldab-suldabmi, qaysi yo'l bilan bo'lmasin qaytarib opkelish kerak. Chunki usiz hayot hayot emas! Ha, avvalambor adasiga telegramma berish kerak.

Darhol, hozir chiqib telegramma berish yo telefon qilish kerak. Kelsin. Qudalari bilan o'zi gaplashsin. Dadasi bitirolmaydigan ish yo'q!

Begimqul yuragida jo'shqin bir istak sezib, vannaxo-naga kirdi.

Vajohatidan odam qo'rqqulik! Yuzlari, qovoqlari shishib ketgan, ko'zлari qontalashgan, sochlari hurpay-gan edi!

Begimqul biror joydan kayfi oshibroq kelgan kunlari doim vannaga tushar, iliq dush tagida turib uzoq yuvinar, suv unga doim yordam berar, birpasda hushiga kel-tirib qo'yardi. Bu safar ham shunday bo'ldi. Bir soatcha iliq dush tagidan chiqmay, jir bita boshlagan bo'liq gav-dasini ishqalab, ayiqday pishillab, huzur qilib yuvindi. Dushdan chiqqanida chindan ham yuzlarining, qovoqla-rining shishi qaytgan, ko'zлari xiyla tiniqlashgan, bosh og'rig'i ham ancha pasaygan edi.

Begimqul mamnun bo'lib, kunduzgi kiyimlarini kiya boshladи-yu, o'ylab turib, qayta yechindi.

Yotoqxonaga chiqib, shkafdan yaponcha kul rang yaltiroq kostum-shimini, hali bir marta ham kiyilmagan, nim sariq ipak ko'ylagini, ko'ylagi rangida tuguni mushtdek keladigan yangi guldor galstugini, yangi qizil noskisi bilan bir martagina kiyilgan qora import tuflisini olib kiydi, kiydi-yu, o'zini oynaga solib, mamnun jilmayib qo'ydi.

Katta toshoynadan unga gaz masteri Begimqul emas, kamida fan kandidati, hatto yosh professorlarga o'xshab ketadigan, qaddi-qomati ketvorgan, salobatli va ayni zamonda xushsurat bir yigit mag'rur jilmayib qarab turar edi! Silliq taralgan va to'lqinlanib yelkasiga tushib tur-gan qop-qora qalin sochlari esa uni hatto yosh rassom yo xotini taniydigan kibor kompozitorlarga o'xshatar edi!..

Eng muhimi, bu o'xshashlik, chiroyini ochib, salo-batiga salobat qo'shgan bu yangi qimmatbaho libos Begimqulning dilidagi boyagi iztirob, boyagi ishonchsiz-likni to'zg'itib yubordi.

Haqiqatan, buncha iztirob chekadigan nima gunoh qildi u? Aybi... Hikmat lapashangga to'qson so'm qarz bermaganimi? Bermasa nima bo'pti? Bu lattachaynar shumshukning unga o'tkazib qo'ygan joyi bormi? Agar xotini shu ishni deb, undan arazlagan bo'lса... E, undan nariga ketmaydimi! Begimqul unga yalinadigan joyi yo'q! O'n gulidan bir guli ochilmagan yigit, Nilufardan yuz marta yaxshi, yuz marta ko'hlik, hali onasi o'pmagan qizni topib oladi! Hali istagan qizni «gah» deb qo'liga qo'ndira oladi Begimqul! Faqat... hozircha uni qaytarish kerak.

Chunki... agar mabodo ajrashadigan bo'lsayam, bu-gungiday u Begimqulni emas, Begimqul uni rad etmog'i, avval tiz cho'ktirib, tavbasiga tayantirib, keyin uyidan haydab chiqarmog'i kerak uni!

Begimqul galstugini to'g'rilib, ko'zgudagi o'z aksini yana bir ko'zdan kechirdi-da, polda bodrab yotgan shisha siniqlarini patir-putur bosib, uydan chiqdi.

## 10

O'sha kuni Hikmatillo ham uxlay olmadi. Hech kutilmagan bir paytda Nilufarning kelishi, pul taklif qilishi, u rad etgandagi ayanchli holati, birdan o'ksib ko'ziga yosh olishi... buning hammasi uning xayolini alg'ov-dalg'ov qilib yuborgandi...

To'g'ri, Hikmatillo uning pulini ololmas edi. Agar aya quvurkonga asrab qo'ygan yetmish so'mini bermagan-da ham, agar pulsiz va biletisiz qolganda ham, Hikmatillo Nilufardan pul olmas edi! Lekin... ho'kiz bo'lmasang shunday muomala qilasanmi axir? Dardi yo'q kesak, ishqи yo'q eshak deganlaridek, uning holi-ruhiyясini ko'rib turib, ayollik g'ururi, izzat-nafsini poymol qilib

bo'lsa ham, uni deb kelganini sezib turib, toshbag'ir bir to'nka bo'lmasang, pulini olmasang ham tuzukroq gapplashmaysanmi? Ko'nglini og'ritmay, ehtiyotkorlik bilan javob bermaysanmi? «Rahmat?! Pul topdim. Bekor ovora bo'psiz» emish! Qoyilman-iy, senday yigitga!

Hikmatillo ertaga uchib ketmasa ham bir sari edi. Bir kun bo'lmasa bir kun payt topib, kechirim so'rар, ko'nglini ovlar edi. Lekin u ertaga ketadi. Ketguncha uni qayoqdan topadi?

Topganda ham... Yo'q, endi qulay bir payt kelmaguncha u bilan gaplashishning iloji bo'lmaydi.

Kecha shunday payti kelganda... chindan ham ho'kizlik qildi, chindan ham qishloqilik qildi!

Hikmatillo tong otguncha shu alpozda o'zi bilan o'zi olishib, o'z yog'ida o'zi qovurilib chiqdi.

Shuning uchun ham bo'lsa kerak, kecha tramvayda uchragan puchuq yigit ertalab azbest quvurni olib kelganda... xuddi suvga g'arq bo'layotgan odam cho'pga yopishgandek, Hikmatillo ham ishga yopishdi.

Kampirning uyida turadigan qizlar hali o'qishga ketmagan edi. Hikmatillo ularni ham ishga soldi. Puchuq yigitcha aytgandek, quvurni o'rnatish qiyin emas edi. Hikmatillo oldin stropil yog'ochlarini arralab, quvurni qattiq siqib turadigan qilib ikkita temir qoqdi, so'ngra qolgan ikki temirni ikki yoniga ko'ndalang qo'yib, sim bilan chandib o'radida, ombur bilan mahkam tortib qotirdi, keyin shiferlarni qoqdi-da, quvurga tunuka qalpoqcha kiydirib, atrofini yaxshilab sementladi, vassalom! Bu orada aya sabzi-piyoz to'g'rab, yana oshga kirishib ketdi. U dam o'choq boshiga chopar, dam qaytib kelib, Hikmatilloning ishini kuzatar, «Voy, aylanib ketay, so'yloqqinam, qo'li gulda bo'tamning, qo'li gulda!» deb aylanib-o'rgilar, yana har safar: «Qog'oziga qarab ishla, pojarniy mehnatingni yo'qqa chiqarib, qayta buzdirib

yurmasin, so'yloqjon!» deb, qo'shib qo'yishni ham unutmas edi. Qizlar:

- Ayajon! Nega akamlarni so'yloq deysiz, qiyshiqli shamlari yo'q-ku! - deb kulishardi.

- Hozir bo'lmasayam, kelganda bor edi! - derdi aya. O'shanda tishlari so'yloq, o'zi nimjongina, zangday qop-qora, ko'rimsizgina bir bola edi, mana endi fildek yigit bo'ldi.

Bittang etagidan ushlanglar, so'yloqqinamni!

Qizlar qotib-qotib kulishar, Hikmatilloning o'zi ham bu safar kampirning «so'yloq» deganiga ranjimay, qizlarga qo'shilib iljayib qo'yardi.

Xullas, soat birga qolmay ish tugab, betinim kulgan yoqimtoy qizlar davrasida osh yeyilib bo'ldi.

Samolyot Toshkent vaqt bilan kechqurun to'rt yarimda uchar, aeroportga bir soat oldin chiqilgandayam hali sal kam uch soat vaqt bor edi.

Nima qilish kerak? Hikmatillo o'ylab turib, Begimqulga borishga qaror qildi.

Hikmatillo, garchi kecha aya masalasida xayolan Begimqul bilan bahslashgan bo'lsa ham, pul voqeasidan keyin uni ko'rishga sira toqati yo'q edi. Ayni zamonda savob qilsang butun qil, deganlaridek, ayani tinchitib ketgisi kelar, «nahot u noinsof, aya bechoradan ham bir narsa umid qilsa», degan fikr unga tinchlik bermas, lekin eng muhimi – Nilufar haqida bir narsa bilib ketgisi kelar, buni esa Begimquldan boshqa hech kim aytib berolmas edi!

Hikmatillo juda tortinchoq bo'lsayam, qo'rkoqlardan emas. Tortinchoqlik boshqa, qo'rkoqlik boshqa. Lekin uning yomon bir odati bor – kattalarning oldiga kirib bir narsani iltimos qilishni sira xushlamas, odatda shunday paytlarda beixtiyor domdirab qolardi. Buning ustiga raygazning ko'rimsizgina binosi oldida,

kecha Begimqul aytgan yengil mashinalar, «Moskvich», «Jiguli», hatto yangi «Volga»lar saf tortgan, qimmatba-ho palto va shlapa kiygan salobatli odamlar eshik oldida navbat kutib turishardi. Shu boisdanmi, Hikmatillo olisroqda ikkilanib to'xtadi. Navbat kutishdan foyda yo'q, bu salobatli odamlar turganda navbatsiz kirish esa oson emas lekin ayaga va'da berib qo'yib, endi «odam ko'p ekan, kirolmadim», deb qaytib borish undan ham og'ir edi!

Hikmatillo furajkasini to'g'riladi, gimnastyorkasi-ning etaklarini tortib, qaddini rostladida yuragi gurs-gurs uranicha, shitob bilan yurib bordi. Odamlar, hatto shlapa kiygan salobatli kishilar ham bostirib kelayotgan serjant oldida beixtiyor chekinishib, yo'l berishdi, lekin eshikka borganida, yo'lakda turgan yo'g'on erkakshoda xotin yo'lini to'sdi:

– Buqaga o'xshab, hammani suzib, o'tib ketaman deyapsanmi? Navbating qani?

– Men... boshliqqa aytadigan bir og'izgina gapim bor!

– Hammayam bir og'iz gap uchun turipti bu yerda!

Navbatsiz kiradigan... boshingda tojing bormi?

Hikmatillo bir zum gap topolmay duduqlanib qol-di-yu, keyin ko'krak cho'ntagidan shartta hujjatlarini chiqardi.

– O'rtoqlar... Men ikki soatdan keyin Sibirga... Uzoq Sharqqa uchishim kerak. Mana, samolyot biletim! Bir minutlik ishim bor, iltimos qilaman, o'rtoqlar!

Orqadan: «Ruxsat bering!», «Soldat ekan, mayli kiri-sin!» – degan xitoblar eshitildi.

Erkakshoda xotin bir nima deb to'ng'illadi-da, yo'l berdi.

Uzun, tor yo'lak g'ira-shira, eshik tepasidagi yozuv-lar yaxshi ko'rinas, lekin yo'lakda ham odam ko'p edi. Tepasiga «starshiy master B. Qulajonov» deb yozilgan

eshikning oldida, ayniqsa odam gavjum edi. Hikmatillo yana hujjatlari bilan samolyot biletini dastak qilib, zo'rg'a ichkariga kirdi.

Begimqul bitta stol, bitta shkaf bazo'r siqqan torgina xonaning to'rida, tirsaklarini bir dasta qog'ozga tirab, boshini changallab o'tirar, uning qarshisida novcha bir odam, qo'litiqtayoqqa suyanib, g'oz turardi.

Hikmatillo Begimqulni bir tanib, bir tanimay qoldi. Uning egnidagi qimmatbaho kulrang kostumi, faqat kostumi emas, oyog'idagi tuflisi, ko'ylagi va galstugiga-chaga qandaydir yaltillab turar, odatdagi patak sochlari silliq taralgan, o'ziyam raygazning xodimi emas, sahnga chiqishga hozirlik ko'rgan mashhur artistga o'xshar, faqat qosh-qovog'i bir oz shishinqiragan edi.

Eshik ochilganda boshini ko'targan Begimqul Hikmatilloni ko'rib o'rnidan turdi, so'ng negadir qayta joyiga o'tirib, qo'litiqtayoqli odamga yuzlandi:

– Xo'p, siz boravering. Ertaga pojarniy inspektorni yuboramiz...

Novcha odam qo'litiq tayog'i bilan polni duk-duk urib:

– Juma kuni shanbada yuboraman deb va'da qiluvdingiz, – dedi ranjib. – Shanba kuni dushanbada dedingiz. Endi yana ertaga deysiz! Sizda lafz degan narsa bormi o'zi, o'rtoq master?

Begimqul rangi o'chib, bir Hikmatilloga, bir novcha odamga qaradi.

– Og'zingizga qarab gapiring, aka!

– Siz ham do'q urmang. Kekirdagimga keldi! – dedi novcha odam, yana qo'litiqtayog'ini to'qillatib.

– Hadeb, invalidligingizni pisanda qilavermang! Ko'rib turibmiz!

– Hey, noinsof! Men pisanda qilyatganim yo'q. Ammanning to'yida otdan yiqilib ayrilganim yo'q men bu oyoqdan! Borim shu bo'lsa nima qilay? Ayt, nima qilay?

O'sha hammadan olgan jig'ildon pulingni men ham bersam bo'ladimi?

Begimqul qon talashgan ko'zlarini olayib o'rnidan turdi.

– Qanaqa jig'ildon puli? Nima deyapsiz o'zi?

– Ko'zingizni lo'q qilmay qo'ya qoling, uka! Inspektorningizni yuboring, u yog'ini men ham yurt qatori bir nima qilarman!

– Aytyapman-ku, ertaga yuboraman deb! – Begimqul uf tortib Hikmatilloga yuzlandi. – Mana, ko'ryapsanmi, ahvolni? Xo'p, siz boravering, amaki, – dedi u, to'satdan negadir past tushib. – Iloji bo'lsa yuboraman inspektori. Yordam beramiz, amaki...

– Shunday bo'lsin, uka. Umringizdan baraka topping, inim... – novcha odam qo'lтиqtayog'ini do'qillatib, xonadan chiqdi.

– Ko'rgan kunimiz mana shu! Jonga tegib ketdi! – Begimqul yo'g'on panjalarini sochlariga suqib, joyiga o'tirdi. – Xo'sh, xizmat?

– Xizmat... men ham shu ish bilan keldim, og'ayni.

– Qanaqa ish?

– Gazni aytaman. Aya gaz o'tkazib uyiga batareya qurdirgan ekan. Kecha azbest truba topib, quvurkon o'rnatib berdim. Hammasi qonuniy! Endi.. yo o'zing borib, yo odamingni yuborib, gazni yoqtirib bersang...

– Rahmat! Endi bir kamim ayaning gaz quvuri edi! – dedi Begimqul aftini burishtirib. – O'zim jonimdan to'yib turibman-u, sen bo'lsang...

– Menga qara, Begimqul. Nahot shu bechora kampir dan ham bir narsa umid qilsang?

– Nima? Nima deding? – Begimqul qo'llarini stolga tirab, qaddini rostladi.

Hikmatillo ham o'rnidan turdi.

– Lekin bilib, qo'y, senga beradigan bir tiyin puli yo'q.

Biroq... shu bugun, hozir... xohlasang borib ko'r, xohla-masang... ko'rmasdanoq ishini to'g'rila berasan. Gap shu! Mana hujjatlari!

- Agar to'g'rila bermasam-chi? - dedi Begimqul. U ayiqday beso'naqay gavdasini stulga tashlab, Hikmatil-loga taajjub aralash nafrat bilan tikildi.

- Agar to'g'rila bermasang... hozir, oldingdan chiqaman-u, boshlig'ingga kiraman. O'zing bilasan. Men soldatman. Ikki soatdan keyin uchishim kerak. Qabul qiladi! Hammasini gapirib beraman!

- Masalan, nimani gapirib beradilar? Bilsak bo'ladimi? Nima, pora ustida tutib oldingmi?

- Tutib oldimmi, yo'qmi, nima deyishimni o'zim bila-man! Lekin aytib qo'yay - yaxshi bo'lmaydi!

- Yopiray, a? - Begimqul shishgan qovoqlarini uqalab iljaygan bo'ldi. Lekin uning bu kulgisida kechagi manmanlik emas, allaqanday ayanchli bir narsa bor edi. Hikmatillo ayaning hujjatlarini yig'ishtirib olib, cho'ntagiga soldi.

- Shoshma! Hujjatlarini ko'ray-chi?

- Mana! - Hikmatillo changallab olgan qog'ozlarni gayta stolga tashladi.

- Mayli, aya uchun... Sening bu... qo'polligingga kabinetdan haydab chiqarish kerak edi-yu, aya bechoraning tuz-nonii uchun!

Begimqul kampirning arizasiga bir nima deb yoz-di-da, Hikmatilloga uzatdi. - Ma. Ertaga oltinchi xona-ga kelib uchrashsin. Borib yoqib berishadi. Xo'sh, tag'in nima gaping bor?

Hikmatillonning boshqa hech qanaqa gapi yo'q, u o'zi Begimquldan gap kutar, butun qalbi, butun vujudi bilan Nilufar haqida bir nima deyishini kutardi. Biroq Begimqul yana boyagiday boshini changallab, ayiqday beso'naqay gavdasi bilan stulni g'ichirlatib, og'ir tebranib o'tirardi.

- Xo'p, xayr bo'lmasa...

- To'xta!

Begimqul rangi o'chib, o'rnidan turdi. Baquvvat qomatini oldinga tashlab:

- Kecha... - dedi salmoqlab. - Kecha nima maqsadda boruvding mening uyimga?

Hikmatillo bir nafas so'z topolmay duduqlanib qoldi.

- Gapingga tushunmadim. Axir... sen o'zing...

- Nimasiga tushunmaysan? Kecha sen ablah borib, uyimni buzib ketding! Kim chaqiruvdi seni? Seni deb... o'sha la'nati to'qson so'mni deb... xotinim ketib qoldi!

Hikmatillo beixtiyor oldinga talpinib:

- Qachon? - deb yubordi.

- Kechasi... Ha, nega ishshayasan? Xursandmisan yo?- dedi Begimqul. -Lekin bilib qo'y: agar sen uni... agar oralaringda bir gap bo'lsa... yaxshilik kutma men-dan! Bilasan-ku, meni!

Begimqul burun kataklari pirpirab, oyog'i bilan stul-ni bir chetga surib, stolni aylanib o'ta boshladi. Yaxshi-yam shu payt eshik shitob bilan ochilib, xonaga bir gu-ruh odam yopirilib kirdi.

- Uyat emasmi, soldat? Bir og'iz gapim bor deb, bir soat kuttirdingiz-ku?

- Sizga kirish ministrga kirishdan ham qiyin bo'p ketdi-ku, o'rtoq master?

Begimqul sochlari hurpayib, bir Hikmatilloga, bir yopirilib kirgan odamlarga qaradi, so'ng, oldinda turgan erkakshoda xotinning qo'lidagi qog'ozni yulib oldi.

- Nima kerak sizga? Gazmi? Mana! - u arizaga bir nima deb yozdida, ikkinchisining qo'lidagi qog'ozni yulib oldi.

- Sizgayam gazmi? Mana! Qani, op kelinglar! Tag'in kimga gaz kerak? - Begimqul, xuddi talvasaga tushib qolgan odamday, g'alati harakatlar qilar, o'zicha ishsha-

yar, ko'zlarini qisar, odamlarning arizasiga pala-partish imzo chekib, yuzlariga otar edi...

Hikmatillo negadir yuragi bezillab xonadan chiqarkan, Begimqulning:

- Qani, tag'in kim bor? - deb xirillaganini eshitib qoldi. - Bu dunyoda hamma yaxshi, hamma pok! Yolg'iz Begimqul iflos! Hech kimda jig'ildon yo'q. Yolg'iz menda bor jig'ildon!

Hammang farishta, yolg'iz starshiy master ablah! - derdi Begimqul.

## ||

Hikmatillo soatiga qaradi: vaqt ikki yarimdan oshgan, aeroportga yetib borishga bir soatgina fursat qolgan edi!

Hikmatillo katta ko'chaga chiqib qo'lini ko'tardi. Baxtinga g'iz-g'iz uchib o'tayotgan mashinalarning birinchisiyoq yonginasiga kelib to'xtadi. Labiga sigareta qistirib olgan yoshgina yigitcha kabinadan boshini chiqarib qichqirdi:

- Qayoqqa, soldat?

- Aeroportga.

- Uch so'm!

- Xo'p. Gap pulda emas, uka. Faqat... oldin mana bu yerda bir joyga kirib, chamadonimni olamiz... Keyin... Chilonzordagi bir aptekaga shundoy bosh suqib o'tamiz!

Shofyor yigitcha og'zidagi sigaretasini to'g'rilib, hushtak chalib yubordi.

- Gap pulda emas deysiz-u, uch so'mga butun shaharni aylanib chiqmoqchisiz, soldat!

Hikmatillo, xuddi mashinani ushlab qoladiganday uning eshidigiga tirmashdi.

- Xo'p, ukajon, uch so'm emas, to'rt so'm beray.

- Besh so'm! - dedi yigitcha. - Shundayam soldatligingiz hurmati.

– Bo'pti. Ketdik! Hikmatillo eshikni shaxt bilan ochib, o'zini orqa o'rindiqqa otdi.

Shofyor yigitcha mashinaga gaz berarkan, orqasiga bir qarab qo'ydi.

– Devdek soldat... aptekada nima qilasiz?

– Ha, shu.. bir ish bor edi... – Xikmatillo yigitchaning gapdonligini xushlamay ko'zini yumdi.

«Ha, u ho'kiz! Dardi yo'q kesak! To'nka! To'nka bo'lmasa kecha shunaqa muomala qilarmidi?

Axir Hikmatillo kecha Begimqulni yo'qlab borganida uning, Nilufarning ahvoli-ruhiyasini bildi-ku?

Uning xuddi qafasga tushgan qushday mung'ayib qolganini ko'rdi-ku?

Mung'ayib qolganini!.. Mung'ayib qolsa... kim unga boshda Hikmatillonning eng yaxshi tuyg'ularini poymol qilib, bu... to'ng'iz tabiat olg'irning tilyog'lamaliklariga, soxta marddiklariga uch degan? Kim unga?..

Yana boshladi! O'sha toshbag'irligi, o'sha ahmoqona qaysarligi yana boshlandi! Axir kim yanglishmaydi bu dunyoda?

«Bolam! – deguvchi edi marhum otasi. – Benuqson Parvardigor! Xato qilmaydigan odam bo'lmaydi. Hamma yomon, yolg'iz men yaxshiman, deb gerdayaverma, o'g'lim...»

Yo'q, u xumkalla kecha hech narsaga tushunmagan ekan. U faqat endi, Nilufar kechagi shohona uy-joyi, beg'am-betashvish tuyulgan turmushi, har qanaqa odamning havasini keltiradigan jihozlari – hammasini tarq etib, tashlab ketdi, degan gapni eshitgandagina uning qalbi, uning dardlariga tushunganday bo'ldi!

Negadir yana kitob haqidagi kechagi gap esiga tushdi Hikmatillonning:

«Ketrinning to'lg'oq azobida o'lishi... Genrining ko'z yoshlari day tinimsiz yoqqan yomg'ir...

Men yig'layverib esim ketuvdi... Biroq... Bilasizmi, Hikmat aka, Ketrin o'ladi-yu, shunday bo'lsayam u men-ga eng baxtli, eng baxtli ayol bo'lib tuyuladi...

- Nega?

- Chunki shunday... oliyjanob yigit! Shunday... pok sevgi!»

Ha, u toshbag'ir! O'jar bir to'pori!

- Nima - dedi shofyor yigitcha, ko'zlarini katta ochib.

- Kimga gapiryapsiz, aka?

- Yo'q, yo'q, o'zim... mana, keldik, to'xtang. Hikmatillo chamadonini qanday olib chiqqanini ham, aya bilan qanday xayrashganini ham bilmaydi, faqat lablarida kampirning nordon ko'z yoshi-yu, qulog'ida yig'lab ayt-gan so'zlari qoldi:

«Umringdan baraka top, oy borib omon kel, aynanib ketay sendan, so'yloqjon!»

U bir parcha qog'ozga aptekaning adresini yozib ber-di-da, orqa o'rindiqqa o'tirib, yana xayolga toldi. Bu sa-far, nazarida, bir daqiqa ham o'tmadi, shofyor yigitcha mashinaga tormoz berdi.

- Mana, keldik, akajon. Ammo iltimos - kuttirib qo'y mang. Hozirning o'zida besh so'mlik yo'l yurdi-niz...

Kechagi tanish ko'cha, tanish uyni ko'rganda Hikmatillo yuragi bir hapriqib, eshikni ochdi, ochdi-yu, o'ng qo'lдаги katta yaltiroq vitrina orqasida dori-darmonlar to'la shkaflar yonida, ko'zoynakli keksaroq bir ayol bilan gaplashib turgan Nilufarni ko'rди.

Nilufar, egnida oq xalat, boshida oq qalpoqcha, qo'lida qandaydir quticha, bir ko'zoynakli ayolga, bir to'smaning bu tomonida turgan cholga qarab nimanidir tushuntirmoqda edi.

Hikmatillo, go'yo uning ko'rib qolishidan qo'rqqan-day, sal orqaga tisarilib, trotuarga chiqmoqchi bo'ldi, le-

kin xuddi shu payt, Nilufar boshini ko'tarib, u tomonga qaradi...

Hikmatillo turgan joyida qotib qoldi.

Nilufar qo'lidagi qutichalarni cholga uzatganicha, bir zum ko'zlarini katta ochib, unga tikilib turdi, so'ng yondagi ko'zoynakli ayolga bir nima deb tez-tez gapirdi-da, qutichalarni to'smaga qo'yib, shkaflar panasida g'oyib bo'ldi...

- «Chiqadi!» - yarq etdi Hikmatilloning miyasida.

Nilufardan keyin keksa ayol ham Hikmatillo tomonga tikilib qaradi, lekin uni ko'rolmadi shekilli, ko'zoynagini artib, burniga qayta qo'ndirdi.

- Hoy, aka! - shofyor yigitcha zaharxanda bilan boshini kabinadan chiqarib qaradi. - Kelgan joyingizni taniyapsizmi o'zi? Yo va'da qilgan vaqtlariga yetib kelmadilarmi?

- Kim?

- Kim bo'lardi, o'sha aptekaning oldida kutib turaman deb, va'da bergen jononni aytaman-da!

Hikmatillo unga javob bermay shiddat bilan yurib aptekaga kirdi.

Ichkarida odam ko'p emas. To'smaning orqasida qalin daftarga nimanidir yozib o'tirgan ko'zoynakli ayol eshik ochilishi bilan boshini ko'tarib, Hikmatilloga qaradi.

Hikmatillo to'g'ri uning oldiga bordi.

- Mumkin bo'lsa menga... Nilufar... Nilufar Qosimovani chaqirib bersangiz...

- Nilufar... - ayol ko'zoynagini tagidan Hikmatilloga diqqat bilan razm soldi. - Nilufarxon... juda band edilar-u...

- Menga bir minutga, bor-yo'g'i bir minutga, opa... Ayol yelkasini qisdi-da, ruchkasini daftarga tashlab, ichkariga kirib ketdi.

Hikmatillo doriga kelganlar unga ho'mrayib, kassir bilan tayyor dorilar bo'limida ishlayotgan yosh juvon

esa nihoyatda qiziqsinib qarayotganlarini sezib, teskari burildi.

Ko'zoynakli ayol sal o'tmay qaytib chiqdi.

- Kechirasiz, uka... Nilufarxon juda band ekanlar, chiqolmayman dedilar...

Kimdir piq etib kului, kimdir yo'taldi...

«Ha, albatta, chiqmaydi, albatta band... Kechagi muomalandan keyin o'zini hurmat qilgan qaysi odam sen bilan gaplashgisi keladi, qaysi qiz basharangni ko'rgisi keladi?...»

Hikmatillo tishini tishiga bosib, shartta burildi, burildi-yu, beixtiyor orqasiga tisarildi. Ostonada, oyoqlarini kerib, Begimqul turardi!

Rangi devor, ko'zlari qisilgan Begimqul Hikmatillo burilib qarashi bilan, suzishga chog'langan buqaday boshini egib:

- Sen! - dedi xirillab. - Sen ablah qachon tinch qo'yasan xotinimni?

U bir sakrashda Hikmatilloga yetib kelib, yoqasiga chang soldi.

Torgina xonani xotin-xalajning qiy-chuvi tutdi.

Bir yil avval ayaning uyida bo'lgan mana shunday olishuvda Begimqul Hikmatilloni sambo uslubida bir siltashda ag'darib, kulib turib, piypalab tashlagan edi.

Bu safar ham u Hikmatillonining bo'ynidan olib sambochasiga boshidan ag'darib otmoqchi bo'ldi. Lekin armiyada bu uslublarni o'rgangan Hikmatillo ag'darilayotib, o'zini o'nglab oldi-yu, tisarilib borib, devorni ushlab qoldi. Xuddi shu payt, Begimqul Hikmatilloni boshidan oshirib otgan paytda Nilufarning:

- Hikmat! Hikmat aka! - degan achchiq faryodi tor xonani zir titratdi.

Boshini buqaday egib, yana hujumga chog'langan

Begimqul yalt etib to'sma oldida paydo bo'lgan Nilufar-ga qaradi.

– Haa... Hikmat akalariga yordamga keldilarmi? Sen... Sen fohisha!.. – Begimqul og'ir tebranib borib Nilufar-ning sochiga chang soldi.

Hikmatillo jon holatda unga otilib yelkasidan quchoqlab oldi. Lekin Begimqul qo'lini bir siltab, Nilufarni otib yubordi. Nilufar uchib borib, boshi bilan oynavand kas-saga urildi-yu, sement polga chalqancha quladi.

Singan oyna parchalari yomg'irday yog'ilib, xona qiy-chuv bo'lib ketdi. Kimdir eshikka otildi, kimdir: «Tez yordam!» deb qichqirdi.

Boyagi ko'zoynakli ayol qo'llari qaltirab, to'sma orqasidan yugurib chiqdi.

– Nilu! Azizim, Voy, kim bor, «Tez yordam!» «Tez yordam»ga chopinglar!

Hamon Begimqul bilan olishayotgan Hikmatillo bu nidoni eshitib, bor kuchi bilan raqibini chetga otdi-da, Nilufar tomon intildi.

Nilufar, ko'zлari yumuq, sekin ingrab yotar, uning o'ng qulog'idan sizib chiqqan qon, jingalak sochlari orasidan bo'yniga oqib tushmoqda edi.

Ko'zoynakli ayol, hamon qo'llari titrab, Hikmatilloga qaradi.

– Boring, choping! «Tez yordam»ni chaqiring! Yo'q, to'xtang, Valya... telefonga chop! Mashina chaqir!

– Menda mashina bor. Tayyor mashina bor! Hikmatillo polga tiz cho'kib, Nilufarning qo'lini oldi. – Nilu!

– Bor bo'lsa... ko'taring! Tezroq ko'taring buni! Shu payt eshik ochilib, xonaga militsioner, militsioner bilan birga unga nimalarnidir tushuntirgan, bir-birini bo'lib gapirgan bir guruh xotin-xalaj kirib keldi.

– Bu nima to'polon? Nima bo'lyapti o'zi bu yerda? Hikmatillo bu o'ktam ovozga e'tibor bermay, Nilufarni

dast ko'tarib o'rnidan turdi. Nilufarning qulog'idan sizib chiqqan qonni ko'rganda bordan jimb qolgan Begimqul militsionerga qarab talpindi.

- O'rtoq militsioner. Men xotinimni... o'ynashi bilan tutib oldim! Mana shu serjant... xotinimning o'ynashi! Ushlang uni, o'rtoq militsioner!

Militsioner bir Nilufarni dast ko'tarib olgan Hikmatilloga, bir Begimqulga qarab:

- O'rtoq serjant! - dedi jur'atsizlik bilan. - Mumkin bo'lsa...

- Ko'rib turibsiz-ku, ahvolni! Men buni kasalxonaga qo'yib, aytgan joyingizga boraman.

Ayting, qayoqqa boray?

- Militsiyaga. Chilonzor militsiyasiga! - Hikmatillo militsionerning gapiga bosh irg'ab javob berdi-da, eshikni tepib ochdi, ocharkan, Begimqulning:

- Yo'q, kechirasiz! - deb xirillaganini eshitdi. - O'ynashlarni qo'yib yuborib, biz begunohni opketasizmi? Yo'q, ketmaydi bu ishingiz, aka, ketmaydi!

Nilufar hushidan ketgani yo'q, u bo'lgan gaplarning hammasini bilib yotdi. Faqat o'ng qulog'i shang'illab, boshining bir tomoni tinimsiz g'uvullab turgani uchunni, bo'lgan voqealar xuddi tushida ro'y berayotganday, qulog'iga chalingan uzuq-yuluq gaplar ham o'ngida emas, tushida eshitilayotganday tuyulardi unga.

Ko'z oldini qoplab olgan bu tuman, kasalxonada ust-ustiga ikki marta ukol qilganlaridan keyingina xiyol tarqadi, boshining g'uvullahi ham sal pasayganday bo'ldi, faqat o'ng qulog'ining sanchib og'rishi tinmas edi.

Uni jarrohlik bo'limining to'rt kishilik palatasiga joylashtirilgan, xonadagi karavotlarning bittasi bo'sh, qolgan ikkitasini avtomobil tagida qolib oyog'i singan semiz bir xotin bilan tizzasini bog'lab, qo'ltiqtayoqda kirib-chiqib yurgan yoshgina qizcha egallagan edi.

Qabul bo'limining vrachi bilan ust-ustiga ikki marta ukol qilgan hamshira xotin:

«Qo'rqmang, bir haftadan keyin turib ketasiz, faqat bir-ikki kun boshingizni qimirlatmay yoting», deb chiqib ketishgandan keyin Nilufar, xuddi kechagiday yana birdan o'pkasi to'lib, piq-piq yig'lab yubordi. Lekin bu yig'i ko'pga cho'zilmadi; uning xo'rligini keltirgan haqorat tuyg'usi sal o'tmasdan tarqab, qandaydir ruhiy yengillik bilan almashdi.

Ha, uning insoniy qadrini, ayollik g'ururini shafqatsiz toptab, shafqatsiz kaltaklashdi, tanish va notanish odamlar oldida, birga ishlaydigan yor-do'stlari oldida eng yomon so'zlar bilan xo'rslashdi, haqorat qilishdi. Lekin chuqurroq o'ylab qarasa, bu haqoratlar uning Nilufarning xatolari uchun qaytgan bir jazo ekan! Bu jazo uni yoshlik xatolaridan, Begimqulning soxta mardliklari, shohona uy-joylari, zeb-ziynatlariga uchib qilgan yengiltakligidan – hammasidan qutqargan, bu jazo bilan u go'yo o'z gunohlarini yuvgan edi.

Ha, u xuddi o'g'rilik qilib qo'lga tushgan kissavurday, yomon yo'lga kirgan sayoq xotinday kaltak yedi, «o'ynash» degan tuhmat gap eshitdi, lekin buni eshitish qanchalik og'ir bo'lmasin, bu kaltak, bu haqorat uni Begimqulga bog'lab turgan so'nggi rishtalarni uzdi! Kechasi Begimqul izlab borganini bilganida Nilufar o'zini xuddi o'rgimchakning to'riga tushgan pashshaday ojiz sezgan edi. Endi bu to'r uzildi. Pixini yorgan usta o'rgimchak o'zi to'qigan to'rni o'zi uzdi.

Kechasi oyisi qancha urishmasin, dadasi qancha ya-linmasin, Nilufar Begimqul bilan gaplashishni istamadi. Ertalab esa unga bildirmay, devor-darmiyon qo'shnilarining eshidigan chiqib qochdi.

Keyinroq Begimqul uni izlab aptekaga ham keldi, lekin Nilufar yana chiqmadi. Erining tinch qo'ymasligi-ni-ku, Nilufar bilar edi. Biroq, Hikmatillo...

U nega keldi, nega uchib ketmadi – Nilufar shuni bilolmay arosatda edi!

Nilufar Hikmatillonning qanday kelganini, mashinadan qanday tushganini, uni ko'rib ko'chada to'xtab qolganini – hammasini ko'rgan edi. Lekin baribir chiqmadi, kechagi voqeadan keyin Nilufar Hikmatillo bilan uchrashishni, u bilan gaplashishni istamas edi. Agar u eshik tirqishidan Hikmatilloni kuzatib turmaganida, agar to'satdan ko'chadan kirib kelib, Hikmatilloga chovut solgan Begimqulni ko'rмаганда u hech qachon yugurib chiqmas, Hikmatillo bilan hech qachon uchrashmas edi!

Mana endi nima bo'ldi? Begimqul-ku, mayli! Yo'q, Nilufar faqat Hikmatillo emas, Begimqulga ham yomonlikni ravo ko'rmaydi. Unga hech qanday da'vosi yo'q, hamma ayb uning o'zida. O'zi boshda yengiltaklik qildi. Jazosiniyam o'zi tortyapti. Shu jazo, shu haqorat bilan oralari ochiq bo'lsa bas, boshqa hech narsa kerak emas unga. Lekin... Hikmatillo nima bo'ladi?

Begimqulning boyagi tuhmati bilan nadomatga qolmasmikan hali? Tergov deb, boshqa deb ushlanib qolmasmikan, ushlanib qolib, armiyadagi boshliqlari oldida yuzi shuvut bo'lmasmikan?

Xonaga qo'lida quchoqqa sig'maydigan katta paket, hamshira xotin kirdi.

- Ishxonangizdan qizlar kelishdi. Mana, xat berib yuborishdi.

«Nilu! Jonginamiz Nilu! Qalaysan, tuzukmisan? Vrachlar tuzuk deyishdi. Xafa bo'lma, Nilu! Senday pok, senday mehribon qizga qo'l ko'targan bezori o'z jazosini tortajak!

Tezroq tuzalib chiq. Seni qattiq o'pib, do'stlaring».

Aptekaning hamma xodimlari qo'l qo'ygan bu xatning tagiga:

«Kerak bo'p qolar deb, sumkangni ham op keldik.

Ehtiyyot bo'l, ancha pul bor ekan ichida» deb yozib qo'yilgan edi.

– Qizlar kutib turishipti. Ularga aytadigan gapingiz yo'qmi, singlim?

– Yo'q... – Nilufar «qult» etib yutindi. U bir o'yi Hikmatilloni so'rab xat yozib chiqarmoqchi ham bo'ldi, lekin uyaldi.

Qizlar yozib kiritgan ikki og'izgina bu xat Nilufarga xuddi mo'jaz bir malhamday ta'sir etdi-yu, tarang tortilgan asablari moylanganday yumshab, uxbab qoldi.

U qancha uxladi, bilmaydi. Bir mahal quloqlari tagida: «Singlim, ho, singlim», degan ovozni eshitib ko'zini ochdi. Xona xira ko'kish shu'laga cho'mgan, narigi karavotdagilar uyquga ketgan, tepasida tanish hamshira xotin turardi.

– Bir soldat yigit kep turipti. Ko'rmasam bo'lmaydi deb yalinib qo'ymayapti... Nima qilay, singlim?..

Hamshira xotin gapini tugatmagan ham ediki, os-tonada... yelkasida kaltagina oq xalat, qo'lida qog'oz qutiga solingan tort, Hikmatillo ko'rindi.

Hamshira xotin unga stulni surib berdi-da, labiga barmog'ini bosib, oyoq uchida yurib chiqib ketdi.

Hikmatillo, xuddi gunohkor odamday ko'zları javdirab, stulga omonatgina o'tirdi.

– Qalaysiz, Nilu?

Nilufar indamadi, uning bir nima deyishga majoli yo'q edi.

Hikmatillo hamon ko'zları gunohkor javdirab, qo'lini uning qo'liga qo'ydi, narigi karavotdagilarga qaray-qaray, qandaydir duduqlanib, hayajonlanib, shivirladi:

– Mendan o'tdi, kechiring, Nilu. Kecha men... Siz ketgandan keyin... hammasiga tushundim.

Hammasiga... Eshityapsizmi, Nilu?

Nilufar birdan quyilib kelgan ko'z yoshini arang  
to'xtatib qoldi, lablari bilinar-bilinmas qimirlab:

- O'zingiz... - dedi. - Sizga bir nima deyishmadimi?
- Meni nima qilishardi? Hammasi... ahmoqona gap!
- Nega bo'lmasa uchib ketmadingiz?
- Ertaga... ertalab uchyapman.
- Biletingiz nima bo'ldi?
- Kuydi. Yarim puli kuydi.
- Voy, pul... pulni qayoqdan oldingiz?
- Sahroda emasmiz-ku! Aya degan bir kampir bor. Bi-lasiz-ku, biz ijaraga turgan uyning egasi...
- To'xtang. Menda pul bor. Tumbochkamni oching. Sumkam bor.

Hikmatillo: «Rahmat, keragi yo'q!» demoqchi bo'ldi-yu, Nilufarning yuzidagi hayajonni ko'rib, itoatkorlik bilan tumbochkadan tanish qizil charm sumkani oldi. Sumkada chindan ham yigirma besh va ellik so'mliklar-dan iborat bir dasta pul bor edi.

- Ana, kecha aytsam ishonmovdingiz. Meni juda... pulim ko'p. Qandil puli!
- Nima? - dedi Hikmatillo tushunmay.
- Yo'q, shunchaki.. qandil puli deyman. Billur qandil! - Nilufar ma'yus kulimsiradi. - Oling. Qancha kerak bo'lsa - shuncha oling.
- Rahmat. Mana ellik so'm oldim. Borgan zahoti qaytaraman! - Hikmatillo ostonada paydo bo'lgan hamshira xotini ko'rib, o'rnidan turdi. - Umuman... men xat yozaman...

Hammasini... hammasini aytaman, Nilu! Adresingiz...

- Adresim... adresimni o'zim ham bilmayman...
- Mayli. Men Glavpochtamtga yozaman xatimni. O'zingiz borib olasiz. O'shanda... hammasini tushuntirib yozaman. Eshityapsizmi, Nilu, hammasini?

Nilufar indamay ko'zini yumdi. U o'zi bilan o'zi olishar edi...

## Mundarija

Qaydasan, Moriko?	3
Matluba	26
Billur qandillar	64

*Adabiy-badiiy nashr*

**Odil YOQUBOV**

# **BILLUR QANDILLAR**

*Qissalar*

Muharrir: *Axtam RO'ZIMURODOV*  
Badiiy muharrir: *Oloviddin SOBIR O'G'LII*  
Texnik muharrir: *Dilmurod JALILOV*  
Sahifalovchi: *Madina ABDULLAYEVA*  
Musahhih: *Nigora GANIYEVA*

Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.  
2018-yil 14-noyabrda bosishga ruxsat etildi.  
Bichimi 84x108 1/32. Cambria garniturasи.

Ofset bosma. 10,5 shartli bosma toboq. Nashr tobog'i 9,5.  
Adadi 10000 nusxa. 291-18 raqamli buyurtma.  
Bahosi shartnomaga asosida.

Yoshlar nashriyot uyi. Shayxontohur tumani,  
Navoiy ko'chasi, 11-uy.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining  
«O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent, 100206, Yangishahar ko'chasi, 1-uy.